

Oqilxon Ibrohimov

AMIR TEMUR VA  
TEMURIYLAR DAVRI  
MUSIQA MADANIYATI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA  
MADANIYAT INSTITUTI

OQILXON IBROHIMOV

# AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MUSIQA MADANIYATI

*Darslik*

Toshkent – “Donishmand ziyosi” – 2023

### Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir:

**N.M. Turg'unova** – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### Ibrohimov, Oqilxon.

Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyati [Matn]: darslik / O.Ibrohimov. –Toshkent: "Donishmand ziyosi", 2023. – 120 bet.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining magistratura bosqichi "70211901 – Cholg'u ijrochiligi, 70211901 – Ashula va raqs ta'lif yo'nalishlari" uchun yozilgan mazkur "Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyati" darsligida jahon tamaddunida "Ikkinchi Renessans" nomi bilan ma'lum tarixiy davrning musiqa madaniyati, saroy mumtoz an'analari, musiqa amaliyoti va ilmi kabi fan dasturiga muvofiq mavzular o'tmishga oid tarixiy, ilmiy, tasviriy, badiiy va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

### Taqrizchilar:

**D.M. Mullajanov** – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi;

**K.T. Kurbanov** – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti kichik ilmiy xodimi.

*O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydag'i 232-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

### KIRISH

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur 1370-yilda Mavarounahrning haqiqiy hukmdori bo'lgan davrdan boshlab mamlakatning iqtisodiy ahvoli anchagina yaxshilanib, xalq farovonligi yuzaga keldi. Zero, "Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoyat katta. Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o'z tug'i ostiga birlashtira oldi, markazlashgan yirik davlatga asos soldi. Bu bilan ziroatchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib berdi"<sup>1</sup>.

Ayni vaqtida, Sohibqironning ma'rifatparvar siyosati o'laroq ilm-fan va madaniyat ham yuksaldi. Yozma adabiyot, me'morlik va amaliy san'at noyob namunalari qatori musiqaning mumtoz namunalari shakllandi va ravnaq topdi. Bu kabi ma'naviy yuksalishlar XV asr davomida Sohibqiron vorislari bo'lmish Temuriylar davrida ham davom etdi. Pirovardida, bu olamshumul davr nafaqat xalqimiz madaniy-ma'naviy hayotida, balki jahon xalqlari tamadduni rivojida ham muhim ahamiyat kasb etdi va tarix zarvaraqlariga "Temur va Temuriylar Renessansi" nomi bilan muhrlandi.

Binobarin, Bugun "Temur va temuriylar davlati", "Temuriylar madaniyati", "Ulug'bek va Samarqand astronomiya maktabi", "Navoiy" va "Bobur" kabi qutlug' so'zlarni nafaqat o'zbeklarning, balki butun dunyo xalqlarining tarixi sahifalarida uchratar ekanmiz, ularning zaminida Amir Temurning ulkan xizmatlari yotishini nazarda tutishimiz lozim<sup>2</sup>.

Ma'lumki, sho'rolar davrida Amir Temur shaxsi va uning odilona siyosatiga haqqoniy va xolis baho berilmadi. Uning madaniyat sohasida olib borgan keng qamrovli bunyodkorlik faoliyati, shu jumladan,

<sup>1</sup> Amir Temur o'gitlari. – T., O'zbekiston, 2007. – 2-b.

<sup>2</sup> O'sha manba. – 2-b.

musiqa san'ati va uning namoyandalariga ko'rsatgan mehribonlik va g'amxo'rlik namunalari haqida esa hatto e'tiborga arzigulik fikr ham bildirilmadi. Qolaversa, "san'atning sinfyligi" ta'limoti kesimida saroy musiqa an'analari salbiy baholanib, xalq musiqa ijodiyotiga qarama-qarshi qo'yildi. Holbuki, saroy bastakorlari musiqa asarlarini ijod etishlarida, eng avvalo, xalq og'zaki ijodida to'plangan badiiy tajriba va ma'naviy boyliklar asqatgandi. Jumladan, ular el orasida yoyilgan ma'lum kuy va aytimlarni ijodiy qayta ishlagan holda "saroy estetikasi"ga muvofiq mukammal va mumtoz ko'rinishlarini zuhur etishga intilganlar. Har bir davr bastakorlari erishgan yutuq va kashfiyotlar esa "ustoz-shogird" vositasida keyingi avlod musiqachi (ijodkor-xonanda va sozanda)lari tomonidan ijodiy o'zlashtirilgan. Bunga Sharq musiqa madaniyatida yuzaga kelgan nazira badiiy an'analari yorqin misoldir<sup>3</sup>.

Zotan, Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida musiqa san'ati ravnaq topishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan edi. Natijada musiqa san'ati turli shakl va ko'rinishlarda rivoj topdi, o'tmishdagi hukmdorlar saroy madaniyatida shakllangan ko'p asrlik badiiy an'analari yangi sifat darajasiga yuksaldi. Ayni vaqtida, mumtoz kasbiy musiqaning eng salobatli va eng mukammal zuhuri bo'lgan maqomot tizimi yuzaga kelib, bizning davrga qadar bebafo ma'naviy meros yetib kelgan maqomlarning muhim poydevori yanglig' ahamiyat kasb etdi.

Darhaqiqat, salobatli maqom turkumlari, aslida, o'tmishdagi hukmdorlar tomonidan yaratib berilgan shart-sharoitlar o'laroq saroy musiqachilarini va musiqashunos olimlari hamjihatligida yaratilgan. Afsuski, mustaqilligimizga qadar o'tgan davr mobaynida dahriylar mafkurasi bu masalani ochiq-oydin yoritishga izn bermagan edi. Vatanimiz mustaqillikka erishgach Amir Temur va Temuriylar davri musiqa san'atini atroflicha o'rganish imkoniy yuzaga keldi. Binobarin, bugungi kun talabi o'laroq musiqachilarga homiylik qilgan va maqom san'atining yuzaga kelishiga imkoniyat yaratib bergen hukmdorlar –

Sohibqiron Amir Temur va temuriyzodalar faoliyatigaadolatmezoni ila xolis va haqqoniy baho berish fursati keldi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining magistratura bosqichi "Cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'naliishi" uchun yozilgan mazkur darslik mazmunida Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyati, saroy mumtoz an'analari, musiqa amaliyoti va ilmi kabi mavzular fan dasturida belgilangan rejaga muvofiq yoritiladi. Bunda o'tmishga oid tarixiy, ilmiy, tasviriy, badiiy va boshqa manbalar da keltirilgan ma'lumotlar alohida qimmatli bo'ldi. Xususan, Amir Temurning "Temur tuzuklari", "Zafar yo'li", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ruy Gonsales de Klavixonning "Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat" kundaligi, Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi ("Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" – Temur tarixida taqdir ajoyibotlari), Ibn Battutanning "Sayohatnoma. Tuhfat an-nuzzor fi g'aroib al-amsor va ajoib al-asfar", Hofiz Abro'ning "Zayli Zafarnoma", Zayniddin Vosifyining "Badoye' ul-vaqoye", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Abdulqodir Marog'iying "Maqasid ul-alhon", Abdurahmon Jomiyning "Risolayi musiqiy", Zaynulobiddin Husayniyning "Qonuni ilmiy va amaliyi musiqiy" kabi asarlar shular jumlasidandir.

<sup>3</sup> Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent, 2006. – 31–40, 241–260-betlar.

## **1-MAVZU: SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA MUSIQA**

**Reja:**

- 1. Amir Temur shaxsi va musiqa.**
- 2. Samarqand saroyi maqom san'ati.**

### **1. Amir Temur shaxsi va musiqa**

Buyuk davlat asoschisi, bunyodkorlik bobida ulug‘ ishlarni amalga oshirgan,adolat mezoni ila xalq va yurt farovonligi yo‘lida shijoat ko‘rsatgan Sohibqiron Amir Temur (1336–1405) bobomiz o‘zining o‘tkir zehni, ilmga zukkoligi va san‘atsevarligi, qolaversa, zamonasining olim-u fuzalo, me‘mor-u hunarmand, shoir-u san‘atkorlariga mehr-muruvvatliliqi bilan ham dong taratgan edi. Ulug‘ Sohibqironning shu kabi go‘zal fazilatlari ham bois bu davrga kelib diyorimizda shaharsozlik va me‘morlik, amaliy va tasviriy san‘at, mumtoz adabiyot va musiqa keng ko‘lamda ravnaq topishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Amir Temur ibn amir Tarag‘ay 1336-yil 9-aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag‘ay barlos ulusiga mansubbeklardan, bahodir jangchi, ulamo-yu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyooqmand kishi bo‘lgan. Tabiatan mard, dovyurak va o‘tkir zehnli Amir Temur yoshligida xat-savod chiqarib, dunyoviy va diniy ilmlarni, o‘z davrining tibbiyat, riyoziyat, falakiyat, me‘morchilik va tarix ilmlarini o‘rgangan hamda harbiy san‘atini chuqur egallaydi. 12 yoshda Qur‘oni karimni yod oladi hadis ilmini chuqur o‘rganadi. Oqibatda imon-e‘tiqodli, halol-pok, inson bo‘lib yetishadi.

Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga tuyassar bo‘lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, arab, fors xalqlari taxixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlariga cha yaxshi o‘zlashtirganini ta‘kidlaydi.

Amir Temur shaxsini teran anglab olishda, eng avvalo, buyuk bobomiz qalamiga mansub “Sohibqiron o‘gitlari”, “Temur tuzuklari” kabi yozma manbalar benihoya qimmatlidir. Jumladan, “Sohibqiron o‘gitlari”da shunday misralarni o‘qiyimiz: “Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. ... Qaysi mamlakatni zaibt etgan yoki qo‘sib olgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘-e‘tiborli kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuza-lo va mashoyixiga ta‘zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg‘ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o‘sha viloyatning ulug‘larini og‘a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo‘lsa o‘z furzandlarimdek ko‘rdim”.

Yana e‘tiborlisi shundaki, kuragi yerga tegmagan sarkarda Amir Sohibqiron shaxsida hech qachon takabburlik va manmanlik illatlari jo bo‘Imagan. Ibn Arabshohning ta‘kidiga ko‘ra: “Temur doimo: – “Saltanatdan erishgan jamiyki narsam va mustahkam makonlarni fath qilishim – bular hammasi Shayx Shamsuddin al-Fohuriyning duosi, Shayx Zaynuddin al-Xavofiyning himmati tufayli va barcha topgan barakatlarim esa faqat Sayyid Baraka yordamida bo‘lgan”, – deyar edi”<sup>4</sup>.

Ayni vaqtida nozik did sohibi Amir Temur shaxsida haqiqiy ijodkorlik javhari mujassam edi. Buni, jumladan, Sohibqironning musiqaga bo‘lgan munosabatidan ham anglab olish mumkin. Yozma manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, buyuk bobokalonimiz musiqani teran idrok eta olgan hamda asl musiqachilar qadrini bilgan va ularni mudom e‘zozlagan.

Fayzulla To‘rayev ushbu mavzuni yoritarkan, asosli ravishda shunday yozadi: “Buyuk bobomiz Amir Temur musiqa san‘ati va uning ijrochilarini nihoyat darajada sevgan va ularni e‘zozlab kelgan. Shu bois uning hukmronlik davrida ko‘pgina iste‘dodli xonanda-sozandalar mashhurlik darajasiga yetishgandi. Biz milliy madaniyatimizning temuriylar davri taraqqiyotiga nazar solar ekanmiz, milliy musiqamiz bu jarayonda yuqori rivoj pog‘onasiga ko‘tarilganligini ko‘rishimiz

<sup>4</sup> Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob. –Toshkent: Mehnat, 1991. – 73-b.

mumkin. Bu esa, ulug' Amir Temurning milliy madaniyatimiz va uning fidoyilariga ko'rsatgan cheksiz g'amxo'rligi tufaylidir”<sup>5</sup>.

Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma”sida keltirilgan quyidagi lavha bu fikrni quvvatlaydi: “Hinduston viloyatini olgandin keyin... Amir Sohibqiron ahli Hindustonni mashshoq, nag'masozlarini charqirib aydilarki, man eshitib erdim, ulug'lardin bu viloyatlarda yaxshi mashshoqlar bor deb. Andin keyin mashshoqlar “xo'b, bajonidil, taqsir”, deb kelib, maqomini qila boshladi. Mashshoqlar ichra ko'zi ko'r bir nag'machi bor erdi. Amir Sohibqirong'a ko'b manzur bo'ldi. Ul ko'r Amir oldida doim nag'ma chaladigan bo'ldi. Bir kun Amir Sohibqiron nag'machi ko'rdin “Oting nima?” – deb so'radilar. Nag'machi: “Otim Davlat”, deb javob berdi. Amir Sohibqiron aydilar: “Davlatni ko'zi ko'r bo'lurmۇ?” Nag'machi aydi: “Davlat ko'r bo'lmasa, oqsoq qoshig'a kelurmۇ?” Bu so'z Sohibqirong'a ma'qul bo'lub, anga ko'b in'om va siylov berdilar”<sup>6</sup>.

Musiqani teran anglagan buyuk Sohibqiron san'atkorlarni qadrlagan, saroyda faoliyat ko'rsatayotgan musiqashunos olim, mashshoq va hofizlar barobarida turli tadbirdarga xorijiy mamlakatlardan taklif etilgan musiqa ustozlariga ham bag'rikenglik namunalarini ko'rsatib, ularni, millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, mudom e'zozlagan.

Inchunin, Amir Temur ishtirok etgan ommaviy tantana, to'y va boshqa bayram marosimlarida turli o'lkalarning musiqachilarini ham o'z san'atlarini namoyish etishlari odat tusini olgan edi. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”sida qayd qilinishicha: “Olamning turli tarafidan yig'ilgan tillari va kiyimlari bir-birlaridan farqli har qaysi mamlakat sozandalari, har bir iqlimning san'at ahllari-yu hunar sohiblari guruh-guruh bo'lishib har diyorning o'zida rasm va odat qilingan zeb-ziynat buyumlari, taqinchoqlari, kiyim-kechak va matolari bilan yasanib, o'zlariga oro berdilar.

Xushnag'ma sozandalar va xushovoz xonandalar fors tariqasida, ajam tartibida, arab qoidasida, turk yo'sinida, mo'g'ul ayolg'usida,

<sup>5</sup> To'rayev F. Mutribot qalbidan uchgan navolar. – T., Navro'z, 2018. – 47-b.

<sup>6</sup> Toshkandi Salohiddin. Temurnoma (nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va lug'at muallifi Poyon Ravshanov, muharrir Chori Avaz). – T., Cho'pon nomidagi nashriyot, 1990. – 163–164-betlar.

xitoy rusumida, oltoy uslubida soz chalmoq, ashula aytmoq va ohang bog'lamoq ila mashg'ul edilar”<sup>7</sup>. Shunga yaqin ma'lumotlarni Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida ham ko'ramiz: “Yaxshi unluq mug'anniyalar un tortib, g'azal-u naqsh aytur erdilar. Va turk-u, mo'g'ul-u, xitoy-u, arab-u, ajamdin harkim o'z rasmi bilan nima aytur erdi. Ul jumladin Xoja Abdulqodirkim, benaziri olam erdi, qo'buz va yatug'on va udni shodliq mizrobi bila chala boshladi”<sup>8</sup>.

Sohibqiron Amir Temurning hukmdorlik martabasida asos solingan madaniy an'analar uning vorislari – Shohrux Mirzo, Mironshoh, Xalil Sultan, Ulug'bek Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo, Husayn Boyqaro, Boysung'ur Mirzo, Sultan Badiuzzamon Mirzo, Umarshayx Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi Temuriy hukmdorlar tomonidan munosib davom ettirilgan edi.

## 2. Samarqand saroyi maqom san'ati

Saroy mumtoz musiqasining shakllanishi, ayniqsa, o'sha davr Sharq musulmon olamida mashhur bo'la boshlagan “O'n ikki maqom” tizimining Amir Temur asos solgan davlat poytaxti – Samarqand saroy musiqa amaliyotiga rasmiy joriy etilish jarayonlari alohida diqqatga sazovordir. Zero, bu ilmiy-ijodiy vazifani hayotga tatbiq etishning qator murakkab jihatlari va xususiyatlari mayjud bo'lgan. Jumladan, yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilgan “O'n ikki maqom” tizimi ilk bor alloma Safiyuddin Urmaviy (tax. 1215–1294-y.) tomonidan advor (doiralar, davrlar) ilmi tarzida Bag'dodda tasnif etilgan bo'lib, unda aksariyat Sharq xalqlari ijodi va kasbiy musiqa jabhalarida yuzaga kelgan musiqiy qadriyatlar tizimlashtirilgan edi.

Bu tizimni joylarda amaliy qo'llash uchun esa milliy musiqa xazinasida jamlangan kuy-ohang va ritmik usul boyliklarini matematik metodlar asosida advor holiga keltirish, shuningdek, ularning sifat (mukammal, nomukammal va h.k.) darajalarini ilmiy aniqlash

<sup>7</sup> Shomiy, Nizomiddin. Zafarnoma. – T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 393-b.

<sup>8</sup> Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T., “Sharq” nashriyot-matbaa konserning bosh tahriri, 1997. – 291-b.

va shu asosda musiqiy tizimdag'i (ma'lum g'oya ifodasiga muvofiq) tartib o'rinalarini belgilash talab etilgan. Zero, mutaxassislarga yaxshi ma'lumki, maqom bu, eng avvalo, yuksak ilm, so'ngra shu asosdag'i ijodiy mehnat (bastakorlik) mahsulidir.



<https://www.google.com/>

Tabiiyki, ijodiy va ijroviy amaliyotlar uchun poydevor yanglig' zarur bu kabi ilmiy masalalarning ishlamalari (yechimi) musiqashunos olimlar zimmasida bo'lgan. Ammo o'sha davrda bu soha olimlarining eng yuqori malakali ustodlari, asosan, xorijiy muslimon mamlakatlarida istiqomat qilishar edi.

Tarixdan ma'lumki, Sohibqiron poytaxt Samarqandni jahondagi eng ko'rkam va madaniy rivojlangan shaharga aylantirishga mudom intilgan va shu maqsadda o'zga yurtlik mashhur hunarmand usta, olim, shoir va ulug' san'atkirlarni Samarqandda faoliyat yuritishlari uchun jamlagan. Shu jumladan, Sohibqironning bevosita sa'y-harakatlari ila maqom ilmining benazir ustozlari ham turli mamlakatlardan bizning yurtimizga keltirilgan edi.

Alalxusus, manbalarda qayd qilinishicha, 1393-yili ulug' bobomiz Bag'dodni zabt etgach, bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan yaxshi hunarmand kishilari qatorida zamonasining tengsiz xushovoz hofizi va mashshoqi, maqomshunos olimi va yuksak salohiyatlari ijodkori Abdulqodir Marog'iy (Xoja Abdulqodir ibn G'oibiy Hofiz al-Marog'iy, 1353–1435) iste'dodiga alohida e'tiborini qaratgan: "Va Xoja Abdulqodirim, musiqiy ilmida olamda mashhur va nodir ul-asr erdi, ani taqi Samarqand yibardi"<sup>9</sup>. Muarrix Ibn Arabshohning "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari" nomli kitobida qayd etilishicha, Samarqandga yuborilganlar qatorida Abdulqodir Marog'iy bilan birga "uning o'g'li Safiyuddin, kuyovi Nasriyin, Qutb al-Mousiliy, Ardasher al-Changiy va boshqalar" ham bo'lgan<sup>10</sup>.

Bu yerda yana e'tiborlisi shundaki, poytaxtda to'plangan olim va ustoz san'atkirlarning ilmiy-ijodiy faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar ham yaratib berilgan edi. Inchunin, dastlab Sohibqiron saroyi, keyinchalik esa Mironshoh,<sup>11</sup> Shohrxux Mirzo,<sup>12</sup>

<sup>9</sup> Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T., Sharq, 1997. – 159-b.

<sup>10</sup> Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). – T., Mehnat, 1992. – 86–87-betlar.

<sup>11</sup> Mironshoh (Jaloliddin Amiranshoh, 1366–1408) – Xuroson, Eron va Iroq hukmdori, Sohibqiron Amir Temurning uchinchi o'g'li.

<sup>12</sup> Shohrxux (Abu Nasr Shohrxux Bahodir sulton, 1377–1447) – Temuriylar hukmdori, Sohibqiron Amir Temurning to'rtinchi o'g'li.

Xalil Sulton<sup>13</sup> kabi Temuriy hukmdorlar saroyining benazir musiqa-chisi bo‘lgan Abdulqodir Marog‘iy ana shunday sharoit va imkoniyatlar o‘laroq o‘zining musiqa ilmida hozirga qadar mashhur “Masqosid ul-alhon” (“Kuylarning o‘rnii”) va “Jami’ ul-alhon” (“Kuylar to‘plami”) nomli shoh asarlarini bizning diyorimizda yaratgani bezjiz bo‘lmasa kerak<sup>14</sup>.

Shuningdek, mantiqiy mulohazalarga ko‘ra, Abdulqodir Marog‘iy boshchiligidagi bir guruh olim va san’atkorlar “O‘n ikki maqom” tizimining o‘lkamizdagи ilk mumtoz ko‘rinishini aynan Sohibqiron Amir Temur saroyida yuzaga keltirgan edilar. Professor Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” risolasida qayd etilgan quyidagi satrlar ham shunga ishora etadi: “Temurning buyrug‘i bilan har tomonidan keltirilgan ixtisoschi olimlarning g‘ayratlari bilan bu san’at (ya’ni “O‘n ikki maqom” – O.I.) birdan jonlandi. Islom sharqining har tomonidan keltirilgan cholg‘uchilar bizning bu kungi klassik musiqamizning yuksalishiغا, ko‘tarilishiga xizmat qildilar. Oz zamonda yerlilardan ulug‘ mu-siqiyshunoslar yetishdilar”<sup>15</sup>.

Mumtoz maqomlarning buyuk davlat saroyida rasmiy tus olishi hamda keyinchalik Temuriylar davrida tadrijiy rivoj topishida, nazarimizda, bu san’atning buyuk davlat mafkurasiga muvofiqligi masalasi ham muhim o‘rin tutgan. Ma’lumki, Amir Sohibqiron va Temuriylar davrida tasavvuf ta’limoti alohida nufuzga ega bo‘lgan va, ma’lum darajada, rasmiy mafkura bilan tutashib ketgan edi.

<sup>13</sup> Xalil Sulton (1384–1411) – Movarounnahr hukmdori (1405–1409), Mironshohning o‘g‘li.

<sup>14</sup> Abdulqodir Marog‘iying ilmiy va ijodiy faoliyati haqida quyidagi adabiyotlarga qarang: Agayeva Suraya Xusrov qizi. Абдулгадир Мараги и его музыкально-теоретическое наследие (XIV–XV вв.): дис. канд. искусствоведения. Баку. –М.: Научно-исследовательский институт искусствознания, 1979. – С. 138; Агаева С. Из истории музыкальной культуры Азербайджана. Абдулгадир Мараги. // Музыка народов Азии и Африки. Вып. 3.– М.: Сов. Композитор, 1980. – С. 243–260; Shodmonov Nafas. Xoja Abdulqodir Marog‘iy. – T., G.G.‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.

<sup>15</sup> Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T., Fan, 1993. – 39–40-betlar.

Buni, masalan, Amir Temur tomonidan shayxul mashoyixlarga ko‘rsatilgan alohida izzat-ikrom namunalarida ham ko‘rish mumkin. Xususan, ulug‘ Sohibqiron Xoja Ahmad Yassaviy hazratlariga chuqr ehtirom bildirib, Turkistonda “Ahmad Yassaviy” me’moriy obidasini (maqbarasini) qurdirgan, shuningdek, mo’tabar shayxul-mashoyixlardan Zayniddin Toybodi, Shamsiddin Kulol va Sayyid Barakalarni o‘zining pirlari deb tan olgan va ularga chuqr ehtirom bilan munosabatda bo‘lgan<sup>16</sup>.

Binobarin, shu holatlar bois xalq orasida keng yoyila boshlangan so‘fiyona g‘oyalarni saroy muhiti va u bilan bog‘liq she’riyat, me’morchilik, amaliy va tasviriy san’atlar bilan birga mumtoz musiqada ham o‘ziga xos ifodalash imkoniyatlari mavjud bo‘lgan. Xuldas, shu va yuqorida qayd etilgan omillar asosida “O‘n ikki maqom” tizimi ko‘plab olim va kasbiy musiqachi ustozlarning o‘tmish va o‘z zamonasi musiqa boyliklarini o‘sha davr mumtoz talablari va ilg‘or g‘oyalariga muvofiq badiiy yaxlit tizim holiga keltirish ustida samarali olib borgan ilmiy-ijodiy izlanishlarining natijasida yuzaga kelgan hamda buyuk davlatning ustuvor ma’naviy-mafkuraviy tizimlari qatorida saroy madaniyatidan munosib o‘rin olgan edi.

### Savol va topshiriqlar:

1. “O‘n ikki maqom”ni Samarqand saroyiga qaysi hukmdor joriy etgan?
2. Mashhur musiqachi va olim Abdulqodir Marog‘iyni Bag‘dodan Samarqandga qaysi hukmdor olib kelgan?
3. Zayniddin Vosify qalamiga mansub mashhur asarning nomini ayting.
4. Sohibqiron Amir Temurning musiqachilarga munosabati haqida gapiring.

<sup>16</sup> Ibn Arabshohning ta’kidiga ko‘ra: “Temur doimo: – “Saltanatdan erishgan jamiyki narsam va mustahkam makonlarni fath qilishim – bular hammasi Shayx Shamsuddin al-Fohuriyning duosi, Shayx Zaynuddin al-Xavofiyning himmati tufayli va barcha topgan barakatlarim esa faqat Sayyid Baraka yordamida bo‘lgan”, – deyar edi”. Qarang: Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob. – T., Mehnat, 1991. 73-b.

## **Adabiyotlar**

1. Rajabov I. Maqomlar. – Т., 2006.
2. Ибрагимов О.А. Маком и космос. – Т., 2010.
3. Ибрагимов О.А. Фергано-Ташкентские макомы. – Т., 2006.
4. Zayniddin Vosify. Badoye' ul-vaqoye. – Т., 1979.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Т., 1996.
6. Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqlolalar to‘plami. 2-kitob. – Т., 2002

## **2-MAVZU: AMIR TEMURNING HARBIY MUSIQA SAN’ATI**

**Reja:**

1. Harbiy musiqa janrlari.
2. Zarb usullari – axborot uzatish vositasi sifatida.

### **1. Harbiy musiqa janrlari**

Ulug‘ Sohibqiron musiqa san’atining qudratli ta’sir kuchidan, ayniqsa, urma (nog‘ora, dovul va b.) va damli (karnay) cholg‘ularning o‘ziga xos kuchli sado-tarovatidan harbiy maqsadlarda unum organi muarrixlar tomonidan ko‘p bora qayd qilingan. Jang-u jadal maydonlarining ajralmas qismiga aylangan nog‘ora (naqqora) usullari va karnay (nafir) sadolari,<sup>17</sup> tabiiyki, askarlarda mardlik tuyg‘ularini uyg‘otishga va shu asnoda jasorat namunalarini ko‘rsatishga chorlagan bo‘lsa, dushman ko‘ngliga g‘ulg‘ula solgan. Sadolanishi kuchli bu cholg‘ularning jang maydonlarida bajargan shu kabi vazifalari yaxshi ayon. Binobarin, Amir Sohibqironning harb san’atida zarbli va damli cholg‘ular alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozma manbalardan ayon bo‘ladiki, harbiy maqsadda qo‘llangan cholg‘ular soni anchagina salmoqli bo‘lgan. Ularning aksariyati “Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrlarida mashhur bo‘lgan”<sup>18</sup>. Bu cholg‘ular orasida bizga bugungi kunda ma’lum (nog‘ora, dovul, karnay va b.) va bizgacha yetib kelmaygan turlari (masalan, noyi rumiy, bug‘,nofir, tirsakli karnay, chabchig‘, shon, jaras, kavarka va b.) ham bisyor.

<sup>17</sup> Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Т., Sharq, 1997. – 185-, 248-, 260-, 269-, 276-betlar.

<sup>18</sup> Nazarov A. Temuriylar davrida harbiy musiqa. – Т., Guliston, 1997. № 4.

Amir Temur davri harbiy musiqasi asosan cholg‘u janrlaridan iborat bo‘lgan. To‘g‘ri, goho xushxon hofizlar ham jang maydonlariga jalb qilingan. Masalan, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma”sida Rumga qarshi jangda 40 ming lashkar bilan birga yana shuncha karnay, nog‘ora va bolabon cholg‘uchilari va to‘rt ming hofizi xush qatnashgani zikr qilinadi<sup>19</sup>. Hofizlarga “tunukadin uy qilib tevalarga ortgan erdi, vaqt kelib, jang ichra kirgan vaqtlarinda nag‘mayi qilib, tanburlarin cholib, imom Hasan va imom Husayn marsiyalaridin o‘qur erdilar. Alarni ovozig‘a askarlar mast-u mustag‘riq bo‘lub, o‘zlarin jangg‘a urar erdilar”<sup>20</sup>.

Shuningdek, “Temur tuzuklari”da jangchilarni safarbar etish chog‘ida inson ovozidan, ayrim maxsus intonatsion tizilmalardan keng foydalanylган haqida ma’lumotlar keltiriladi: “Yana amr etdim, – deydi u, – sipohilar g‘anim lashkarlariga ko‘zlari tushishi hamono, baland ovoz bilan “Ollohu akbar” deb takbir aytsinlar va suron (jangovar chaqiriq “urho-ur!” – A.N.) solib, dushman cherigi ustiga bostirib borsinlar”<sup>21</sup>.

Ayni vaqtida Amir Temur dahosi bilan urush “teatri”ga muvofiq holda tarkibi asosan puflama va zarbli cholg‘ulardan iborat harbiy orkestr shakllangan edi. Bunda zarbli usul ifodasini ta’milagan nog‘ora cholg‘usi turlari alohida muhim o‘rin tutgan.

Avvalambor usul tushunchasi xususida muxtasar to‘xtalib o‘tish lozim. Arab tilidan olingan bu so‘z mazmunida “asosiy qoidalar, qonunlar, qabul qilingan tartib, biror narsani yuzaga chiqarish, amalga oshirish yo‘li; harakat tarzi, xili, tartibi, yo‘l; biror ish, mashg‘ulot kabilarga xos bo‘lgan, unda qo‘llanuvchi asosiy xatti-harakat, yo‘l, musiqada kuyning ijro etilish sur’ati hamda bu suratni boshqarib turish uchun beriladigan musiqiy imo-ishoralar” kabi ma’nolar anglashiladi<sup>22</sup>. Bu yerda shuni aytish kerakki, urma cholg‘ular (doyra, dapp, nog‘ora, dovul, qayroq, zang va b.)da hosil qilinadigan ritmik

<sup>19</sup> Toshkandiy, Salohiddin. Temurnoma (nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va lug‘at muallifi Poyon Ravshanov, muharrir Chori Avaz). – T., Cho‘lon, 1990. – 308–309-betlar.

<sup>20</sup> O‘sha asar. – 308-b.

<sup>21</sup> Nazarov A. Temuriylar davrida harbiy musiqa. – T., Guliston, 1997. № 4.

<sup>22</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘at. – T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 303-b.

usullar o‘zbek musiqasida juda qadimdan ma’lum. Inchunin, bir maramoda takrorlanuvchi ritmik usul (formula)lar ayrim urf-odat va mafrosimlarning tarkibiy qismi bo‘lib, shu asosda ma’lum o‘yin va raqs harakatlari amalga oshirilgan. Bizgacha meros yetib kelgan birgina “Katta o‘yin” turkumida o‘z nomi, g‘oyasi va mazmuniga ega bo‘lgan 100 ga yaqin usullar turkumi mavjud bo‘lganki, ularning har biri raqs harakatlari orqali ham ifodalangan.

Tarixdan yaxshi xabardor Amir Sohibqiron madaniyat yutuqlaridan buyuk davlat qudratini yuksaltirish va xalq farovonligini oshirish yo‘lida maqsadli foydalangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Zero, professor Muhsin Qodirov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “Amir Temur hamma narsani – san’atni, o‘yin va tomoshalarni, hatto o‘z kuchi ni ham davlatni mustahkamlash, sultanatni ulug‘lash, jangda g‘olib chiqish sari yo‘naltirgan”<sup>23</sup>.

Bu borada yana bir e’tiborlisi shundaki, Amir Sohibqiron va uning vorislari bo‘lgan Temuriylar davrida urma cholg‘ularda hosil qilinadigan usullarga benihoya katta e’tibor berilgan. Buni shundan ham anglasa bo‘ladiki, amaliyotda doyra, nog‘ora va dovullardan tashqari yana chinni idishdan ishlangan va cho‘plar bilan chalinadigan kosalar, metalldan yasalgan toslar, tosh va po‘latli (alvoh) maxsus urma cholg‘ular qo‘llangan<sup>24</sup>. Bu hol, o‘z navbatida, raqs san’ati rivojiga ham ta’sirini ko‘rsatgan edi. Raqs tushishda yuqori mahoratga erishgan san’atkorlar esa “sohibi usul” deya ulug‘langan. Jumladan, Temuriylar olqishiga sazovor bo‘lgan Sayyid Badr va Yusuf Ali ismili raqqoslarni Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Voqeanoma” (“Boburnoma”)sida “ajab sohibusul kishi”lari qatorida tilga oladi.

Shu bilan birga bastakorlik jabhasida ham yangi usulni yaratish yoki kashf etish haqiqiy ijodkorlik sifatida yuqori baholangan. Kuylar ni ijod etishda esa, asosan, “O‘n ikki maqom” tizimidan o‘rin olgan parda-ohanglaridan andoza olingan. Zotan bu ohanglar payg‘am-

<sup>23</sup> Qodirov M. Temur va Temuriylar davrida tomosha san’atlari. – T., G.G.‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.

<sup>24</sup> Shodmonov Nafas. Xoja Abdulqodir Marog‘iy. – T., G.G.‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 62-b.

barlar va avliyolarning ma'naviy merosi (maqomlar guruhi) hamda Sharq xalqlarining asriy musiqiy qadriyatlari (sho'balar guruhi) asosida ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan edi. Ayni vaqtida esa, musiqaga doir risolalarda tasnif etilgan usullardan tashqari yana yangi usullarni ijod qilish mumkinligi qayd qilinadi<sup>25</sup>.



<https://www.google.com/>

<sup>25</sup> Masalan, Abdurahmon Jomiy o'zining "Musiqa haqida risola"sida usullarining 11 ta asosiy davri va ularning 20 ga yaqin ko'rinishini tasnif etarkan, bu borada yana zamondosh ijodkorlar tomonidan yangi davrlar ixtiro qilinganligini, zero, bu ishda hech qanday chegara va taqiqlashlar yo'qligini ta'kidlaydi. Qarang: Джами Абдурахман. Трактат о музыке (пер. с перс. А.И.Болдырева). Ред. и комментарии В.М.Беляева. –Т.: АН РУз. 1960. – С. 64.

Saroy san'atkorlarining sultonlarga (xonlarga) bag'ishlab ijod etgan eng oliv musiqiy tuhfasi – miatayn majmuasida ham aynan usul omili va badiiy ifodasi muhim o'rinda turgan. Masalan, zamonasining tengsiz xushovoz hofizi va mashshoqi, maqomshunos olimi va yusak salohiyatlari ijodkori Abdulqodir Marog'iy Amir Sohibqironga har biri ellik zarbdan iborat ikki yuz davrli miatayn asarini tuhfa etgan. Keyinchalik shu kabi miatayn majmuasini saroy musiqachilaridan Xoja Shayxim Tebesiy va Darvish Ali Changiylar ham ijod etganlar<sup>26</sup>.

Afsuski, harbiy musiqa turlarining mazmuni, ohang tizimi xususida manbalarda ma'lumotlar keltirilmagan. Ularning faqat nomlari va usul shakllarigina saqlanib qolgan. Masalan, Marog'iy o'z risolalarida Samarqandda ijod qilgan "Zarb ul-fath" va "Davri Shohiy" usullarini keltiradi.



<https://www.google.com/>

<sup>26</sup> Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVIII в.). – Т., 1946. – С. 57–59.

Shuningdek, taniqli olim Nafas Shodmonovning aniqlashicha, Abdulqodir Marog‘iy 1380–1381-yillari Jaloiriylardan bo‘lgan “Sulton Husaynning talabi bilan 24 davrli “zarbi robe”” usuliga tartib berган”, 1382-yili esa Shayx Alining g‘alabasi sharafiga 49 davrli “Zarbi fatih” usulini vujudga keltirgan, Bag‘dodda Sulton Ahmad Bahodir davrasida “kechgan 20 yillik umridan mammunligini 30 davrli “Davri shohiy” nomli usulni yaratish bilan izhor” qilgan edi. Shuningdek, Sulton Xalil saroyida sakkiz davrli “Davri qamariyya” usulini yaratgan Abdulqodir Marog‘iy Shohruk saroyida shohning adolatini taranum etuvchi 28 davrli “Davri adl” nomli yangi usulga tartib bergan. “Bundan tashqari, uning “Zarb ul-jadid” deb nomlangan usuli ham mashhur bo‘lgan”<sup>27</sup>. Qolaversa, Marog‘iyning yuksak iste‘dodi yana shunda namoyon bo‘lar ediki, “u bir vaqtning o‘zida bir qo‘li bilan ramalni (24 naqra), yana bir qo‘li bilan xafifni (16 naqra), bir oyog‘i bilan virshoni (16 naqra), yana bir oyog‘i bilan foxitiyni (20 naqra) ijro etardi”<sup>28</sup>.

Musiqada o‘ziga xos “ichki dirijyor” vazifasini bajaruvchi usul ifodaviy vositasi harbiy maqsadlarda ham keng qo‘llanilgan. Ma’lumki, askarlarning urushga tayyorlanish jarayonlariga oid harbiy mashqlari, jumladan, bir maromda intizom bilan yurishlari, o‘ng va so‘l burilishlari va hokazo harakatlari urma cholg‘u (asosan, nog‘ora, baraban) usullari asosida tartibli ko‘rinish holiga keltiriladi. (Zarbli usullarning bu kabi “harbiy vazifalari” hozirgi kundagi zamonaviy harbiy qo‘shin armiyalarda ham o‘z kuchini saqlab kelmoqda.)

Binobarin, har bir yuqori intizomli armiyada bo‘lgani kabi buyuk Sohibqiron qo‘shinlarining kundalik kasbiy mashqlari yoki harbiy marosim harakatlarini intizomli bajarilishiga oid usullar tizimi bo‘lganligi shubhasizzdir. Shuningdek, jang maydonlarida ham urush taktikasiga muvofiq alohida usullar tizimi qo‘llaganligi e’tiroz tug‘dirmaydi. Bu toifa usullar dastlab “qo‘shinning jangovar holatini nazardan o‘tkazish, imtihon qilish usuli sifatida e’tirof etilgan ov-

garta (ov uyushtirish)”<sup>29</sup> jarayonlarida sinovdan o‘tkazilib turilgan bo‘lsa kerak. Zero, urma (nog‘ora, dovul) va damli (nafir, karnay va b.) cholg‘ular ansambl o‘sha davrdagi ov jarayonlari tasvirlangan ko‘plab miniyaturlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Xullasi kalom, Temur va temuriylar davrida harbiy musiqa mustaqil janr sifatida uzil-kesil shakllandi, harbiy orkestr esa yangi cholg‘ular bilan yanada boyidi.

## 2. Zarb usullari – axborot uzatish vositasi sifatida

Sohibqironning urush san’atiga ko‘ra, urma va damli cholg‘ularda hosil qilinadigan usullar vositasida harbiy janglarda muhim bir (taktik) ishlar ham amalgalashirilgan ko‘rinadi. Tarixiy manba va musiqiy risolalarini o‘rganish hamda musiqiy meros namunalarini maqsadli tahlili o‘laroq Sohibqiron urush “teatri”ning “dramaturgiyası”ga oid maxsus zarbli usullar tizimi ishlab chiqilganligi haqida shunday mantiqiy xulosaga kelindi.

Nazarimizda, bu usullar bevosita jang maydonlarida yuzaga kelgan muayyan vaziyat va sharoitga qarab qo‘llangan, ya’ni urushni boshqarayotgan Amir Sohibqiron (bosh qo‘mondon)ning harbiy buyruqlari (masalan, “olg‘a”, “ortga”, “qurshov” va h.k.) oldingi safda jang olib borayotgan sarkardalarga cholg‘u usullari vositasida (o‘ziga xos Morze teleografi tarzida) maxfiy yetkazib turilgan. Mazkur usullarning aniq ifodalanishi nog‘orachilar zimmasida bo‘lgan, nafir (karnay) va burg‘u damli cholg‘ulari esa bu usullarning yanada kuchli sadolanishiga ko‘mak bergen<sup>30</sup>.

<sup>27</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-t. – T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.

<sup>28</sup> Misdan yasalgan karnay va burg‘u cholg‘ularida musiqada mavjud barcha tovushlar sadolanmaydi, balki asosan oktava va kvarta-kvinta oralig‘idagi nag‘malar hosil qilinadi, xolos. Shu bois ham tom ma’nodagi kuylar chalinmaydigan bu cholg‘ularning kuchli tovushlari asosida to‘y marosimi, ommaviy sayil, bayram va xalq tantanalarining boshlanishi haqidagi xushxabarni xalq ommasiga “jar solib” yetkazilishi an‘anaga aylangan. Urush teatrinda esa, vaziyat taqozo etgan zarur hollarda, bu cholg‘ular nog‘ora zarbarining ritmiga mos sadolanib, shu asnoda usullarga yo‘g‘rilgan harbiy buyruqlarni shovqin-suronli jang maydonidagi sarkardalarga benuqson yetkazib berilishini ta‘minlashga xizmat qilganligi haqiqatga yaqin bo‘lsa kerak.

Bu farazni isbotlashga asos bo‘lgan bevosita dalillarga ega emas-miz. Qolaversa, bu kabi usullarning mazmun ifodasi ma’lum (urush strategiyasi va b.) sababga ko‘ra ko‘pchilik (hatto oddiy askarlar) dan sir tutilgan bo‘lishi tabiiydir. Bizgacha yetib kelgan o‘tmish musiqiy risolalarida ham doyra usullarining mazmun semantikasi haqida (maqom pardalaridan farqli o‘laroq) hech qanday ma’lumot berilmaydi. Shu bois yuqorida ilgari surilgan farazni quvvatlashga xizmat qiluvchi ayrim omillarni bilvosita dalillar sifatida keltirib o‘tamiz.

Urush paytida esa bu usullar balandlikda joylashgan borgohdan jang borishini kuzatib turgan oliy qo‘mondonning vaziyatga qarab bergen buyrug‘i asosida chalingan. Usullar vositasida uzatilayotgan xabarlarning mazmuni mansabdor Temuriylar hamda “Temur tuzuklari”da qayd qilingan turli darajadagi amirlar, mingboshi va beglarbegigagina bildirilgan bo‘lsa kerak: “Amr qildimki, o‘n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq (alam) va bir nog‘ora berilsin. Amir ul-umaroga bayroq va nog‘ora, tuman tug‘i va chor-tug‘ taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug‘ va karnay (nafir) bersinlar. Aymoqlarning amirlariga bo‘lsa, bittadan burg‘u taqdim etsinlar. To‘rt beglarbeginning har biriga bittadan bayroq, nog‘ora, chortug‘ va burg‘u bersinlar”<sup>31</sup>. Odatda, nog‘ora va bayroq – oliy hokimiyat (saltanatlilik) ramzi sifatida baholanadi<sup>32</sup>. Nazarimizda, harbiy amaldorlarga nog‘ora berilishida boshqa bir sir ham borga o‘xshaydi.



<https://www.google.com/>

<sup>31</sup> Temur tuzuklari (Forschadan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi). – T., G\*.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1991. – 82–83-betlar.

<sup>32</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – T., 2000–2005. – 422-b.



<https://www.google.com/>

Ma'lumki, 1370-yilning bahorida katta sinovli jang arafasida turgan 34 yoshlik Amir Temurga makkalik shariflardan Mir Sayyid Baraka (? – 1404) tomonidan nog'ora bilan bayroq tortiq qilingan. Bu aziz pir in'omida harbiy kuchni maqsadli boshqarish o'laroq erishilajak g'alaba ham ramz etilgan bo'lsa ajab emas.

Nog'ora usullariga yo'g'rigan xabarlarning maxfiyligi hamda ularni Temuriyzoda va amirlarga bus-butun yetkazilishiga xon sarojidagi naqqoraxona boshlig'i – mehtar mas'ul bo'lgan ko'rindi. Naqqoraxonada surnaychi, karnaychi nog'orachi va doyrachilar dan iborat ansambl faoliyat ko'rsatgan. Mehtar (fors. – ulug', janob), odatda, nog'ora usullarini mukammal bilgan yuksak mahoratli sozanda, naqqoraxona boshlig'i va shu bilan birga, hukmdorga yaqin baobro' shaxs hamdir. Binobarin, mehtarlarga xonlar tomonidan alohida hurmat va ehtirom namunalari ko'rsatilgan. Buxoro xonligida esa "mehtar hukmdorga yaqin 4 davlat mansabdorlaridan ikkinchisi bo'lib, ba'zan u oliy farmonga muvofiq, saroga otdan tushmagan holda kirishga haqli hisoblangan"<sup>33</sup>.


Quyida keltirilayotgan Fatx Chand qalamiga mansub mo'jaz miniatyurada Dehlidagi Lal Qil'a (Qizil qo'rg'on)da Shohjahon davriga oid naqqoraxona tasvirlanadi. Ushbu miniatyuraning yuqori qismida bir guruh sozandalar nog'ora, karnay, surnay va doyra sozlarini chalayotganliklari aks etganligining guvohi bo'lamiz<sup>34</sup>.

<sup>33</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. –T., 2003. – 504-b.

<sup>34</sup> Alisher Navoiy asarlari. XV–XVI asrlar kitobat san'ati durdonalarida. – T., 2020. – 159-b.



— 0002 .1 — shahzodalarining usullari. IV-5. 22. jumla. qorad tashish.



Endi nog'ora usullariga yo'g'rilgan xabarlarni jang maydonlari-da o'ziga xos Morze alifbosi (ya'ni uzun-qisqa zarbli usullar) tarzida "uzatilishi" xususida so'z yuritsak. Shundayki, o'sha davrlarda zarb usullari bevosita aruz vazni bilan bog'liq alohida ta'lomit hisoblangan. Ma'lumki, uzun (cho'ziq) va qisqa bo'g'inlar nisbatiga tayangan aruz bahrlarining zamirida o'ziga xos ritmik tuzilmalar anglashiladi. Bu bejiz emas, albatta.

Mutaxassislarning e'tirof qilishlaricha, arab olimi Xalil ibn Ahmad<sup>35</sup> (718–792) aruz nazariyasini yaratish jarayonida musiqa ilmi va unda qo'llangan atamalardan unumli foydalangan<sup>36</sup>.

Filolog olim Ummat To'ychiyevning aniqlashicha, "Poeziya o'Ichov, vaznni ham muzikadan oldi. Chunki ritm vaznsiz, o'Ichovsiz yuzaga kelmaydi... Aruzning zihof nazariyasida mavjud bo'lgan vatad, sabab, fosila terminlari ham muzikadan olingan... Asllar muzikada ham, aruzda ham sakkizta"<sup>37</sup>.

<sup>35</sup> Taxallusi – Basriy, "Al Aruz", "An-Nag'am" ("Kuylar", "Ohanglar") va boshqa ilmiy asarlarning muallifi.

<sup>36</sup> To'ychiyev Ummat. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. –T., Fan, 1985. – 47-b.

<sup>37</sup> O'sha manba. – 47-b.

Darhaqiqat, musiqada mumtoz hisoblangan usullar turkumi 8 ta bo‘lib, ular quyidagicha nomlangan: 1. Xafiful-hazaj (2/4); 2. Hazaj (6/8); 3. Xafifur-ramal (3/4); 4. Ramal (3/2); 5. Xafifu saqilus-soniy (5/4); 6. Saqilus-soniy (5/2); 7. Xafifu saqilul-avval (4/4); 8. Saqilul-avval (4/2)<sup>38</sup>.

Ittifoqo, o‘sha davrda “juda ko‘pchilik shoirlar musiqa bilimiga ega bo‘lganlar va, albatta, o‘z navbatida ana shu bilim ularni aruz qonuniyatiga rioya qilishga undagan”<sup>39</sup>. Musiqa ilmida usullarning zarb birligi sifatida qabul qilingan arabcha “naqr” (niqra – zarb, taqillatish, nog‘ora chalish) so‘zining harflari asosida uzun va qisqa cho‘zimli ritmik tuzilmalar “tan”, “tana”, “tananan” kabi ifodalanib,<sup>40</sup> aruzdagagi uzun-qisqa bo‘g‘inlarga qiyoslangan (Is’hoq Rajabov).

Masalan, musiqaga oid risolalarda sababi xafif tan” (♩), vataf “tan” (♩♩), fosila “tananan” (♩♩♩) kabi yoziladi. Ularning xilma-xil birikmalari asosida esa vaznlari turlicha bo‘lgan usullar hosil bo‘ladi. Xususan, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi musiqiy”sida yengil ramal usuli “foilun-foilun” vazniga muvofiq holda “tan-ta-nan – tan-tan” (♩♩♩♩♩♩) deb ko‘rsatiladi<sup>41</sup>. Usullarning bu kabi uzun-qisqa ritm-bo‘g‘inlarga aniq ajratilishi, o‘ylaymizki, urush maydonlarida Amir Sohibqiron buyruqlarini musiqachilar tomonidan bexato ifodalishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu holda, tabiiyki, “jangovar usullar”ni to‘g‘ri idrok etish uchun yuqorida qayd etilgan mas’uliyatlari mansabdir shaxslardan ham aruz ilmidan yaxshi xabardor bo‘lishlik talab etilgan.

Bu borada, eng avvalo, Amir Sohibqironning o‘zi aruz bobida salohiyatlari bo‘lganligini, jumladan, uning Amir Husaynga yo‘llagan quyidagi turkiy baytidan anglesh mumkin:

<sup>38</sup> Nazarov Abdumannon. Forobiya va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida (Mumtoz iyqo‘nazariyasi). – T., 1995. – 63-b.

<sup>39</sup> Qudratullayev Hasan. Musiqiy merosimiz tarixidan. – T., “Guliston” jurn., 1996. № 6. – 25-b.

<sup>40</sup> Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII в.). – Т., 1946. – С.13.

<sup>41</sup> Джами Абдурахман. Трактат о музыке (пер. с перс. А.И. Болдырева). Ред. и комментарии В.М. Беляева. – Т., АН РУз, 1960. – С. 58.

*Yorga yetkur sabo, kim makr qilmishdir mang ‘a,  
Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun ang ‘a.<sup>42</sup>*

Hazrat Navoiy qalamiga mansub quyidagi taysifdan ham bu masala yanada oydinlashadi: “Muluk shajaralarining bo‘stoni va satotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, Temur Ko‘ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqe’da o‘qubdurlarkim, aningdek bir bayt o‘qug‘oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor”<sup>43</sup>.

1399-yilning aprel oyida bir yillik Hindiston yurishidan Samarcandga qaytgan Buyuk Sohibqiron Tabrizdagi Mironshoh saroyida chog‘irxo‘rlik va aysh-ishrat ajiga minib, davlat ishlari esa tanazzulga yuz tuta boshlaganidan xabar topadi. Bu haqda “Majolis un-nafois”da shunday ma’lumotlar keltiriladi: “Samarqandda ul hazrat arzig‘a bu nav’ yetkurdilarkim, uch nadimi borkim, mufrat chog‘ir ichmakka bois alardurlar. Hukm bo‘ldikim, tavochi miqd bila chopib borib uchalasining boshin keltursun. Alardin biri Xoja Abdulqodir erdi va yana biri Mavlono Muhammad Kohiy erdi va yana biri Ustod Qutb Noyi erdi. Tavochi borib ikkisini yasoqqa yetqurdi. Ammo Xoja Abdulqodir qochib qalandar bo‘lub, o‘zin devonaliqqa solib mulkdin mulkka mutavori yurur erdi, to ulkim, ul hazrat yana Iroq yurushi qildi.

Ul mamolikda Xojaning ul holi ba’zig‘a ma’lum bo‘lub, yuqori arz qildilar. Hukm bo‘ldikim, tutub keltursunlar. Ul hazrat taxtda erdilarkim, Xojayı faqirni devonaliqqa qo‘ymay, sudrab taxt ilayiga kelturdilar. Andin burunkim, siyosat hukm bo‘lg‘ay, chun Xojaning kamolotidin biri Qur’on hifzi va qiroat ilmi erdi, filhol biyik un bila Qur’on o‘qumoq bunyod qildikim, ul hazratning g‘azabi lutfqa mubaddal bo‘lub, fazl va kamol ahli sori boqib, bu misra’ni ba vaqt o‘qudikim:

<sup>42</sup> Amir Temur o‘gitlari. – T., O‘zbekiston, 2007. – 22-b.

<sup>43</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. Majolis un-nafois. (Nashrga tayyorlovchi va so‘ngso‘z muallifi Suyima G‘aniyeva. Muarrir Porso Shamsiyev). 12-t. – T., G‘.G‘ulom nomidagi badliy adabiyot nashriyoti, 1966. – 168-b.

Abdol zi bim chang bar mushaf zad.  
(Qalandar qo'rquvdan Qur'onga chang soldi.)

Andin so'ngra Xojag'a iltifot va tarbiyatlar qilib, o'z oliv majlisida nadim va mulozim qildi. Idrok va fahm ahli bilurkim, yillar, balki qarnlarda mundoq latif so'z voqe' bo'lmas. To olam ahli bilg'aylarkim, Sulton Sohibqirong'akim, majolisda paydar-pay xub abyot va yaxshi so'zlar darmahal voqe' bo'lur dag'i mavrusiydurkim, nisbatin ul jaddi buzurgvorg'a tuzaturkim, ul birining makoni ravzai jinon va bu biri jahon mulkida jovidon bo'lsun!''<sup>44</sup>

Darvish Ali Changiy o'zining "Risolayi musiqiy" asarida<sup>45</sup> Amir Temurning teran musiqiy idrokini qayd etarkan, shu o'rinda Abdulqodir Marog'iy bilan bog'liq yuqorida keltirilgan voqeaning boshqa bir tafsilotini bayon etadi. Shunga ko'ra, o'lim jazosidan ozod etilgan, lekin shahar hududidan tashqarida yashashga mahkum etilgan Abdulqodir Marog'iy Sohibqironning Iroqqa qayta yurishi haqida xabarni eshitgach Amirga o'z sadoqatini bildirish istagida bir she'r yozadi. "Chun miravi so'yi Iroq faromusham nakun, faromusham nakun..." ("Iroq sari yo'lga chiqsang meni unutma, meni unutma...") misrasi bilan boshlanuvchi bu g'azalni Marog'iy Iroq maqomi ohanglariga bog'laydi. Ijodkor "Amali Tarona" nomini bergen bu asarini Sohibqiron qulog'iga yetkazish borasida turli hajmdagi zangula (qo'ng'iroqcha)lardan ajoyib tarzda foydalangan edi.

<sup>44</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. Majolis un-nafois. 12-jild. – T., G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 168–169-betlar.

<sup>45</sup> Mazkur risola bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olima Dilbar Rashidovaning aniqlashicha, asar "Jomiy va Kavkabiy risolalari hamda Husayn Oxun, Imom Kuliy Udiy, Zaytun G'ijjakiy kabi musiqa ustodlarining asarlarida to'plangan ma'lumotlar asosida yozilgan. Risolaning 1-nusxasi "Risolayi musiqiy" (1572), 2-nusxasi "Tuhfat us-surur" ("Armug'on shodligi", taxm. 1611) nomi bilan mashhur bo'lib, O'zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi (inv.№№ 449, 468). Risola muxtasar holda sharqshunos olim A.A.Semyonov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib nashr ettirilgan (Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII в.). – Т., 1946). D.Rashidova tomonidan rus tiliga o'girilgan qo'lyozma ("Трактат о музыке") nusxasi O'zR FA San'atshunoslik instituti kutubxonasida saqlanadi, inv.№ 879).



harakatga kelgach qo‘ng‘iroqchalardagi zarblardan “Amali Tarona” kuyi sadolana boshlaydi. Tabiiyki, musiqa mohiyatini chuqur anglovchi ulug‘ Sohibqiron qo‘ng‘iroqchalarning muayyan usulga yo‘g‘rilgan ohanglari mazmuniga ziyraklik bilan o‘z e‘tiborini qaratadi. U, masalaga oydinlik kiritish istagida, saroy musiqachilarining rahbari Xoja Abdulloh Lariyni o‘ziga chorlab undan zangulalar qanday kuy taratayotganligini so‘raydi. Shunda Xoja Abdulloh Sohibqironдан avval bechora Abdulqodirni afv etishini so‘raydi va bu iltimosi qondirilgach “Amali Tarona” she‘rini o‘qib beradi. Shundan so‘ng Amir Temur Marog‘i yining sodiqligiga to‘la ishonch hosil qilib, unga avvalgiday marhamatlar ko‘rsata boshlagan ekan<sup>46</sup>. Bu voqeа Sohibqironning musiqiy usullar ma’nosini anglay bilganligini namoyon etadi<sup>47</sup>.

Aftidan, Sohibqiron vorislari bo‘lgan Temuriy hukmdorlar va temuriyzodalar ham musiqa qatorida aruz vaznini puxta bilishlari jiddiy asosda yo‘lga qo‘ylgan, zero, ularning aksariyati – Xalil Sulton, Sulton Husayn Boyqaro, Ulug‘bek Mirzo, Boysung‘ur Mirzo, Abulqosim Bobur, Jahonshoh Mirzo, Sulton Badiuzzamon Mirzo, Kichik Mirzo, Bobur Mirzo va boshqalar aruz vaznida diqqatga sazovor ijod ham qilganlar<sup>48</sup>. Shuningdek, Temuriy hukmdorlar (Shohruх Mirzo, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Bobur va b.) musiqachilarning rahnamolari bo‘lishlari barobarida o‘zlari ham musiqadan yaxshi xabardor bo‘lganlar. Yozma manbalardan ayon bo‘lishicha, Sulton Husayn Boyqaro va Ulug‘bek Mirzolar nog‘ora zarblarini amaliy bilganlari holda yangi usullarni ham ixtiro qilganlar. Binobarin, Temuriylar usullarning sabab, vatad va fosila asoslarini yaxshi anglaganlar.

<sup>46</sup> Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII в.). – Т., 1946. – С.24.

<sup>47</sup> Darvish Ali Changiy risolasida keltirilgan bu rivoyat “unchalik sahih emas”ligi haqida fikr bildirilgan. Qarang: Shodmonov N. Xoja Abdulqodir Marog‘iy. – Т., Г‘.Г‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – 28–29-betlar.

<sup>48</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. Majolis un-nafois (Nashrga tayyorlovchi va so‘ngso‘z muallifi Suyima G‘aniyeva. Muharir Porsuo Shamsiyev). 12-jild. – Т., Г‘.Г‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 169–210-betlar; Bobur Z.M. Boburnoma. – Т., O‘qituvchi, 2008.

Shu o‘rinda Darvish Ali Changiy risolasida keltirilgan yana bir voqeа e‘tiborni o‘ziga tortadi. Bir kuni Sulton Husayn Boyqaro naqqoraxona mehtari Said Ahmadga o‘zining samimiyl ehtiromini bildirish istagida uning huzuriga Kofur ismli mulozimidан bir qudah sharob berib yuboradi. Kofur qo‘lida qadah bilan naqqoraxonaga kirib borarkan, to‘satdan qoqilib ketib yiqiladi va qadahni sindirib qo‘yadi. Buni ko‘rgan Said Ahmad o‘zini go‘yo hech narsa bo‘limgandek tutsa-da, lekin shu ondayoq nog‘orada chalayotgan usulini o‘zgartiradi. Endi u “Kofur qadahni sindirdi, qadahni Kofur sindirdi” so‘zlarini xafif usulida ijro eta boshlagan va shu tarzda Sultonga bu xabarni uzatayotgan edi. Shu payt hazrat Alisher Navoiy bilan suhbatlashib o‘tirgan sulton Husayn Boyqaro bu usulni eshitib, hazrat Navoiyga “Kofur qadahni sindirib qo‘yibdi-ku”, – deydi. Bu holat tekshirilganida sulton Husayn Boyqaroning so‘zi to‘g‘ri bo‘lib chiqadi<sup>49</sup>. Bu kabi voqealar nog‘ora usullariga yo‘g‘rilgan xabarlarni nafaqat Sohibqiron Amir Temur, balki uning o‘g‘illari, nabiralari va barcha Temriyzodalar ham yaxshi anglaganligini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, amerikalik rassom va telegraf ixtirochisi Semyuel Finli Briz Morze 1837–1838-yillari o‘zining nuqta va tirelardan iborat telegraf apparati uchun ishlab chiqqan Morze kodi yuzaga kelishidan qariyb besh yil avval ulug‘ Sohibqiron davrida uzun va qisqa ritmlarga asoslangan usullar vositasida muhim ma’lumotlarni uzoq masofaga uzatishning badiiy ijod bilan uzviylashgan ajoyib yo‘li ixtiro qilingan edi. Binobarin, o‘tmishdan bizning davrgacha mumtoz musiqiy meros namunalarida yetib kelgan turfa nomli usullar (xafif, gardun, saqil, zarb ul-fath, fopitiy va h.k.)ning semantik ma’nolarini yoritib beruvchi “ochqich” ilmiy tadqiqotlarni yaratish – bugungi musiqashunosligimiz oldida turgan muhim ilmiy vazifalardan biridir.

<sup>49</sup> Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVIII в.). – Т., 1946. – С.55.

### Savol va topshiriqlar:

1. Sohibqiron Amir Temur jang maydonlarida qaysi cholg‘ular guruhidan keng foydalangan?
2. Dastlab Amir Temur saroyi, keyinchalik esa Mironshoh, Shohrux Mirzo, Xalil Sulton kabi Temuriy hukmdorlar saroyining benazir musiqachisi va musiqashunos olimi?
3. “Maqosid ul-alhon” (“Kuylarning o‘rnii”) nomli musiqaga oid ilmiy asarning muallifi kim?
4. Sohibqiron Amir Temurning harbiy san’ati haqida so‘zlang.

### Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Asarlar. Majolis un-nafois (Nashrga tayyorlovchi va so‘ngso‘z muallifi Suyima G‘aniyeva. Muharrir Porso Shamsiyev). 12-jild. – T., 1966.
2. Bobur Z.M. Boburnoma. – T., O‘qituvchi, 2008.
3. Vosify Z. Badoye’ ul-vaqoye. – T., 1979.
4. Nazarov A. Temuriylar davrida harbiy musiqa. – T., Guliston jurnali, 1997. № 4.
5. Nazarov A. Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida (mumtoz iyqo nazariyasi). – T., 1995.
6. Nizomiddin Sh. Zafarnoma. – T., 1996.
7. Rajabov I. Maqomlar. – T., 2006.
8. Saidiy S. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg‘ular (o‘zbek va tojik musiqa an‘analari misolida). – T., 2008.
9. Toshkandiy S. Temurnoma (nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va lug‘at muallifi Poyon Ravshanov, muharrir Chori Avaz). – T., 1990.
10. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T., 1997.
11. Shodmonov N. Xoja Abdulqodir Marog‘iy. – T., 2000.

### 3-MAVZU: TEMURIYLAR DAVRI MUSIQA MADANIYATI

#### Reja:

1. Temuriylar – san’at homiysi.
2. She’riyat va musiqa.
3. Miniyaturlarda musiqa in’ikosi.

#### 1. Temuriylar – san’at homiysi

Temuriylar davri nafis san’atlari jahon tamaddunida yuqori bahanadi. Zero, ulug‘ Sohibqironga ergashgan Temuriy hukmdorlarining madaniy siyosatlari o‘laroq san’at turlari gullab-yashnadi, tarixda o‘chmas iz qoldirgan ulug‘ maqom ustozlari va olimlari yetishib chiqdi, milliy va umuminsoniy g‘oyalarni tarannum etuvchi ko‘plab asarlar ijod etildi, saroy madaniyatida O’n ikki maqom tizimi ravnaq topdi.

Alalxusus, Shohruxning o‘g‘li Ulug‘bek Muhammad Tarag‘ay (1394–1449) Samarqanddan turib Movarounnahri boshqargan yillari (1409–1449) ko‘plab olim-u fuzalo, shoir-u san’atkorlarga mehr-muruvvat ko‘rsatilgan ediki, pirovardida ilm-fan va san’at jabhalari jadal rivojlandi.

Umarshayx Mirzoning evarasi sulton Husayn Boyqaro Xuroson hukmdori bo‘lgan yillari (1469–1506) esa Hirot madaniyati ham anchagina yuksalib, adabiyot, me’morlik, tasviriy va amaliy-bezak san’atlari qatorida musiqa ilmi va amaliyotida ham ijobiy yutuqlar qo‘lga kiritilgan edi. Ayni vaqtida Husayn Boyqaroning do’sti Alisher Navoiy bilan homiyligi va rahnamoligida ko‘plab shoir va turli san’at sohiblari yetishib chiqqanligi tafsinga sazovordir.

Abu Sayidning o‘g‘li Umarshayx Mirzo (1456–1494) Farg‘ona vodiysida yuzaga kelgan Aksi davlatiga hukmdor bo‘lgan yillari (1462–1494) poytaxt Axsikent shahrida “hunarmandchilik,

me'morchilik, xattotlik va ilm-fan rivojiga katta e'tibor berdi. Shoir va san'atkorlarning faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoit va ijodiy muhitni yaratib berdi. Tabiiyki, yaratilgan sharoitlar o'laroq bu zaminda qator san'atkorlar yetishib chiqqan edi<sup>50</sup>. Umarshayx Mirzoning vafotidan so'ng bu davlatga hukmron bo'lgan uning o'g'li Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) padari buzrukrori tutgan yo'lni munosib davom ettirdi.

Xullas, Temuriy hukmdorlarning madaniy siyosatlari o'laroq ulkan san'atkorlar yetishib chiqdi, musiqaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati benihoya yuksaldi, bastakorlik va ijrochilik sohalari yanada ravnaq topdi, musiqaning samo' mohiyatini anglash va qalban tinglash shakllari keng yoyila boshladи.

Yozma manbalarda bu davrning benazir musiqachilar – ijodkor va ijrochilar qatorida ustod Qulmuhammad Udiy, Hoja Abdullo Sadr, ustod Sayyidahmad G'ijjakiy, ustod Hasan Udiy, Uustod Husayniyi Kuchak Noyi, Hofiz Basir, Shayx Noyi, Xoja Abdullo Marvari, Darvesh Shodiy, Mir Azu, G'ulom Shodiy, Pahlavon Muhammad Gushtigir, Mir Said Go'yanda, Xoja Shihobiddin, Qosimali Qonuniy, Xoja Kamoliddin Udiy, Ali Karmol Udiy, Xoja Kamoliddin Husayn, Xoja Muhammad Marvarid, Xoja Yusuf Burhon, Abu Said Muhammad Rumi va boshqa ko'plab namoyandalar zikr etiladi<sup>51</sup>.

Tarixiy-adabiy manbalarda o'z zamonasining benazir musiqachilar haqida ajoyib tashbehlı tavsiflarni uchratamiz. Jumladan, Zaynidin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye" sida yozilishicha: "Sozandalar peshvosi ustod Sayyidahmad G'ijjakiy ediki, falak Sharq quyoshining zarrin jomini uning g'ijjaki tosi uchun munosib ko'rardi; jannat hurlari g'ijjak kamonchasingin tori uchun o'z anbarin soch tolalarini

<sup>50</sup> Turg'unova N. Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati. – Namangan, 2016. – 38-b.

<sup>51</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. Majolis un-nafois (Nashrga tayyorlovchi va so'ngso'z mualifi Suyima G'aniyeva. Muhrarror Porso Shamsiyev). 12-jild. – T., G'.G'ulom nomidagi badiiy ababiyot nashriyoti, 1966. – 169–210-betlar; Badoye' ul-vaqoye. Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. – T., G'.G'ulom nomidagi Ababiyot va san'at nashriyoti, 1979; Bobur Z.M. Boburnoma. – T., O'qituvchi, 2008. Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII века). – Т., 1946. – С. 55.

keltirardi"<sup>52</sup>. Qosimali Qonuniy esa "shunday sozanda ediki, falak oyi uning qonuni torlari uchun deb xolasidan kumush kalavasini keltirar; huri iynlar o'sha qonun quloglari namunasiga bihisht bog'ining gulg'unchalarini qonunsoz huzuriga keltirardi... Olamning nodir sozandalaridan ustod Hasan Udiy bo'lib, ruhbaxsh mug'anniyalar uning qulligida edilar"<sup>53</sup>. Vosify yuksak mahoratli raqqoslarga ham munosib baho berib o'tadi: "Maqsudali raqqos shunday yigit ediki, har goh raqsga tushganda Sharq quyoshi va munavvar oy garovga ketardi"<sup>54</sup>.

"Tarixi Rashidiy"da ham musiqachilar san'ati ulug'lanishini ko'ramiz: "Hofizi Basirki hofizlikda benazir erdi. Bog'larda bayt o'qusa bulbul va qumrilar, jonivorlar atrofig'a kelib eshitur erdi. Hofiz Hasan Ali Hofiz Basirning shogirdi erdi, nihoyate xushovoz erdi. Hofiz Hoji va Xoja Abdulla Marvorid qonunda misli yo'q erdi. Qonun bularning ixtiroyidur. Bular bu toyifaning sardaftaridur"<sup>55</sup>.

Sozanda va bastakor Abdullo Noyi o'zining savtlari bilan Mavarounnahr va Xurosonda mashhur bo'lgan. Ukasi Hofiz Qonuniy bilan jo'rnavozlik ham qilgan. Bunda e'tiborlisi shundaki, Abdullo Noyi nayda, ukasi Hofiz Qonuniy esa ashula aytish bilan bir vaqtida o'ng qo'li bilan qonun chertib, chap qo'li bilan doyra ham chalgan. Aka-ukalarning bu tarzdagi jo'rnavozligi shinavandalarni hayratda qoldirgan<sup>56</sup>.

O'sha davr aksariyat musiqachilar tasavvuf ta'limotidan ham bahra olgani yoxud tariqat ahli bo'lGANI e'tiborlidir. (Bunga, jumladan, Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari tomonidan tasvirlangan miniatyuralardagi musiqachilarning belbog'i ham ramziy ishora etadi). Aslida, ko'pchilik maqom ustozlarining ahloq-u odob va iste'dod darajalari muayyan tariqat yo'l-yo'riqlari doirasida kamolot sari yuksalgan edi.


<sup>52</sup> Vosify Zaynidin. Badoye' ul-vaqoye. Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. – T., G'.G'ulom nomidagi Ababiyot va san'at nashriyoti, 1979. – 10-b.

<sup>53</sup> O'sha manba. – 10–11-betlar.

<sup>54</sup> O'sha manba. – 12-b.

<sup>55</sup> Ayoziy, Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. – T., O'zbekiston, 2011. – 291-b.

<sup>56</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – www.ziyouz.com kutubxonasi. 36-b.



**Amir Temurning Zafarnoma asariga  
ishlangan miniatyura.**

Zotan, tarixdan ma'lumki, ulug' bobomiz Amir Sohibqiron va uning vorislari bo'lgan Temuriylar davrida so'fiylik tariqatlari va ularning yo'lboshchilari hukmdor-u mardum orasida mo'tabar zotlar o'laroq e'zozlangan. Ayni vaqtida, suluk asoschilar, pir-u mashoyixlarining faoliyati ila shakllangan tasavvuf ta'limoti va unda ilgari surilgan insonparvarlik, bag'rikenglik, komillik sari ma'naviy yusalish g'oyalari aksariyat olim-u fuzalo, hunarmand-u ijodkorlarning dasturilamali bo'lgan.





<https://www.google.com/>

Hukmdorlar saroyida qariyb rasmiy mafkura nufuziga ega bo‘lgan bu ta’limot<sup>57</sup> negizida she’riyat, me’morlik, amaliy va tasviriy san’at turlari qatorida mumtoz musiqa ham yangi sifat darajasiga ko’tarilgan edi. Bu jarayonga ulkan hissa qo’shgan tarixiy shaxslar qatorida “turli-tuman fazilatlar bo‘yicha yetuk hunarmand, qori, shoir va xattot, musiqiy ilmida, ashula va torda davron sarmadi va naqsh-u san’atda tengsiz bo‘lgan”<sup>58</sup> Xoja Abdulqodir Marog‘iyning xizmatlarini alohida ta’kidlamoq kerak. Zero, benazir Xoja Abdulqodir Marog‘iy boshchiligidagi olim va musiqa ustozlarining samarali ilmiyijodiy izlanishlari pirovardida komil inson g‘oyalarini yaxlit ta’limot tarzida musiqada ifoda etish vazifasi O’n ikki maqom timsoldida muvaffaqiyatl yechimini topgan. Shu asnoda maqom san’ati ulug‘ Sohibqiron asos solgan buyuk saltanatning ustuvor ma’naviyatmaskuraviy tizimlari qatorida saroy madaniyatidan munosib o‘rin olgan edi.

Shuningdek, tasavvuf ta’limoti va namoyandalarining sharofati ila musiqa mohiyatini teran anglash, tinglov jarayonida uning yoqimli (samo’) nag‘malarida zuhur etgan go‘zallik jilvalariga ruhiy vajd holatida bog‘lanish madaniyati keng yoyila boshlagan. Buni Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” sidan o‘rin olgan quyidagi tavsiflar mazmunidan ham anglash mumkin: “Kech kirishi bilan saboq va varaqlarda mashq qilishdan forig‘ bo‘lib, sozandalar sozini chalish va navozanda mutribilar ijrosiga ergashishga harakat qildi. Jonfido navolari va dilrabo nag‘mali bilan changchi Zuhroni falakdan yer tomon indira oladigan, tarabangiz kuylar ijrosi bilan benavo oshiqlar ko‘zlaridan qo‘shaloq buloq ocha oladigan mug‘anniylar tabaqasi bilan suhabatlar qurardi... Toki musiqiy ilmida va advor fanida shunday joyga yetdilarki, nishot qo‘zg‘atuvchi zamzamasi hushovoz Nohidning qulog‘ini chang go‘shasidek bu-

<sup>57</sup> Akademik Aziz Qayumovning ta’kidlashicha, Naqshbandiylik ta’limoti “Temuriylar hukmronligi yillari davlat mafkurasini darajasiga ko’tarilgan”. – Qayumov A. Bu ohang ila bo‘lg‘asen naqshband. – T., 1993.– 23-b.

<sup>58</sup> Samarqandiy, Abdurazzoq. Matlayi sa’dayn va majmayi bahrayn. II jild. – T., O‘zbekiston, 2008. –55-b.

rab qo‘ya olardi. Turkona kuylaganda rudning quruq torlari dastidan aysh bulog‘iga suv ochilardi, chashmining bir imosi bilan ming chashmani ochib yuborardi”<sup>59</sup>.

## 2. She’riyat va musiqa

Azaldan bir-biriga payvand-u uzviylikda rivoj topgan she’riyat va musiqa Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davriga kelib yangi darajaga yuksalgan holda o‘zaro uyg‘unlashdi. Bu hol she’riyat va musiqaning egizak yanglig‘ mushtarak sifatlari, mumtoz jabhada esa, ko‘p jihatdan umumiy aruz vaznlari bilan ham izohlanadi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, nazmda qalam tebratgan aksariyat hukmdor-u shoirlar musiqadan, musiqa ahli esa she’riyatdan yaxshi xabardor bo‘lgan.

Bunga Abdulqodir Marog‘iy, Mirzo Ulug‘bek, Mavlono Sohib Balxiy, Xoja Yusuf Burhon, Hofiz Basir, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Pahlavon Muhammad, Kamoliddin Binoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va yana ko‘plab buyuk siymolar faoliyati yaqqol misol bo‘lishi mumkin.

Bu haqda, ayniqsa, hazrat Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Hiloti Pahlavon Muhammad” va “Xamsat ul-mutaxayyirin” asarlarida kelgan qisqa, lekin aniq nishonli muhim ma’lumotlar qimmatlidir. Jumladan, “Majolis un-nafois” tazkirasida shunday satrlarni o‘qiyimiz: “Mavlono Sohib Balxiy bovujudi she’r fanida mahoratlik kishi erdi, advor va musiqiy ilmida komil erdi. O‘z g‘azallarini o‘z amalalariga bog‘labdurkim, aning fazoyilig‘a dalolat qilg‘ay. Ul jumladin, “Chahorgoh” amalidirkim, mashhurdur”<sup>60</sup>.

Bu kabi oljanob fazilatlar hazrat Abdurahmon Jomiy hamda uning pir-u murshidligida Naqshbandiy suluki ila kamolot kasb etgan Mir Alisher Navoiyda ham mujassam edi: “Xoja Yusuf Burhon – Hazrati shayx ul-isloymi Ahmadi Jomiy (quddisa sirruhu)ning yaqinroq avlodidindur. Faqir va fano tariyqida sulk qilur erdi. Va tajarrud va inqito’

<sup>59</sup> Vosify Zayniddin. Badoye’ ul-vaqoye. Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – 69-b.

<sup>60</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. Majolis un-nafois (Nashrga tayyorlovchi va so‘ngso‘z muallifi Suyima G‘aniyeva. Muhrarr Porso Shamsiyev). 12-jild. – T., G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 85-b.

rasmin ko‘p masluk tutar erdi. Va jameyi ahli turuqning sohib tariyqi erdi va musiqiy ilmin ham yaxshi bilur erdi va faqir musiqiy fanida aning shogirdimen. Ko‘proq o‘z she’rig‘a musiqiy bog‘lar erdi”<sup>61</sup>.

Ulug‘ ustozlardan ta’lim-u tahsil olgan hamda ilmi advor ta’limotini mukammal o‘zlashtirgan g‘azal mulkining sultonı musiqa bobida ham samarali edi. Shu boisdan “ahli fazl va ahli hunarmandalareki Xurosonda bor erdi, hammalari Mir Alisherning say va tarbiyati birla erdilar”<sup>62</sup>. Aynan hazrati Navoiyning maslahati va malakali ko‘rsatmalari asosida bir qator shoirlar ilmi musiqiyini jiddiy o‘zlashtirgani ma’lum. Bunga shoir Kamoliddin Binoiy faoliyatini misol keltirish mumkin: “Mavlono Binoiy fazilatlari va uning ulug‘ Amir Alisher bilan zarofali musiqiy faniga ham mayl ko‘rsatdi, uni o‘rganib ko‘p asarlar yozdi, advor (maqom ilmi – O.I.) haqida risola yozdi”<sup>63</sup>.

Ayni vaqtida, san’at ahliga homiylik qilgan aksariyat Temuriy hukmdorlarning o‘zлari ham she’riyat va musiqa bobida salohiyatli kishilardan edilar. Zotan, Temuriy shahzodalar bolaligidan musiqa ustozlaridan alohida saboq olganlar, Sharq mumtoz she’riyati va uning poydevori bo‘lgan aruz ilmini o‘rganish asnosida fors tilini ham puxta o‘zlashtirganlar. Qolaversa, saroy madaniy udumiga ko‘ra, turkiy hukmdorlardan ona tili bilan birga fors tilini ham mukammal bilishlari talab etilgan. Bejiz emaski, Amir Temur va Temuriylar o‘zining yuqori madaniyat darajasi, lison boyligi, aksariyati esa aruz vazni bilan forsiy va turkiyda she’rlar bitgani ila ham jahon tamad-dunida alohida e’tiborga sazovor.

Jumladan, Mironshohning o‘g‘li Xalil Sulton (1384–1411) Samarcand taxtida saltanat qilgan paytida (1405–1409) “zurafo va shuaro majlisida jam’ bo‘lurlar erdi. Mashhurdurkim, o‘zi she’r aytur erdi”<sup>64</sup>.

<sup>61</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. Majolis un-nafois (Nashrga tayyorlovchi va so‘ngso‘z muallifi Suyima G‘aniyeva. Muhrarr Porso Shamsiyev). 12-jild. – T., G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 103-b.

<sup>62</sup> Ayoziy, Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. – T., O‘zbekiston, 2011. – 292-b.

<sup>63</sup> Vosify, Zayniddin. Badoye’ ul-vaqoye. Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. – T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – 107-b.

<sup>64</sup> Alisher Navoiy. Asarlar. Majolis un-nafois (Nashrga tayyorlovchi va so‘ngso‘z muallifi Suyima G‘aniyeva. Muhrarr Porso Shamsiyev). 12-jild. – T., G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 170-b.

Shohruxing o'g'li Ulug'bek Muhammad Tarag'ay "kamolati bag'oyat ko'p erdi. Yetti qiroat bila Qur'oni majid yodida erdi. Hay'at va riyoziyni xo'b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog'ladi va holo aning ziji oroda shoye'dur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmg'a mayl qilur"<sup>65</sup>. Shuningdek, Mirzo Ulug'bek musiqa ilmi va amaliyoti bilan ham yaqindan shug'ullangan, musiqailmiga doir risola ham yozgan<sup>66</sup>.

Musiqa ustozi Xoja Yusuf Andijoniydan mukammal tahlil olgan sulton Husayn Boyqaro esa musiqa amaliyotiga o'zi ijod etgan 17 ta usulni joriy etgan, "Husayniy" taxallusi bilan turkiyda she'rlar ham bitgan<sup>67</sup>. Shuningdek, yozma manbalarda ulug' shoir Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyat bilan birga goho musiqada ijodkorlik iste'dodini namoyon etib turgani hamda musiqailmiga doir maxsus risola yozgani haqida ma'lumotlar uchraydi<sup>68</sup>.

### 3. Miniaturalarda musiqa in'ikosi

Shuni ta'kidlash kerakki, Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyatini o'rganishda tarixiy, ilmiy, badiiy va boshqa qo'lyozmalar qatorida bizgacha bebafo meros yetib kelgan kitobiy mo'jaz tasvirlar ham qimmatli manbalardan hisoblanadi. Xususan, XIV–XVI asrlarga oid Hirot, Buxoro va Samarcand miniaturaya maktablari va killarining kitobiy mo'jaz tasvirlari asosida ansambl ijrochiligi bilan bog'liq muayyan vaziyat va joylar hamda o'sha davrlarda ijro etilgan musiqa janrlari haqida ham ma'lum tasavvur hosil qilish mumkin.

<sup>65</sup> O'sha asar. 171-b.

<sup>66</sup> محيط الظواهر Qo'lyozma. Sharqshunoslik instituti kutubxonasi. № 835. II jild. 687. 102–108-betlar; Дарвиш Али Чанги. Трактат о музыке. (рукопись). Перев. с перс. Д.Рашидовой. – Т., 1989. Биб-ка Института искусствознания АН РУз. Изв.№ 879. – С.152.

<sup>67</sup> O'sha asar. 13-, 41-betlar; Alisher Navoiy. Asarlar. Majolis un-nafois (Nashrga tayyorlovchi va so'ngso'z muallifi Suyima G'aniyeva. Muhamarrir Porso Shamsiyev). 12-jild. – Т., G.'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.–178–210-betlar.

<sup>68</sup> Bobur Z.M. Boburnoma. – Т., O'qituvchi, 2008; Дарвиш Али Чанги. Трактат о музыке. (рукопись). Перев. с перс. Д.Рашидовой. – Т., 1989. Биб-ка Института искусствознания АН РУз. Изв.№ 879. – С.152.

Jumladan, karnay, nog'ora va dovullar harbiy yurishlar, janglar, ov va o'yin jarayonlari, shuningdek, xalq sayllari, ommaviy marosim va bayram tantanalarida chalingan bo'lsa, tanbur, rubob, g'ijjak, ud, nay, chang-arfa kabi cholg'ularning nozik nolasi saroylardagi ziyofatlarda, oshiqlarning xonaqohlardagi nafis yig'inlarida, kiborlar majlislarida, do'stlar davrasida yangragan<sup>69</sup>. Xullas, shu kabi miniaturalar asosida harb musiqasini ov musiqasidan, cho'pon kuyini to'y musiqasidan, maqom sadosini zikr-u samo'dan farqlash mumkin.



O'yin payti<sup>70</sup>.

<sup>69</sup> Миниатюры к поэмам Алишера Навои// Автор-составитель Хамид Сулейман. – Т., 1970; Миниатюры к поэмам Алишера Навои // Составители Хамид Сулейман, Фазила Сулаймонова. – Т., Фан, 1982; Миниатюры к Бабурнаме. Составитель альбома и автор предисловия Хамид Сулейман. – Т., Фан, 1970.

<sup>70</sup> Alisher Navoiy asarlari. XV–XVI asrlar kitobat san'ati durdonalarida. – Т., 2020.

Binobarin, miniatyura san'ati Temuriylar davrining o'ziga xos badiiy hujjatidir. Bu san'atga alohida e'tibor berish esa Sohibqiron hukmronligi davridan boshlangan edi: "Samarqand taxtini egallab, azim Movarounnahr bizning hukmimizga kirdi, yurda adolat o'rnatmoqqa ahd etdik. Arkon-u davlat atrofinda ko'p nobakor mardumlar in qo'yemoqchi erdi. Inchunin, ularning zamzamasidan xunob bo'lib, bir tadbir buyurdim: "Musavvir kelgan arzigo'yning suratin chizib, menga kirtsin. Arzigo'yning qiyofatiga boqib, qabulimni aytarmen... Musavvirlar saroyga kelganlarning suvratin chizib, menga kiritishar, arzigo'yning peshona, burun, dahan, ko'z va boshqa sifatlariga qarab, uning maqsad va fe'lini oldindan bilib turardim. Badfe'l va xiyonatkorlarni qabulimga yo'latmaslik harakatida bo'ldim. Bunda pirim – shayx Shamsiddin Parrandadan «Ilmi qiyofa» – qiyofaga qarab baho berish va oldindan taqdirni bashorat etish ilmini mukammal egallaganligim g'oyat qo'l keldi".

Binobarin, Amir Temuring Samarqand saroyida musavvirlar faoliyat ko'rsatgan. Saroydag'i badiiy ustaxonalarning boshlig'i qilib miniatyurachi rassom Abdulhay tayinlangan. Bu musavvirni Sohibqiron Bag'doddan Samarqandga chaqirib olgan edi<sup>71</sup>.

Temuriylar davrida Kamoliddin Behzod kitob mo'jaz tasviriy san'atini yuksaltirgani, Hirot miniatyura maktabi dovrug'ini jahonga yoygan musavvir ekanligi yaxshi ma'lum. Shu bilan birga e'tirof joizki, Kamoliddin Behzod, ustozi Mirak Naqqosh, izdoshlari Qosim Ali, Do'st Muhammad, Mahmud Muzahhib, shuningdek Hirot maktabining ta'siri kuchli bo'lgan Buxoro va Samarqand maktablining miniatyura asarlari XV–XVI asrlar tasviriy va amaliy bezak san'ati, arkitekturasi va mafkurasi qatorida musiqasini ham o'rganishda muhim manbalardan hisoblanadi. Xususan, tasvirlar asosida o'sha paytda amaliyotda keng qo'llangan musiqiy cholg'ular, ularning turli sharoitlarda hozir bo'lish shakllari, qolaversa muayyan janrlari haqidagi ham ozmi-ko'pmi ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

<sup>71</sup> Bizgacha rassomning juda oz asarlari yetib kelgan bo'lib, shulardan "O'rdak" va "Jang manzarasi" nomli miniatyuralari Istanbuldag'i To'pqopu saroyida saqlanadi. – Т., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000–2005. 1-jild.




<https://www.google.com/>

Chunonchi, miniatyuralarda damli (puflab chalinadigan) cholg'ulardan nay, karnay va ularning turli xillari, zarblilardan doyra (daf), nog'ora va dovullarning tasvirlarini ko'rish mumkin<sup>72</sup>. Shu

<sup>72</sup> Миниатюры к поэмам Алишера Навои// Автор-составитель Хамид Сулейман. – Т., 1970; Миниатюры к поэмам Алишера Навои// Составители Хамид Сулейман, Фазила Сулеймонова. – Т., Фан, 1982; Миниатюры к Бабурнаме. Составитель альбома и автор предисловия Хамид Сулейман. – Т., Фан, 1970.

bilan birga miniatyurlarda tanbur, ud va shu singari bizga hozirda tanish cholg'ularga ma'lum o'xshash, lekin bir qadar o'zgacha shakllar ham uchraydi. Ehtimol, bular asrlar qa'rida qolib ketgan, nomlari esa bizgacha yozma manbalar (musiqa risolalari, she'rilar, dostonlar, tarixiy solnomalar) orqali yetib kelgan barbat, shammoma, rud, ru-hafzo, arg'anun (jami o'ttizdan ortiq) cholg'ularining tasvirlaridir.

Miniatyuralar asosida musiqa ijrosi bilan bog'liq muayyan vaziyat va joylar haqida tushuncha hosil qilish mumkin. Masalan, karnay, nog'ora va dovullar harbiy yurishlar, janglar, ov jarayonlari va bayram tantanalarida chalingan.



Tanbur, rubob, g'ijjak, ud, nay, chang-arfa kabi cholg'ularning nozik nolasi saroylardagi ziyofatlarda, oshiqlarning xonaqohlardagi nafis yig'inlarida, kiborlar majlislarida, do'stlar davrasida yangragan. Miniatyura tasvirlari o'sha davrlarda ijro etilgan musiqa janrlari haqida ham ma'lum tasavvur beradi. Ular asosida, jumladan, harb musiqasini ov musiqasidan, cho'pon kuyini to'y musiqasi yoki so'fiylarning zikr-u samo'sidan farqlash mumkin. Bularning barchasi miniatyura ijodkorlari har bir cholg'uning o'ziga xos tarovati va namoyon bo'lism, sozlarning o'zaro uyg'un va hamohang ansambl tashkil etish tartibi, qolaversa, umuman, musiqa san'ati xususiyatlaridan yaxshi xabardor ekanliklaridan darak beradi.

### Savol va topshiriqlar:

1. San'at ahliga homiylik qilgan Temuriy hukmdorlar?
2. Temuriy hukmdorlardan kimlar she'riyat va musiqada faoliyat ko'rsatgan?
3. Sulton Husayn Boyqaroning musiqa ustozini kim bo'lgan?
4. Mo'jaz tasviriy (miniatyura) san'atini yuksaltirgan, Hirot miniatyura maktabi dovrug'ini jahonga yoygan musavvir?
5. Kitoblarga ishlangan mo'jaz tasvir (miniatyura)lar asosida musiqaga oid nimalar haqida ma'lum tasavvur hosil qilish mumkin?
6. "Boburnomada" nomlari zikr etilgan musiqachilar?
7. Temuriylar davri musiqa madaniyatini tavsif eting.

### Adabiyotlar

1. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. – T., 2018.
2. Rajabov I. Maqomlar. – T., 2006.
3. Ибрагимов О.А. Маком и космос. – Т., 2010.
4. Ибрагимов О.А. Фергано-Ташкентские макомы. – Т., 2006.
5. Zayniddin Vosify. Badoye' ul-vaqoye. – T., 1979.
6. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T., 1996.
7. Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san'atlari. – T., 2007.
8. Musiqa ijodiyoti masalalari. Maqolalar to'plami. 2-kitob. – T., 2002.

## 4-MAVZU: AYOLLAR IJODI

Reja:

1. Saroy mug‘anniyalari.

2. Manbalarda ayol san’atkorlar vasfi.

### 1. Saroy mug‘anniyalari

Ayol zotini e’zozlagan Sohibqiron Amir Temur saroyida xotin-qizlar nafis san’atlar bilan mashg‘ul bo‘lishlari va ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur muhit va sharoitlar yaratilgan edi. Manbalarda keltirilishicha, musiqachilarining ijrosini maroq bilan tinglagan ulug‘ Sohibqiron saroyda erkak san’atkorlar bilan bir qatorda raqqosa, sozanda va xonanda ayollar ham o‘z iste’dodlarini ko‘rsatishlariga izn bergan. Bu hol nafaqat hashamatli saroylarning keng ichki sahnları va ayvonlarida, Sohibqiron, malika va shahzodalarning bog‘larida, Saroymulki xonim, Xonzodabegim va shahzodalarning saropardalarida, Temuriylar xonodonida o‘tkazilgan to‘y va bayramlarda, balki o‘sha davrlarda ommaviy tus olgan xalq sayllari va marosimlarda ham kuzatiladi<sup>73</sup>.

Sohibqiron Amir Temurning ayol san’atkorlarga bo‘lgan bunday e’tiborini uning farzandlari va nabiralari ham qadrlaganlar. Tarixdan ayonki, she’riyat va musiqa bilan jiddiy shug‘ullangan Temuriyzodalar o‘z hukmronlik davrlarida ulug‘ bobolari Temurning izidan borib, adabiyot va san’at sohalari rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib bergan edilar. Jumladan, “tarixchi Xondamirning ma’lumotiga qaraganda, Mirzo Ulug‘bek ilm olish va san’at sohalarida ayollarning erkaklar bilan tengligini e’lon qilgan hamda xotin-qizlar orasidan yetishib chiqqan sozanda, xonanda va o‘yinchilarining erkaklar bilan

yonma-yon o‘tirib, birga ashula aytishlariga va o‘yin-kulgi qilishlari yo‘l bergan”<sup>74</sup>.

Saroyda o‘tkazilgan bazmlarda, shuningdek, turli bayram va to‘ylarda Xonzoda Bulbul, Siyahcha, Mohchuchuk va Sharofatxon ismli ayol san’atkorlar ham qatnashib kelganliklari haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu iste’dod sohibalari yallachilar kabi doyra cherish, kuylash va raqsga tushish san’atlaridan voqif bo‘lganlar.

Tarixchi Zayniddin Vosify yozadi: “Bir kechasi bir guruh do’stlar bu faqirning uyiga to‘planishdi. Mirzabayram qonunini sozladи: Xonzoda Bulbul doira chaldi. Siyahcha xonandalik qildi. Mullo Fazliy va Mullo Ahliy, Mavlono Amoniy, Mavlono Muqimiy badiha aytishdi. Tohir chakka va Mohchuchuk raqsga tushdilar”.

Bu davr ayollari ba’zan erkakcha kiyimlarda ham o‘z iste’dodlarini ko‘rsatganlar. Jumladan, Mirzo Ulug‘bek qatnashgan bir ziyofatda “Sharofatxon ismli musiqachi ayol yigitlarday libosda kelib, o‘z san’ati bilan bazmni munavvar qilgan”i haqida yoziladi. Ayollarning bunday qiyofalarda “chiqishlari” keyinchalik yallachilik san’atidan ham o‘rin olgan edi.

San’atkorlarni e’zozlagan sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrlarida ham ko‘plab iste’dodli ayollar erkaklar davrasida bo‘lib turadigan majlis va ziyofatlarda o‘z san’atlari bilan qatnashib turganlar: “Jahonro chorborg‘ida xushmanzara qasrda ziyofat muqarrar qilindi. Mirzo majlisda bo‘ladiganlarning nomini yozib berdilari: Amir Alisher, Pahlavon Muhammad, Xojagi Abdulla Marvorid, Xoja Kamoliddin Husayn Nizomulmulk, Amir Sayid Badr, Mirqosim Turkigo‘y, Amir Joniy mavla, Amir Nizom muqallid, husn ahlidan Qosim Mir Husayniy, Mirzo Taryokiy, Tohir Chakka, Sarvi Labijo‘y, Mohi Simnomiy, Mirak Za’faroniy, Ruhullo pari, Shomuhammad xonanda”<sup>75</sup>.

Bu davrga kelib ayniqla raqs san’ati rivoj topdi. “Ko‘pgina shaharlarda raqs maktablari ish ko‘rgan. Saroylarda ham kanizaklarga

<sup>73</sup> Amir Temur jahon tarixida. – T., 1996. – 189–194-betlar; Turg‘unova N. Farg‘ona vodiysi yallachilik san’ati an’analari. – Namangan, 2016.

<sup>74</sup> Amir Temur jahon tarixida. – T., 1996. – 194-b.

<sup>75</sup> Z. Vosify. Badoye’ ul-vaqoye. – T., 1974. – 121-b.

musiqa va raqsdan saboq berilgan. 8–9 yoshli o‘g‘il va qiz bolalar raqs ustalari qo‘lida bir necha yil tahsil ko‘rib, so‘ng davraga kirkganlar”, – deya ta’kidlaydi teatrshunos olim Muhsin Qodirov<sup>76</sup>. “Alisher Navoiy kampirlarning (ajuzlar) charh ohangida, kanizaklarning pax-



<sup>76</sup> Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san’atlari. – T., 2007. – 133-b.

ta savalash usulida ijro etiladigan qo‘shiqli raqlari to‘g‘risida ham ma’lumot beradi. ... Shahar va qishloqlarda, bayram va to‘ylarda hamma o‘ynagan. Hatto ko‘chmanchi chorvadorlar ham qarsak chalib o‘ynashgan. Eng yaxshi ijrochilar orasidan malakali raqqos va raqqosalar yetishib chiqqan”<sup>77</sup>.

XV asrning ikkinchi yarmiga kelib Andijon hududida qad ko‘targan Aksi davlatining hukmdori temuriyzoda Umarshayx Mirzo (Boburning otasi) ham Sohibqiron Amir Temur olib borgan siyosatga binoan poytaxtda hunarmandchilik, me’morchilik, xattotlik va ilm-fan rivojiga katta e’tibor berdi. Shoir va san’atkorlarning faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur shart-sharoit va ijodiy muhitni yaratib berdi. Tabiiyki, yaratilgan sharoitlar o‘laroq bu zaminda qator san’atkorlar yetishib chiqqan edi.

Umarshayx Mirzo hukmronlik qilgan paytlarda uning rafiqalari, kanizaklari va saroyda faoliyat ko‘rsatgan ayollarga o‘z davralarida o‘yin-kulgi qilishlariga ijozat berilgan. Uning o‘g‘li Zahiriddin Muhammad Bobur ham ulug‘ bobosi Amir Temur hamda otasi singari adabiyot va turli san’atlar bilan birga musiqa san’atiga e’tiborli bo‘lganligi yozma manbalardan ma’lum. U o‘z saroyi va uning atrofiga ko‘plab san’atkorlarni to‘plagan bo‘lib, ayollarning erkak san’atkorlar bilan birgalikda ijod etishlari masalasida ulug‘ Sohibqironga munosib izdoshlik qilgan<sup>78</sup>. Keyinchalik bu an’anani u Hindistonda ham davom ettirgan edi<sup>79</sup>.

## 2. Manbalarda ayol san’atkorlar vasfi

Turli manbalardan ayonki, “arablarning yurishlariga qadar ham, undan keyin ham oliy va mahalliy hukmdorlar saroylarida kuy va qo‘shiq ijodkorlari nazariy va amaliy musiqa bilan shug‘ullanganlar”<sup>80</sup>. Bular orasida ayollar ham bo‘lib, ular qadimdan saroylarda musiqachi bo‘lib xizmat qilganlar. Sharq olamida islam dini keng yoyila boshlagan davrlarda ham xalifa va xonlarning saroylarida she’riyat qatorida musiqa va raqs san’atlari doim e’tiborda bo‘lgan. Qolaversa,

<sup>77</sup> Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san’atlari. – T., 2007. – 133–136-b.

<sup>78</sup> Gulbadanbegim Zahiriddin Bobur qizi. Humoyunnoma. – T., 1998. – 51-b.

<sup>79</sup> O’sha asos. – 10-, 31-, 50-, 54-, 57-b.

<sup>80</sup> Mo‘jiziy Ismatulloh ibn Ne‘matulloh. Tavorixi musiqiyun. – T., 2010. – 3-b.

“nafaqat shoh va amirlar, balki ularning amaldorlari – vazir, bek va boshqa zodagonlar xonadonlari va ular uyushtiradigan bazmlarni gul-latgan ham hofiz va sozandalar bo‘lishgan”<sup>81</sup>.

Bunday bazm va boshqa madaniy tadbirlarda ayol musiqachilar ham ishtirok etganligi shubha tug‘dirmaydi. Zero, o‘tmishga oid ayrim tarixiy manba va mo‘jaz miniatyuralar Somoniylar, Qoraxoniylar va Temuriylar saroyida ko‘plab musiqachi ayollar faoliyat ko‘rsat-ganligidan guvohlik beradi<sup>82</sup>.

Mug‘anniyalarning maftunkorona ijrolari o‘sha davr ijodkorlari turli asarlar yaratishga ilhomlantirganki, pirovardida betakror miniatyura va mumtoz adabiyot namunalari yuzaga kelgan edi. Jum-ladan, shu tariqa yaratilgan ko‘plab kitobiyo mo‘jaz miniatyuralardan ma‘lum bo‘lishicha, chang va doyra cholg‘ulari ayollarning sevimli sozları bo‘lgan. Bunda chang cholg‘usi hozirda ma‘lum shu nomli sozdan farqli o‘laroq kichik arfa ko‘rinishida bo‘lib, tavozeda turgan iboli ayol timsoli ham bo‘lgan<sup>83</sup>.

Amir Temur davriga oid ishlangan mo‘jaz miniatyuralarda bu kabi manzaralar aniq ifoda tusini olgan. Chunonchi, ulug‘ Sohibqiron huzuridagi qabul marosimiga bag‘ishlangan miniatyuralardan birining old qismida musiqachilar ansambli tasvirlangan bo‘lib, unda san’atkor ayollar arfa va doyra cholg‘ularida ijro etayotganligining guvohi bo‘lamiz.

Temuriylar davrida ishlangan ko‘plab miniatyuralarda ham maz-muni shunga o‘xshash iboli mug‘anniyalar san‘ati ulug‘langan. Ayni vaqtida, ayollar san‘atidan bevosita bahramand bo‘lgan shoir va muar-rixlар ularni o‘z asarlarida olqishlaganlar. Bunda ularning iste’dod darajalari ko‘pincha samoviy sozanda (changchi) Zuhra san‘atiga qiyosiy baholangan bazmidagi Zuhro o‘z sozini yerga urardi, osmondan yerga tushib o‘z sochi torlaridan uning changi uchun tutardi”<sup>84</sup>.

<sup>81</sup> Mo‘jiziy Ismatulloh ibn Ne‘matulloh. Tavorixi musiqiyun. – T., 2010. – 3-b.

<sup>82</sup> Vosify Z.M. Badoye’ ul-vaqoye. (Forsiyidan Naim Norqulov tarjimasi). – T., 1979; Визго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии (исторические очерки). – М.: Музыка. 1980; Shomiy N. Zafarnoma. – T., 1996.

<sup>83</sup> Polyakova Y., Rahimova Z. Sharq miniatyurasi va adabiyoti. – T., 1987. – 1-, 12-, 13-, 37-, 43-b.

<sup>84</sup> Vosify Z.M. Badoye’ ul-vaqoye (Forsiyidan Naim Norqulov tarjimasi). – T., 1979. – 11-b.



Mohon tilsim bog‘ida.



Ashulachi va sozanda Chaqar xonimga berilgan baho ham bundan kam emas: "U qo'liga chang olib kuylagan vaqtida Zuhro yulduzi xijolatdan o'z sozini yerga tashlar va osmondan yerga tushib, o'z o'rigan sochini kesib, uning changiga tor bo'lsin uchun xushhol bo'lib quyidagi shogirdlik so'zini boshlar edi: "Chang chaluvchi go'zalim, qachonkim, chang sozini chalib kuylasa jonimning ipi bir-biridan uzilib-uzilib uning changiga o'zini tor yasaydi..."<sup>85</sup>

O'sha davrlarda musiqachilarning kamolotga yetgan san'atiga shu tarzda mubolag'ali tavsiflar berilishi o'tmishda e'zozlangan sanam-sozandalar negizida yuzaga kelgan bo'lsa kerak. Chunki qadimiy davrlardan kelayotgan qarashlarga ko'ra, osmon sozandasini Zuhra – san'at homisi va nafosat ramzi hisoblangan<sup>86</sup>.

Alisher Navoiyning "Sab'ayi sayyor" dostonida esa Zuhra – chang chalish va ashula aytish san'atlari ulug'langan Dilorom siymosining timsoli sifatida talqin etilgan edi<sup>87</sup>. Bu o'rinda mumtoz adabiyot daholari – Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiylar "Xamsa" qahramonlaridan bo'lgan Fitna va Dilorom ismli benazir ayol musiqachilarning badiiy siymolarini yaratishda o'z zamonalaring xushovoz hofiza va tengsiz sozandalari san'atlaridan ilhomlangan bo'lsalar ajab emas.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Mir Alisher Navoiyning qaysi dostonida musiqachi ayol siyomisi bosh qahramon sifatida gavdalanadi?
2. O'rta asrlarda qaysi cholg'u "sozlar kelinchagi" nomini olgan?
3. Sharq qadimiy tamaddunida osmon sozandasini va san'at homisi hisoblangan sayyora (planeta)ning nomini aytинг.
4. Alisher Navoiyning "Sab'ayi sayyor" dostonidagi Dilorom san'atiga tavsif bering.

<sup>85</sup> Vosify Z.M. Badoye' ul-vaqoye (Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi). – T., 1979. – 9-b.

<sup>86</sup> Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. Sab'ayi sayyor. 10-jild. – T., 1992. – 462-b.

<sup>87</sup> Ибрагимов О. Маком и космос. // Суфийские традиции в искусстве Мавераннахра XV–XVII вв. – Т., 2010. – 144–145-betlar.

5. Yozma manbalarda nomlari zikr etilgan Temuriylar davri mug‘anniyalari haqida gapiring.

### Adabiyotlar

1. Amir Temur jahon tarixida. – T., 1996.
2. Ибрагимов О.А. Маком и космос. – Т., 2010.
3. Zayniddin Vosify. Badoye’ ul-vaqoye. – Т., 1979.
4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Т., 1996.
5. Qodirov M. Temuriylar davri tomosha san’atlari. – Т., 2007.
6. Gulbadanbegim. Humoyunnomma. – Т., 1998.
7. Turg‘unova N. Farg‘ona vodiysi yallachilik san’ati. – Naman-gan, 2016.

### 5-MAVZU: MUSIQA ILMI

#### Reja:

1. Advor ilmiga doir
2. Musiqa allomaları:
  - a) Abdulqodir Marog‘iy
  - b) Abdurahmon Jomiy
  - c) Zaynulobiddin Husayniy

Hukmdorlar saroyida qariyb rasmiy mafkura nufuziga ega bo‘lgan bu ta’limot<sup>88</sup> negizida she’riyat, me’morlik, amaliy va tasviriy san’at turlari qatorida mumtoz musiqa ham yangi sifat darajasiga ko’tarilgan edi. Bu jarayonga ulkan hissa qo’shgan tarixiy shaxslar qatorida “turli-tuman fazilatlar bo‘yicha yetuk hunarmand, qori, shoir va xattot, musiqiy ilmida, ashula va torda davron saromadi va naqsh-u san’atda tengsiz bo‘lgan”<sup>89</sup> Xoja Abdulqodir Marog‘iyning xizmatlarini alohida ta’kidlamoq kerak. Zero, benazir Xoja Abdulqodir Marog‘iy boshchiligidagi olim va musiqa ustozlarining samarali ilmiy-ijodiy izlanishlari pirovardida komil inson g‘oyalarini yaxlit ta’limot tarzida musiqada ifoda etish vazifasi O’n ikki maqom timsoldida muvaffaqiyatli yechimini topgan. Shu asnoda maqom san’ati ulug‘ Sohibqiron asos solgan buyuk saltanatning ustuvor ma’naviy mafkuraviy tizimlari qatorida saroy madaniyatidan munosib o‘rin olgan edi.

O’rta asr musulmon Sharqida XIII asrdan boshlab musiqa ilmida ilgari surilgan hamda amaliyotga joriy etilgan O’n ikki maqom tizimi XVIII asrga qadar mumtoz musiqada ustuvor ahamiyat kasb etib kelди. Dastlab Safiyuddin Urmaviy Bag‘dodiy (tax. 1230–1294-y.) va

<sup>88</sup> Akademik Aziz Qayumovning ta’kidlashicha, Naqshbandiylik ta’limoti “Temuriylar hukmonligi yillari davlat mafkurasini darajasiga ko’tarilgan”. – Qayumov A. Bu ohang ila bo‘lgasen Naqshband. – Т., 1993. – 23-b.

<sup>89</sup> Samarqandiy, Abdurazzoq. Matlayi sa’dayn va majmayi bahrayn. II jild. – Т., O‘zbekiston, 2008. – 55-b.

Qutbiddin Sheroziylarning (1237–1310) musiqaga doir ilmiy asarlarida ishlab chiqilgan bu tizim keyingi (XIV–XVII) asrlarda Xoja Abdulkodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy, Najmuddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy va boshqalar tomonidan ilmiy-ijodiy davom ettirilgan. Ushbu ilmiy an'anaga ko‘ra, tizimning tarkibi muayyan sifat darajali parda-tovush uyushmalari – 12 jam’ (doira, maqom), 6 ovoza, 24 sho‘ba, 3 rang va 24 murakkabot kabi guruhlarni o‘z ichiga olgan. Bunda tizimning eng muhim qismini 12 maqom guruhi tashkil etgan. Bularni yuzaga keltirish uchun esa O‘n ikki maqom tizimining ilk tasnifotchilaridan Safiyuddin Urmaviy Bag‘dodiy turli tovush uyushmalari – jinslarni nazariy jihatdan ikki guruhgaga (quyi va yuqori tabaqalarga) ajratgan edi.

Shunga ko‘ra, quyi tabaqada 7 ta to‘rt pog‘onali, yuqori tabaqada esa 12 ta besh pog‘onali tovushqatorlar bo‘lib, ularning birma-bir o‘zaro birikuvi ( $7 \times 12$ ) natijasida 84 jam’ hosil etilgan. Shulardan 12 tasi tarkibidagi zul-kull (oktava), zul-xams (sof kvinta) va zul-arba’ (sof kvarta) kabi muloyim (ohangdosh) bo‘d (interval)larning yetarli miqdoriga qarab oliy nav‘li (mukammal) tovushqatorlar sifatida ajratib olingan va amaliy qo‘llash uchun joiz ko‘rilgan.

Hajmi oktava miqyosini qamragan mazkur 12 ta mukammal jam’ serjihat (zohiriyy-botiniy) ma’nolar bilan yo‘g‘rilgan umumiy va xususiy nomlar bilan yuritilgan. Ularning “doira”, “halqa”, “jam” kabi umumiy nomlari asosan nazariy mubohasa jarayonida qo‘llangan. Bunda jam’larning oktava nisbatida kelgan I va VIII bosqich tovushlari mutlaq uyg‘un (yoki nazir) bo‘lgani bois ularning (I va VIII bosqichlarning) bir nuqtadagi kesishuviga erishilgan hamda bunday jam’larni doira (halqa) shaklida tasvirlash an’anasi yuzaga kelgan edi. Binobarin, doira deb zul-kull miqyosidagi tovushlar majmui (jamligi) tushunilgan.

Muntazam davriy takrorlanuvchi ritmik formula – usullar ham shu kabi doira usulida tasvirlanib, ilmiy izohlangan. Shu asnoda O‘n ikki maqomning doiralar ila yuzaga kelgan ta’limoti advor ilmi (ilmi advor) deb yuritilgan. Ayni vaqtida, doira chizmasi falsafiy ma’no ham kasb etib, jumladan, cheksiz samo va unda aylana shaklida mavjud jismlar harakatiga ham ishora etgan. Doiralarning o‘zaro bog‘liqlikda

kelishi esa inson ruhining samo’ jarayonida (vertikal) yuksalib borishini ramz etgan.

Inchunin, musiqiy risolalarda 12 maqom pardalari turli (katta-kichik) hajmdagi doiralar shaklida ustma-ust (konsentrik tarzda) aks ettirilgan bo‘lib, bunda birinchi (ilk) doiradan boshlab keyingi doiralarga izchil (navbatma-navbat) o‘tilganida ularning boshlang‘ich (tayanch) pardalari muntazam ravishda bir bosqichga yuksalib boshi qayd etiladi. Buning natijasida yuzaga kelgan somon yo‘li yanglig‘ o‘ngdan chapga tomon aylana tarzida yuksalib boruvchi harakat, pirovardida, markazda joylashgan so‘nggi doira bilan nihoya topgan.

Doiralarning bu kabi harakatlanishi barcha olamlarning, shu jumladan, mikro va makrokosmoslarning ham o‘zaro bog‘liqligi va birligi g‘oyasiga ishora etgan. Aslida, ilm va san’at ahli ijodida bunday ilmiy kashfiyotlarning yuzaga kelishiga sevimli payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning osmon cho‘qqisiga yuksalgan mo‘jizaviy me’roj voqeasi yuksak namuna va muhim “turtki” bo‘lgan edi.

Binobarin, shu doiralar asosida ijod etilgan maqom musiqiy asarlarida inson ruhining koinot cho‘qqisiga intilgan safar yo‘li tovushlarning ma’lum tartibda sadolanishi negizida hissiy ifodalanib, intihosida tinglovchining vajd (jazaba, zavqu shavq) holatiga qadar yuksalishi bosh maqsad etilgan. Bu oliy maqsadga jonli tinglov o‘laroq erishuv jarayonida ijroda qo‘llanayotgan cholg‘ular ham ahamiyatli bo‘lgan.

Qadimdan kelayotgan an'anaga ko‘ra, shakliy qiyofasida doiraviylikka ishora bo‘lgan cholg‘ular inson ruhini koinotga bog‘lovchi sozlar sifatida e‘zozlangan. Bu o‘rinda, masalan, qadimgi yunonlarda – lira, Sharq tamaddunida esa chang-arfa alohida ahamiyatli hisoblangan. Shu boisdan O‘n ikki maqomdan avvalgi musiqa amaliyatida qo‘llangan Yetti maqom turkumini sadolantirishda chang-arfa cholg‘usi usul jo‘rnavozi doyra bilan yetakchilik qilgan edi. Tavsif etilayotgan O‘n ikki maqomning ilmiy nazariyasi qatori ijrochiligidagi esa bu o‘rinda noksimon kosaxonsi qopqog‘ida doiraviy tuynuklari mavjud ud torli-chertma cholg‘usi doyra jo‘rnavozi bilan bosh o‘rinni egallaydi.

Xullas, zikr etilayotgan 12 doira (jam’) mumtoz musiqada serma’no hikmatlar bilan yo‘g‘rilgan edi. Ayni vaqtida, ularning O‘n ikki maqom tizimini “jonli”-amaliy harakatga keltirishdagi o‘rni ham ser-

qirra va sermazmun bo‘lgan. Shu jumladan, jam’-tovushqatorlarining parda-bosqichlari tizimdagи tovush tuzilmalari nomukammal bo‘lgan (sho‘ba va b.) namunalarni mukammal (komil) darajaga keltirishda muhim vazifani bajargan. Aniqrog‘i, nomukammal (noqis) tuzilmalari jam’-tovushqatorning parda-bosqichlariga tayangan holda zaruriy (komil) sifat darajasiga qadar musiqiy rivojlantirilgan.

Aslida, 12 jam’ga nisbatan tasavvuf istilohidagi “maqom” atamasining ilk bor ishlatilishi ham dastlab ularning ana shu vazifada amaliy qo‘llanishi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan bo‘lsa kerak. Zero, jam’larning qayd etilgan bu vazifasi, nazarimizda, tasavvuf tariqatlaridagi ma’naviy kamolot bosqichlarini anglatuvchi “maqom” iborasi mazmun-mohiyatini musiqada xususiy in’ikos etgan.

Shu kabi masalalar esa, eng avvalo, ilmiy-nazariy mubohasa qilingan va bunda risola mualliflari ud cholg‘usining keng qamrovli tovushlar tizimiga asoslanganlar. Zero, chang-arfaning Yetti maqomga mos tortilgan simlari bunday ishlalmalar imkonini bermagan. Bu borada afzal ko‘rilgan ud cholg‘usining pardalari negizida nomukammal tovush tuzilmalarini jam’larga mutanosib bog‘lash yo‘llari ilmiy-vizual ishlab chiqilgan. Safiyuddin Urmaviy tomonidan XIII asrda ixtiro etilgan o‘ziga xos nota yozuv tizimi (“tabulatura”) ham aynan udning beshta tori va pardalari in’ikosiga asoslangan edi. Shu kabi yozuv va nazariy ishlalmalar musiqa amaliyoti (bastakorlik va ijrochilik san’ati)da sho‘ba va boshqa nomukammal tuzilmalarni maqsadli rivojlantirish uchun muhim zamin yaratgan.

Shu tariqa ijod etilgan musiqa asarlarini mukammal sadolantirish borasida ham ijroviy imkoniyatlari chang-arfaga nisbatan kengroq bo‘lgan ud cholg‘usi yetakchilik qilgan. Shu boisdan bu cholg‘u “sozlar sulton”, Yetti maqom ramziga aylangan samoviy sozandaning chang-arfasи esa “sozlar kelinchagi” (Darvish Ali Changiy) ta’rifini olgan bo‘lsa ajab emas. O’n ikki maqom tizimi bizning diyorimizda dastlab Sohibqiron Amir Temur va Temuriylarning Samarcand va Hirot shaharlari saroy madaniyatiga joriy etilgan. Bu o‘rinda ayniqsa maqomdon ustoz allomalardan Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy va Zaynulobiddin Husayniylarning xizmatlari alohida e’tibor-ga sazovor.

## 2. Musiqa allomalari

**Abdulqodir Marog‘iy** (1353–1435) Amir Temur davrida Samarcandda ko‘p ulamo va san’atkorlar yetishib chiqdi. Shular orasida Abdulqodir Marog‘iy (to‘liq ismi – Xoja Abdulqodir ibn G‘oibiy Hofiz Marog‘iy) ham kamol topdi. Sohibqironning tarbiyati, ma’naviy va moliyaviy rag‘batlantirishlari tufayli mashhur hofiz, sozanda, bastakor va atoqli musiqashunos olim darajasiga ko‘tarilgan edi. Abdulqodir Marog‘iy musiqashunoslikka oid nazariy asarlarini Amir Temur saro-yida va panohida yoza boshlagan. Abdulqodir Marog‘iy musiqashunoslikka oid risolalarini u davrda Movarounnahrda adabiyot va ilm tili bo‘lgan forsiyda yozgan, lekin ular turkiyda she’rlar bilan tugallangan. Olimning musiqashunoslikka oid quyidagi asarlari ma’lum:<sup>90</sup>

- “Musiqa maqsadlari”;
- “Musiqa xazinalari”;
- “Musiqa to‘plami”;
- “Musiqa kitobi”;
- “O‘nta foyda”;

“Davrlar risolasining sharhida asos davrlar” yoki “Davrlar sharhi kitobi”; “Ruhparvar” Safiyuddin Urmaviyning “Davrlar kitobi” asarining turkiy tarjimasi.

Marog‘iyning bizgacha yetib kelgan ilmiy asarlaridan ayrimlari Tehronda nashr etilgan. Shulardan biri “Musiqa maqsadlari” (Maqasid ul-alhon) asari muqaddima, 12 bob va xotimadan iborat.

Marog‘iyning ilmiy asarlarini o‘rganish borasida ozarbajjonlik Surayyo Agayevaning “Abdulqodir Marog‘iy va uning musiqiy-nazariy merosi” hamda o‘zbekistonlik olim Nafas Shodmonning “Xoja Abdulqodir Marog‘iy” nomli yirik tadqiqotlari e’tiborli bo‘ldi. Ayni vaqtida shu kabi ilmiy izlanishlarni yanada davom ettirish ham ayonki, zero, hozirgi davr ijtimoiy talab-ehtiyojlari shuni taqozo etmoqda.

Abdulqodir Marog‘iyning O’n ikki maqom tizimiga doir advor ilmi uning izdoshlari – Abdurahmon Jomiy va Zaynulobiddin Husayniy tomonidan munosib davom ettirilgan edi.

<sup>90</sup> Ibrohimov O., Oripov Z. X–XVII asrlar o‘zbek mumtoz musiqasi (qo‘lyozma). – T., O‘zR FA San’atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv. №8014, 47–50-b.

**Abdurahmon Jomiyning** (1414–1492) “Risolayi musiqiy” (“Musiqqa risolasi”) Mir Alisher Navoiy taklifi bilan forsiyda yozilgan. Bu risolaning O’zR FA Abu Rayon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida saqlanayotgan nusxasi prof. A.N.Boldiryov tomonidan rus tiliga o’girilib, prof. V.M.Belyayev tahriri va sharhlari bilan bosilib chiqqan (А.Джами. Трактат о музике. – Т., 1960).

1997-yili mazkur risola o’zbek tilida nashr yuzini ko’rdi (Abdurahmon Jomiy. Risolayi musiqiy. Fors tilidan Nafas Shodmon tarjimas, O’zR FA akademigi Alibek Rustamiy tahriri ostida. – Т., 1997). 2019-yili Jomiyning “Risolayi musiqiy”si taniqli maqomshunos olim, prof. A. Nizomiyning sa’y-harakati bilan Tojikistonda chop etildi (Nizomiy Asliddin. Abdurrahmoni Jomiy va ilmi musiqiy. – Dushanbe, 2019). Ushbu nashrda Jomiyning musiqqa ta’limoti atroficha sharhlangan, Toshkent (O’zR FASHI)da saqlanayotgan “Risolayi musiqiy” noyob qo’lyozmasining fotonusxasi hamda alloma shoirning g’azaliyat va dostonlaridan musiqaga oid qimmatli namunalar keltirilgan<sup>91</sup>.

**Zaynulobiddin Mahmud Husayniy** (1463–1519) ham Mir Alisher Navoiy maslahati bilan musiqaga oid “Qonuni ilmi va amaliyi musiqi” nomli ilmiy asar yozgan edi.<sup>92</sup> Mazkur asarni sharqshunos olim A.A.Semyonov rus tiliga erkin tarjima qilgan.

Zaynulobiddin Husayniyning “Qonuni” yuqorida zikr etilgan Abdulqodir Marog’iy va Abdurahmon Jomiy risolalari qatorida O’n ikki maqom tizimini nazariy va amaliy o’rganuvchilar uchun tengsiz manba hisoblangan. Qolaversa, bu asarlar bugungi kunga qadar o’zining yuksak ilmiy qiymatini yo’qotgan emas.

Xulosa qilib aytganda, O’n ikki maqom tizimining diyorimizdagи ilk ko’rinishi Sohibqiron Amir Temur davrida shakllantirilgan bo’lib, uning amaliy ijrosi mazmunida pok qalblarning koinot cho’qqisi sari bosqichli va sermazmun ruhiy yuksalishlari o’zining mukammal badiiy ifodasini topgan edi.

<sup>91</sup> Ibrohimov O., Oripov Z. X–XVII asrlar o’zbek mumtoz musiqasi (qo’lyozma). – Т., O’zR FA San’atshunoslik instituti kutubxonasi. inv. №8014. 55–57-betlar.

<sup>92</sup> Ibrohimov O., Oripov Z. X–XVII asrlar o’zbek mumtoz musiqasi (qo’lyozma). – Т., O’zR FA San’atshunoslik instituti kutubxonasi. inv. №8014. 64–65-betlar.

Mazkur tizimni yuzaga keltirishga ulkan hissa qo’shgan musiqa ustozlari – Abdulqodir Marog’iy, Abdurahmon Jomiy va Zaynulobiddin Husayniylarning bizgacha yetib kelgan ilmiy asarlari maqomlar tarixi, nazariyasi va poydevor ilmiy-amaliy asoslarini o’rganishda benihoya qimmatli manbalar qatorida alohida qadrlidir. Binobarin, bugungi kunda bir qator mamlakatlar (O’zbekiston, Turkiya, Eron, Fransiya, Angliya va b.)ning nufuzli kutubxonalarida saqlanayotgan bu allomalarining ilmiy meros qo’lyozmalari mudom mutaxassislarining diqqat markazida.

### Savol va topshiriqlar:

1. “Advor ilmi” iborasi maqomlarning qaysi tizimida qo’llaniladi?
2. Abdurahmon Jomiyning “O’n ikki maqom” haqidagi ilmiy risolasi qanday nomlanadi?
3. O’n ikki maqomni nazariy mubohasa qilishda qaysi cholg’uning pardalar tizimiga tayanilgan?
4. “Qonuni ilmi va amaliyi musiqi” (“Musiqaning ilmiy va amaliy qonunlari”) asarining muallifi kim?
5. Abdulqodir Marog’iyning musiqailmiga doir asarları qanday nomlanadi?

### Adabiyotlar

1. Ibrohimov O., Oripov Z. X–XVII asrlar o’zbek mumtoz musiqasi (qo’lyozma). – Т., O’zR FA San’atshunoslik instituti kutubxonasi, 2016. Inv. № 8014.
2. Ибрагимов О.А. Фергано-Ташкентские макомы. – Т., 2006.
3. Zayniddin Vosify. Badoye’ ul-vaqoye. – Т., 1979.
4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Т., 1996.
5. Oripov Z. X–XV asrlar Markaziy Osiyo musiqa manbashunosligi. – Т., Navro’z, 2017.

## **6-MAVZU: HAZRAT ALISHER NAVOIY VA MUSIQA**

**Reja:**

- 1. Alisher Navoiyning samo' falsafasi.**
- 2. Maqom va tasavvuf.**
- 3. Yetti maqom va yetti sayyora.**



*"Mug'anniy, kel-u chert turkono soz,  
Maqomi "Navo", yo'qsa "Turki Hijoz",  
Navoiyning ash'oridan necha bayt,  
Mening hasbi holim topib turkiy ayt".*

*Navoiy*

### **1. Alisher Navoiyning samo' falsafasi**

Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Mir Alisher Navoiy yaratgan badiiy asarlar teran mazmuni va nafis ohangdorligi bilan o'quvchi qalbida katta taassurot uyg'otadi. Zero, mutafakkir qalamiga mansub g'azal va dostonlar musiqaning eng go'zal va latif ko'rinishi bo'lgan samo' hikmatlari bilan yo'g'rilgan. Bu hol bejiz emas, albatta. Zotan, diltortar kuy va nafis taronalar Navoiy ijodining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi. Shu boisdan uning asarlarida botiniy musiqa sadolari "ichki tinglov" ila mudom his qilinadi, qahramonlar tavsifi

esa goho benazir sozanda va xonandalar siymosi o'laroq yorqin gav-dalanadi. Shuningdek, advor ilmidan yaxshi xabardor Navoiy asarlarida maqom san'atiga oid ko'plab maxsus atama va iboralar bayon etilayotgan voqelikning eng nozik va muhim nuqtalarida namoyon bo'lishi kuzatiladi. Binobarin, Navoiyning ijodiy merosi maqomlar tarixi va falsafiy ta'lomitini o'rganishda ham qimmatli manbadir.

Mir Alisher Navoiy musiqa san'atini tasavvuf doirasida idrok va talqin etgani uning nazmiy-ilmiy asarlaridan ma'lum. Jumladan, shoiring ijodida musiqa so'fiyona samo' (yoqimli tovush, nag'ma, ohangni qalban tinglash ila zavqlanish va h.k.) tushunchasining ma'nodoshi yoxud uning muayyan bir ko'rinishi sifatida keng qo'llanganini kuzatamiz. Bu borada musiqa Haqiqat sir-asrorlarini qalban kashf etish uchun insoniyatga berilgan nodir ne'mat bo'lib, uning yoqimli nag'malarida asl go'zallik jilvalanadi. Binobarin, samo'ning bir ko'rinishi bo'lgan musiqa – inson his-tuyg'ularini chin Go'zallik va Haqiqat asrorlariga yo'naltirish qudratiga ega san'atdir: "Shibliy va Nuriy (quddissa sirrihum) samo'da kettilar va bu yo'l suluki bila maqsud sarmanzilig'a yettilar"<sup>93</sup>. Bu o'rinda samo' tushunchasi mazmunida go'zal ovoz bilan jilolangan muayyan intizomli tovushlarning yuksaklikka maqsadli intilgan jonli harakat jarayoni va uni qalban zavqli qabul qilish (idroklash) holati anglashiladi.

Ammo go'zallik olamiga ruhan yuksalishning o'z shartlari ham bor. Shulardan eng muhimi – inson qalbida ishq dardining mavjudligidir. Bejiz emaski, hazrati Navoiy asarlarining bosh qahramonlari ishq jazbasi ila yuksak maqsad sari intiladilar. Zero, ishq ahli borki, o'z navosi bor. Aslida go'zal ishq tuyg'usining hissiy ifodasi bo'lgan navo (kuy) benihoya latofatli, dilrabo va maftunkor bo'lishi barobarda yana inson ruhiga quvvat bag'ishlovchi ma'naviy ozuqa hamdir. Tabiiyki, bunday sohir ohangli musiqaning ichki mohiyati shunga muvofiq bo'lgan xushnavo soz va yoqimli ovoz ijrochiligi vositasida o'zini mukammal namoyon etadi. Bu esa har bir sozanda va xonanda oldiga qo'yilgan eng muhim estetik talablardan biridir. Zotan,

<sup>93</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'rtinch tom. Mahbub ul-qulub. – T., Fan, 1998. – 30-b.

ushbu talablar butkul amalga oshgandagina tinglovchi ruhiy olamida mo‘jizaviy holat yuzaga keladi: “Ko‘ngul quvvati – xushnavozdin, ruh quti – xushovozdin”<sup>94</sup>.

Nafosat olamiga ruhan bog‘lanish va shu asnoda ko‘zlangan maqsad sarmanziliga yetishish yo‘lida mutrib-u mug‘anniylarning ham ishq ahlidan bo‘lmog‘i ayni muddaodir. Shu sababdan jazba dardli mug‘anniyning muloyim ovozda kuylashi shikasta ko‘ngillarni yondirib yuboradi, mahoratlari mutribning yoqimli ovoz birla soz chalishi esa hol ahlining ko‘ngil olamiga g‘avg‘o soladi: “Mutribi tarabafzo, mug‘anniyi g‘amzudo – ikkalasiga dard-u hol ahli jon qilurlar fido. Ulki ko‘rguzgay muloyim tarona-u nag‘am, agar eshituvchining hayoti naqqdi anga fido bo‘lsa ne g‘am... Otashin yuzluk mug‘anniyiki, xilqidin muloyim surud chiqorg‘ay, hol ahlining kuygan bag‘ridin dud chiqorg‘ay. Muloyim mutribki, tab’ va fahm anga yor bo‘lg‘ay, xususanki, ham aytg‘ay va cholg‘ay, ko‘ngul mulkiga ne qo‘zg‘olnalar solg‘ay”<sup>95</sup>.

Filhaqiqat, go‘zal ruhiy holat ifodasi o‘laroq yuzaga kelgan kuylarini har gal sadolarda “jonlantira” olish borasida oshiq qalb sozanda va xonandalar mohiyatani ishq zavq-u shavqidan kelib chiquvchi “nola” va boshqa ijroviy bezak usullarini samarali qo‘llay biladilar. Zotan:

*Qaysi qush, bulbulki ming dastoni bor,  
Har bir ul dastonda bir afg‘oni bor.  
Lek ul dastonlari gul shavqidin,  
Nola-u afg‘onlari gul shavqidin*<sup>96</sup>.

Navoiyning teran bu kuzatuvlarini Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye”sida keltirilgan quyidagi rivoyat ham quvvatlaydi: “Hazrati Dovud payg‘ambardan keyin hech kim Hofiz Basirdek xonandalik qilolmas ekan. Shunisi ham mashhurki, uning xonandalik majlisida to‘rt kishi hushidan ketgan ekan. Naql qilishlaricha, Hoja Tovus Devonning ta’ziysi kuni e’tiborli va mansabdor kishilar Hofiz

<sup>94</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 14-tom. Mahbub ul-qulub. – T., Fan, 1998. – 30-b.

<sup>95</sup> O‘sha manba. – 30-b.

<sup>96</sup> Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 21-b.

Basirdan ashula aytishni iltimos qilganlar. Hofiz Hoju Kirmoniyning “Vafoti beh buvad onro, ki dar vafoyi tu navbat” (“Senga vafo qilmaganlarning o‘lgani behroq”) deb boshlanadigan g‘azalini boshlab quyidagi baytga yetgan:

*Dar otash afkanam on dil, ki dar g‘ami tu naso ‘zad,  
Ba bod bardiham on jon, ki dar havoi tu navbat...*

(G‘amingda kuymagan dilni o‘tga tashlayman. Sen uchun yonmagan jonning kulini ko‘kka sovuraman). Ayvon kunjidan bir musicha parvoz qilib, o‘zini hofizning qo‘yniga tashlagan va jon bergen. O‘sha kuni qariyb qirq kishi hushidan ketgan. Ularni majlisdan ko‘tarib olib chiqishgan”<sup>97</sup>.

Musiqa (kuy, ashula), agar ko‘zlangan yuksak maqsad sari to‘g‘ri yo‘nalgan bo‘lsa, ruhiy ibodat yanglig‘ muqaddasdir. Bu o‘rinda ham musiqa ijrochilarining ichki olami, ma’naviy yetukligi va asl niyati muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Lison ut-tayr” falsafiy dos-tonida shunday misralarni o‘qiymiz:

*Abdulla Ansoriy dedi,  
Ulki, yo‘l ahlig‘a hodiy edi.  
“Kim kishi soz aylabon ohangi rud,  
Tuzsa ul ohang aro lahni surud,  
Lek bu rudu suruditin murod,  
Bo‘lsa Tengri yodi, ey pok e’tiqod,  
Yaxshiroqkim g‘aflat ohangin tuzub,  
O‘quq‘oy mushaf tilovat ko‘rguzub.  
Bo‘lsa lahnu nag‘mada ogohlig‘,  
Behki toat vaqtida gumrohlig‘*<sup>98</sup>.

Ushbu baytlar mazmunida xolis niyat va pok e’tiqod bilan qo‘lga rud cholg‘usini olib ashula aytayotgan kishining ahvoli, shuningdek, kuy nag‘malarini tinglaganda dargohi azalni eslab, ilk xitobdan ogoh bo‘lishlik gumroh holda qilingan toat-ibodatdan-da yaxshiroq ekanligi anglashiladi. Chunki shu mohiyatda idrok etilgan musiqa bevo-

<sup>97</sup> Zayniddin Vosifiy. Badoye’ ul-vaqoye. – T., 1979. – 10–11-betlar.

<sup>98</sup> Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – 221-b.

sita inson qalbiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, uning ruhiga ma'naviy ozuqa o'laroq quvvat bag'ishlaydi va shu asnoda Haqiqat manzillariga chorlaydi.

Ammo nafs istagida qo'lga soz olguvchilar ham borki, ularni Navoiy keskin qoralaydi: "Ammo bu toifaning soyiri ham agarchi taraboyin va mehnatzadadurlar va lekin filhaqiqat, laimsiyrat va gadodurlar. Aytquvchi va cholq' uvchi zorlig' va iynamak bila olg'uvchi. To buyurg' uvchida sila va in'om bor, alar mulozimdurlar va xizmator. To suhbatda ne'mat ko'p, alarga barcha amr-u nahying jo'b. Chun bazmda tana'um oz bo'ldi, alar ishi istig'no-u noz bo'ldi. Ne'mat degan nimaki tamom yo'q bo'ldi, alarning ko'ngli sendin tamom to'q bo'ldi... Mug'anniy vafosiz, kungir hayosiz. Agar yillar rioyer qilibsen va hamxonadur, bir qatlaki bermading – begonadur"<sup>99</sup>.



**Alisher Navoiyning "Hamsa" asariga ishlangan asar<sup>100</sup>.**

<sup>99</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 14-jild. Mahbub ul-qulub. – T., Fan, 1998. – 31-b.

<sup>100</sup> Alisher Navoiy asarları. XV–XVI asrlar kitobat san'ati durdonalarida. – T., 2020. – 266-b.

Navoiy g'azallari va dostonlarida aruz ilmi asosida tizilgan aksariyat she'riy misralar ishq ohanglari bilan tabiiy payvasta keladi. Bu o'rinda maqom ohanglari ustuvorligi yaqqol seziladi. Maqom san'atini ham amaliy (ijodkor va ijrochi sifatida), ham nazariy (ilmi advor ta'limoti) nuqtayi nazardan mukammal bilgan buyuk mutafakkir "Navoiy" taxallusida imzolagan aksariyat nazmiy asarlari botinida maqom ohanglari his qilinadi mavjuddir ("Navoiy" taxallusining lug'aviy negizi "Navo" maqoming nomiga borib taqaladi).

Aslida maqom olami Navoiy badiiy tafakkurining, teran va go'zal ruhiy olamining ajralmas tarkibiy qismidir. Shundayki, so'z mulki sultonining g'azaliyoti bu she'riyat uslubida ifoda etilgan hikmatlar ummoni bo'lsa, maqomlar – kuy sadolari vositasida taralgan hikmatlar ummonidir. Shu sababli Navoiy g'azallarini mutolaa qilib zavq oluvchi muxlis maqomlarni ham tinglashga moyil bo'ladi, ulardan ruhiy ozuqa oladi. Chuqur ma'nolar bilan bezalgan bu har ikkala ummonning bir olamga bog'lanishi esa Buyuk ishq tufaylidir. Navoiyning:

*Ochmag'ay erding jamoling olam aro, koshki,  
Solmag'ay erding bari olamga g'avg'o, koshki.*

*Chun jamoling jilvasi olamg'a soldi rustaxez,  
Qilmag'ay erdi ko'zum oni tamosh, koshki.*

*Bo'limg'ay erdi ko'zum o'tlug' yuzing ko'rigan zam'on,  
Ishqing o'ti shu'lasi ko'nglumda paydo, koshki,*

kabi misralari maqomlardagi har bir asosiy aytim yo'liga debocha bo'lishi mumkin. Zero, maqomlarda ham qalb harorati, dard iztirob-lari, sof tuyg'uning sururli avj kechinmalari his etiladi.

Darhaqiqat, yuksak ishq bois ma'naviy poklik yo'lini ixtiyor etuvchi va uning maqomlarida koinotga qadar ruhiy yuksalib, pirovardida esa asl Go'zallik, chin Haqiqatga erishuvchi komil inson ta'limoti ham Navoiy nazmining, ham mumtoz maqomlarimiz mazmun-mohiyatinining asosiy o'zagini tashkil qiladi. Binobarin, donishmand shoir asarlari bo'yab go'yo durdek sochilgan maqom istilohlari shunchaki "lirik chekinish" maqsadida emas, balki muayyan fikr-g'oyanining

eng muhim nuqtasi, ba'zan botiniy xulosasi tarzida namoyon bo'ladi. Buni anglab olish uchun esa Navoiy davri musiqa amaliyotida keng qo'llanib kelingan O'n ikki maqom tizimi xususida ozmi-ko'pmi tasavvurga ega bo'lish lozim. Qayd etmoq kerakki, "maqom" atamasining musiqaga joriy etila boshlanishi ko'p jihatdan tasavvuf ta'limotining islom olamida keng yoyilganligi, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida qariyb rasmiy mafkura mavqeyiga ko'tarilib, pirovardida saroy san'atiga, xususan, mumtoz kasbiy musiqa sohasiga ko'rsatgan kuchli g'oyaviy ta'siri bilan izohlanadi.

## 2. Maqom va tasavvuf

"Maqom" so'zi tasavvuf istilohida ma'naviy kamolot yo'li (tariqat)ning yetti ta asosiy bosqichi va shu bilan bog'liq ma'lum sa'y-harakat jarayonini anglatadi. Bu harakat mazmunini esa solik (yo'lovchi, murid)ning suluk (yo'l) bosqichlari bo'ylab safari va shu asnoda o'z maqsadi sari ma'naviy yuksalib borishi tashkil etadi.

Ma'naviy yuksalish g'oyasi O'n ikki maqom tizimida turfa ko'rinishlarda zohir bo'lgan. Jumladan, solikning qalbidagi ishq o'ti bilan mahbubi tomon ruhiy safari 12 nomda kelgan maqom "zanjirida" ham botiniy ma'no anglashiladi:

1. Ushshoq – oshiqlar, yuksak ishq timsoli;
2. Navo – ishq, muhabbat kuyi, oshiqlarning dardli kuyi;
3. Busalik – mahbubini izlashga chiqqan yo'lovchi;
4. Rost – to'g'ri, haqiqiy (oshiq, solik) ixtiyor qilgan to'g'ri yo'l ramzi;
5. Husayniy – oshiqning yo'lboshchisi;
6. Rohaviy ("roh" so'zidan) – yo'l ramzi; yo'l harakatiga ishora;
7. Hijoz (Makkayi mukarrama va Madinayi munavvara shaharlari joylashgan o'lka) – Haj safariga ishora, asosiy maqsad timsoli;
8. Zangula – qo'ng'iroqcha, "talab tuyasi", yo'ladi karvon ramzi;
9. Iroq (ziyoratchilar karvoni o'tadigan mamlakat nomi) – solik o'tishi lozim bo'lgan va ayni vaqtida maqsadga "olib boruvchi olis va mashaqqatli yo'l" timsoli;

10. Isfahon (Hijoz yaqinidagi shahar) – maqsadga yaqin kelishlik ramzi;

11. Zirofkand ("sakrash, to'shak, yotish payti") – safarbarlik harakatining poyoniga yetishi, ziyyaratning tugashi;

12. Kuchak (Zirofkandning qo'shimcha ikkinchi nomi, "kichik" ma'nosini bildiradi) – kichik olam, mikrokosmos;

13. Buzurg (katta, ulug', buyuk) – katta olam, makrokosmos.

Ushbu zanjirda kelgan dastlabki uch maqom (Ushshoq, Navo, Busalik)ning nomi "yo'l"ga qadar bo'lgan ruhiy holatni, ya'ni Ushshoq – Haqiqat yo'lidagi chin oshiqlikni, Navo – ishq o'tida dard (navo) chekishni, Busalik (Abu Salik – Ahd otasiga ishora) – oshiqning tariqat yo'liga kirishga "ahd bog'lashi"ni ifoda etadi.

"Ushshoq" ("oshiqlar") atamasi, so'fiylar an'anasisiga ko'ra, tariqat maqomlarini bosib o'tmagan shogirdlarga nisbatan qo'llaniladi<sup>101</sup>. Zotan, oshiqlik tuyg'usi insonni tariqatga boshlovchi dastlabki, biroq zarur ruhiy holatdir. Ammo har qanday oshiqlar ham komillik mavqe-yiga erishavermaydi. Zero, ishq tuyg'usi ila qalbida o'tli kuy hosil qilgan oshiqlargina tariqat sari odimlashga va bu yo'lda ma'naviy yuksalishga muvaffaq bo'ladilar. Oshiqlikning bu yangi pog'onasi "Navo" deb ataladi. Binobarin, Navo Ushshoqning tabiiy davomi, uning rivojlangan cho'qqi darajasidir. Buni Navoiyning quyida keltirilgan bayti mazmunidan ham anglash mumkin:

*G'ussa changidin Navoye, topmadim Ushshoq aro,  
To Navoiydek asir-u benavo bo'ldim sanga.*

Shu tariqa ma'naviy kamolot sari intilgan "yo'lovchi" Busalik (Abu Salik) yuzaga kelar ekan. Demak, Ushshoq – Navo – Busalik maqomlari mohiyatan o'zaro bog'liq va biri ikkinchisidan kelib chiquvchi ruhiy yuksalish holatlarini anglatadi.

Keyingi yetti maqom – "Rost", "Husayniy", "Hijoz", "Rohaviy", "Zangula", "Iroq" va "Isfahon" nomlari botinida oshiqlar (solik)ning tariqat yo'lida ruhiy yuksalib borishi ulug' Haj safariga tashbeh etiladi.

<sup>101</sup> Тримингем Дж. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989. – С. 73.

Shu asnoda hazrat Navoiyning maqom nomlari bitilgan quyidagi baytlariga e'tibor beraylik:

*Qaddi hajrinda tortsang nola,  
"Rost" ohangi, ey Navoiy tuz.*

"Badoye' ul-bidoya"dan iqtibos etilgan ushbu bayt mazmunini anglab olishda "nola", "rost", "ohang" kabi musiqaga ham bevosita aloqador atamalar e'tiborni o'ziga tortadi. Jumladan, o'sha davrda mashhur O'n ikki maqomlardan birining nomi bo'lgan "Rost" atamasi musiqada eng mukammal pardalar uyushmasini anglatishi bilan birga tasavvuf kesimida oshiqlar yo'li (rohi rost)ni ham ramz etadi. "Nola" so'zining lug'aviy mazmunida esa "fig'on, hasrat, iltijo, mungli yig'i" kabi ma'nolar anglashiladi. Musiqada esa "nola" so'zi muayyan ijro bezagini bildiruvchi maxsus atamadir. Shularni nazarda tutgan holda yuqorida keltirilgan bayt mazmunini quyidagicha sharhlash mumkin:

"Ayriliqdan (hijrondan) dard chekayotgan (yoki Yor vasliga mush-toq) oshiq to'g'ri yo'l (Rost)ga yursin. Chunki bu yo'l shu maqsadga eltuvchi yo'ldir". Ayni paytda mazkur bayt mazmuni o'laroq maqomlar musiqasida ham botiniy g'oyalar in'ikos etilganligini fahmlash mumkin. Shunga ko'ra ushbu bayt mazmunidan maqomlar kesimida quyidagicha ma'no kelib chiqadi:

"Ey oshiq (Navoiy), agar sen hijron azobida bo'lsang, "Rost" maqomi ("Haqiqatga eltuvchi kuy") ohanglarini tuzgin (tinglagin). Chunki bu maqomda sadolangan kuy-ohanglar oshiq qalbiga orom-u fayz yetkazadi va, agarchi, ruhiyati yuksalsa, istalgan zavq holati (visol)ga ham erishadi".

"Rost" maqominining inson ruhiga bu kabi favqulodda kuchli hissiy ta'sir etish sabablari esa, eng avvalo, undagi mukammal pardalar uyushmasi va shu asosda kuy-ohanglarining muayyan rivojlanish uslubi bilan ham tavsiflanadi.

Binobarin, Navoiyning turli asarlarida O'n ikki maqom tizimi bilan bog'liq musiqa istilohlari teran fikr, sof insoniy tuyg'u va ilgari surilgan g'oyaning eng muhim avj nuqtalarida kelishiga iqror bo'lamiz. Navoiyning quyidagi she'riy misralarini iqtibos etamiz:

*Ey Navoiy, sen dog'i qilsang tama'sayri "Hijoz",  
Qil "Iroq" ohangi, tark aylab Xuroson men kibi.*

(“Navodir ush-shabob”).

*Ey Navoiy, to muqarrar qildim ohangi "Hijoz",  
Gah "Iroqu", gah "Ajam" sori tarannum aylaram.*

(“Xazoyin ul-maoniy”)

*Ey mug'anniy, tut "Iroq" ohangiyu ko'rguz "Hijoz",  
Kim Navoiy xotiri bo'lmish Xurosondin malul.*

(“Badoye' ul-bidoya”)

Bu misralarda O'n ikki maqom tizimidan o'rinn olgan "Hijoz" va "Iroq" maqomlarining nomlari "ochqich" yanglig' ahamiyatga ega. Hijoz, ma'lumki, Arabistonagi muqaddas Makkayi mukarrama va Madinayı munavvara shaharlari joylashgan sarhadni anglatса, Iroq – ma'lum mamlakatning nomiga ishoradir. Binobarin, ushbu nomlarining o'zaro nisbatida ulug' Haj safari tashbeh etilganki, bunda Hijoz – safardan ko'zlagan asosiy maqsad timsoli, Iroq esa shu maqsadga olib boruvchi olis yo'l ramzi sifatida keladi. Zero, Navoiy zamonlarida Hijoz manziliga yetishmoq uchun Iroq mamlakatining bepoyon cho'llaridan o'tilgan.

Iroq va Hijoz maqomlarining mukammal pardalarida ifodalangan ulug'vor kuy-ohanglari nafaqat bastakor-hofiz va sozandalarni, balki o'z davrining olim-u fuzalo, shoир-u adiblarini ham ijod sari ilhom-lantirib kelgan. Ayniqsa, mazkur maqomlar Haj safarini ado etganlar va bu amalni bajarish orzusida bo'lganlar qalbida alohida qadrli tuyg'ularni uyg'otgan. Jumladan, Haj amallarini bajarganlar uchun bu maqomlar baxt manzili ("Hijoz")ga olib boruvchi Iroq mamlakatining cheksiz cho'l-u xiyobonlarida kechgan mushkilotli sinov va pirovardida erishilgan ruhiy yuksalishlarini yodga soluvchi mo'tabar nom va musiqa yo'llari; safar orzusida bo'lganlar uchun esa ibtidosi mashaqqatli, intihosi sharafli yo'l talabi bilan bog'liq muqaddas yanglig' kuylarning timsoli ham edi.

*Gar Sifohonda "Navo" topmasang, ey yori "Buzrug",  
Qilg'asan, azmi "Iroq" aylab ohangi "Hijoz".*

(Hofiz Xorazmiy)

*Lutfiy, Hiriyyda qolmadi she'ringga mushtaripy,  
Azmi "Hijoz" qilki, maqoming "Iroq" emish.*

(Lutfiy)

Demak, Navoiyning yuqorida keltirilgan baytlari mazmunida butun umri davomida orzu qilgan Haj safariga intilishi o'z aksini topgan. Ayni vaqtida, she'riy misralardagi "Haj g'oyasi" zamirida buyuk Haqiqatga eltuvchi ma'naviy kamolot yo'li ham ko'zda tutilgan, shu boisdan oshiq qahramonning "Iroq" va "Hijoz" maqom kuylarini tinglashga ruhiy ehtiyoji borligi bejiz emas. Zero, bu maqomlarda ("Rost"da bo'lgani kabi) mavjud mukammal parda uyushmalari va ularda ma'lum uslubda rivojlanuvchi kuy tuzilmalari oshiq ruhini sururli vajd kechinmalari (ruhiy safar) sari yuksalishiga quvvat beruvchi ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Bu maqom namunalarining to'g'ri idrokhanishi safar talabgorlari uchun o'ziga xos tasalli beruvchi ahamiyat ham kasb etgan.

### 3. Yetti maqom va yetti sayyora

Navoiyning hikmatlarga to'la g'azallari ortida yashirin ohanglar mohiyatini anglab olishda ularda qo'llangan musiqiy istilohlar bilan birga yana dostonlariga ishlangan mo'jaz tasvirlar (miniatyurlar) ham zarur ishora yanglig' muhimdir. Shu o'rinda o'zbek musiqashunosligining so'nggi o'n yilliklarda erishgan ayrim ilmiy natijalarini qisqa-cha qayd etib o'tish joiz. Xususan, mutaxassislar eng qadimgi maqom tizimlaridan biri sifatida "Yetti maqom" bo'lganligini taxmin qilsalar-da, ammo bu tizim haqida yaqin davrgacha aniq ilmiy tasavvurga ega emasdilar. Shoiring "Sab'ayi sayyor" dostonida kelgan botiniy hikmatlar asrorini anglash yo'lidagi dastlabki ilmiy sa'y-harakatlar natijasi o'laroq "Yetti maqom" parda uyushmalari va ularning koinot bilan uzviy bog'liq holda ijro etilish an'analari haqida ham ilk tasavvurlar yuzaga keldi.

Navoiyning "Sab'ayi sayyor" dostoniga asos bo'lgan adabiy mavzu aslida "shon-shavkatli podsho, mohir ovchi va ishratparast kishi" sifatida tasvir etilgan Bahrom Go'r haqidagi afsona va rivoyatlarga borib taqaladi. Xamsachilik an'analarni yuqori pardalarda davom ettirgan Navoiy bu mavzuni tubdan qayta ishlash jarayonida unga qadimgi Sharq xalqlari va yunonlarning samoviy musiqa xususidagi qarashlarini kichik va katta olamlar birligi kesimida uyg'un singdirgan edi. Shunga ko'ra, endilikda gavdalangan shoh Bahrom musiqani samo' o'laroq jon dili bilan tinglash salohiyatiga ega chin oshiq, uning ma'shuqasi Dilorom esa samoviy sozanda – (changchi) Zuhra sayyorasining yer yuzidagi timsolidir:

*Changini qo 'lg'a olib ayladi soz,  
Chang ila nag 'ma ayladi og 'oz.*

*Nag 'ma ul nav 'oshkor etti,  
Kim eshitgach shah o 'zidin ketti<sup>102</sup>.*


*Unum ovozasi jahon tutti,  
Changim ovozi osmon tutti.*

*Husn xud beqiyosu andoza,  
Bo 'ldi ovoza uzra ovoza<sup>103</sup>.*

Dilorom o'zining maftunkor chang ijrosi va benazir ovozda kuylashi bilan oshiq shoh qalbiga orom, ruhiga zavq bag'ishlardi. Shu bois ham Diloromdan ayrilib qolgan zamon Bahromning xasta ko'ngliga hech qanday dori-darmon malham bo'la olmaydi. Tabiiyki, uning dardiga faqat ishq ifodasi bo'lgan musiqa davo edi. Buni anglagan donishmand yetti rangda bo'lgan qasr qurdirishini va hafta davomida ularning har biriga kirib yetti iqlimdan kelgan musofir sayyorlar hikoyasi (navosi)ni tinglashni maslahat beradi. Shunga binoan haftaning har bir kuni muayyan rangdag'i saroyga kirib sayyoohlар (ya'ni planetalar) hikoyasini (musiqasini) tinglagan shoh Bahrom oxir-oqibat "shifo" topadi.

<sup>102</sup> Alisher Navoiy. Sab'ayi sayyor. – T., G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. – 292-b.

<sup>103</sup> O'sha asar. – 301-b.



Dostondagi bu hikoyalarga ishlangan miniatyuralarni o‘rganish asnosida ulardagi ranglar timsolida Yetti maqom musiqa pardalari in’ikos etishi ayon bo‘ldi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, oshiq Bahrom bir hafta davomida yetti iqlimdan kelgan musofir sayyoohlar “tili”dan Rohaviy, Iroq, Navo, Ushshoq, Busalik, Zirofkand va Rost maqomlariga yo‘g‘rilgan hikoyalarni tinglagan edi. Bu hol doston-  
dagi yakuniy hikoya davomida ham “oshkor” bo‘ladi. Yettinchi iqlim-  
dan kelgan hikoyanavis musofir aslida xorazmlik maqomdon olim va  
sozanda-ustoz bo‘lib chiqadi:

*San’atim anda soz chalmoq ishi,  
Bilmayin men kibi ishimni kishi.*

*Ilmi advor-u fanni musiqiy,  
Medin ul ilm ahli tahqiqiy.*

*Elga ta’lim etmoq virdim,  
Kimki ustodi qavm shogirdim<sup>104</sup>.*

Xullas, shoh Bahrom juma kuni oq saroya yettinchi iqlim muso-  
firidan Rost maqomida tinglagan oxirgi hikoyasi vositasida Chin ma-  
likasi bo‘lgan Diloromni qayta topib, Haqiqat asroriga erishadi. Bu  
o‘rinda Rost (fors.-toj.) so‘zining to‘g‘ri, haqiqiy va chin ma’nolarini  
anglatishi ham e’tiborlidir.

Darhaqiqat, ishq tuyg‘usining musiqiy ifodasi bo‘lgan hamda  
ruhiyatning oliv maqsadini hol tili ila so‘zlovchi maqomlar inson  
ma’naviyatini Go‘zal borliq, chin Haqiqat sari yuksaltirishga xiz-  
mat qiluvchi mazmun-mohiyati bilan olamshumul hodisadir. Bu hol  
Alisher Navoiy ijodida maqom nomlarining zikri bilan birga mumtoz  
ohanglarining ham botiniy tarzda beziz ifoda etilmaganini yana bir  
karra tasdiqlaydi va ayni chog‘da, uning asarlari mazmunini o‘quv-  
chiga yanada zavqli etadi.

<sup>104</sup> Alisher Navoiy. Lison ut-tayr.—T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.—288–289-betlar.

### Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy musiqiy fanda kimning shogirdi bo‘lgan?
2. Alisher Navoiyning bastakorlik sohasida yaxshi naqsh va peshravlar ijod qilgani haqida ma’lumot keltirilgan yozma manba?
3. Alisher Navoiyning ”Sab’ayi sayyor” dostonida maqomlarning qaysi turi botiniy mavjudligi faraz qilinadi?
4. Alisher Navoiyning samo’ falsafasi haqida tushuncha bering.

### Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. O’n to‘rtinchı tom. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1998.
2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
3. Alisher Navoiy. Sab’ayi sayyor. – Toshkent: G. G. ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
4. Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar. Albom muallifi H. Sulaymon. – Toshkent: Fan, 1970.
5. Rajabov I. Maqomlar. – T., 2006.
6. Zayniddin Vosify. Badoye’ ul-vaqoye. – T., 1979.
7. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T., 1996.

### 7-MAVZU: BOBUR VA MUSIQA

#### Reja:

1. Axsi musiqa an’analari.
2. Bobur va maqom san’ati.
3. Savt va Mo‘g’ulchalar xususida.

#### 1. Axsi musiqa an’analari

Ulug‘ Sohibqiron Amir Temur va uning munosib vorislari bo‘lgan zakovatli Temuriyzodalar hukmronligi davrida maqom san’ati ravnaq topishi uchun zarur shart-sharoit yaratilgan edi. Bu fikrimizga, xususan, Boburiylar sulolasining asoschisi, xalqparvar podshoh va ayni vaqtida mumtoz shoir, san’atkor Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) shaxsi yorqin misoldir.

Ma’lumki, Boburning otasi, Temuriyzoda Abu Sayidning o‘g‘li Umarshayx Mirzo (1456–1494) Farg‘ona vodiysi va Toshkent viloyatlarini qamragan mamlakatining poytaxti sifatida Andijon g‘arbida joylashgan Axsi qo‘rg‘onini tanlagan hamda shu maskanda tiklangan saroydan o‘z tasarrufidagi hududlarni hukmdor martabasida boshqargan. Umarshayx Mirzo “Ravon savodi bor edi. “Xamsatay” va masnaviy kitoblarini va tarixlarni o‘qub erdi. Aksar “Shohnoma” o‘qur edi. Tab‘i nazmi bor edi, vale she’rg‘a parvo qilmas edi... Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dag‘i saxovaticha bor edi, xushxulq va harrof va fasih va shirinzabon kishi erdi, shuju‘ va mardona kishi edi”<sup>105</sup>.

Umarshayx Mirzoning shu kabi oljanob fazilatlari va saxovati, qolaversa, Amir Sohibqiron davrida qaror topgan madaniy an’analarni munosib davom ettirishga intilishi natijasida mamlakatda madaniy yuksalish kuzatila boshlagan. Saroy madaniyatida esa kasbiy mu siqachilar maqomida erkak va ayol san’atkorlar faoliyat ko‘rsatgani

<sup>105</sup> Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T., Fan, 2019. – 10–11–betlar.

e'tiborlidir. Aynan shu madaniy maskanda hozirda bizga ma'lum Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga hamda ayollarning kasbiy yallachilik san'atlariga asos solingan bo'lsa, ajab emas<sup>106</sup>.

Umarshayx Mirzoning munosib merosxo'ri bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur hukmdorlik davriga kelib bu ijodiy an'analar yana-da yuksalgan edi. Zero, u ilm va san'at ahlini mudom qo'llab-quvvat-lagan, "Boburnoma" sahifalarida Xoja Abdullo Marvari, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yorak, Shohquli G'ijjakiy, Husayn Udiy, Mavlono Shihob Muammoiy, Faxriddin Qo'bizchi kabi ko'plab musiqa ustozlariga haqqoniy ta'rif-u tavsiflar bergen.

Bu davrda murakkab maqom ilmi va san'ati bo'yicha Toshkent va Farg'ona vodiysida dong taratgan ustozlar ham bisyor bo'lgan. Xususan, Xoja Yusuf Andijoniy, Xoja Bobo-Inoq, Mavlono Shohusayn Toshkandiy, Mirza Arab Qo'ng'irotiy, Xoja Hamza Toshkandiyar shular jumlasidandir<sup>107</sup>. Lekin shunisi ham ma'lumki, XVIII–XIX asrlar davomida O'n ikki maqom asosida Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari kabi yaxlit salobatli turkumlar Buxoro va Xiva saroylarida qaror topgan. Ammo mazkur tizim Farg'ona vodiysi va Toshkent kasbiy musiqachilari orasida ham amaliy qo'llab kelingan bo'lsa-da, keyingi tadriji yaxlit turkumni hosil etmagan, balki alohida "tarqoq" ko'rinishli cholg'u va ashula yo'llaridan iborat bo'lib qol-gan. Nazarimizda, buning asosiy sabablaridan biri – Aksi saroyida faoliyat ko'rsatgan san'atkorlar – yallachi va maqom ustozlarining taqdiri bilan bevosita bog'liq.

Tarixdan ayonki, Bobur Mirzodan so'ng Aksi saroyi madaniy ana'analarini Jahongir Mirzo va boshqa hukmdorlar qo'li ostida XVII asr boshlariga qadar davom etgan. 1620-yilda ro'y bergan kuchli zilzila oqibatida Aksi saroyi san'atkorlari tarqalib ketganlar va o'zlarining kasbiy faoliyatlarini mamlakatning turli madaniy markazlari-da davom ettirganlar<sup>108</sup>. Shu asnoda maqomlarni yaxlit turkum holi-

<sup>106</sup> Turg'unova N. Farg'ona vodiysi yallachilik an'anaları. – Namangan, 2016. – 38-b.

<sup>107</sup> O'sha manba. – 48-b.

<sup>108</sup> O'sha manba. – 43, 81-b.

ga keltirishda muhim ilmiy-ijodiy markaz vazifasini bajargan saroy madaniy muhiti o'z ahamiyatini yo'qotgan edi. Pirovardida esa, bu omil keng hududlar bo'ylab yoyilib ketgan maqom namunalarining bizgacha tarqoq ko'rinishli Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari tarzi-da yetib kelishi sabablaridan biri bo'lgan.

Ulug' Sohibqiron davridan kelayotgan ilg'or saroy madaniy an'analarini qadrlagan Zahiriddin Muhammad Bobur butun umri davomida san'at ahliga ehtiromli bo'ldi, ularning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berdi. Ayni vaqtida, nozikta'b Temuriy shahzodaning ko'ngil davrasini bezaganlar ham san'atkorlar edi. Bobojon, Ruhdam, Qosim Ali, Yusuf Ali, Tangriquli, Amazon kabi sozanda va xonandalar shular jumlasidandir.

Ayni vaqtida, "musiqa va o'zga san'atlarni g'oyatda nozik idrok etgan" Bobur Mirzo o'zining noyob iste'dod qirralarini she'riyat bilan birga maqom san'atida ham namoyon etishga fursat topgan, aruz va musiqa ilmlari bobida maxsus risolalar bitgan. Bu o'rinda aruzga doir "Muxtasar" risolasida Rudakiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sherovi, Mavlono Attor, Mavlono Abdul Haydar Xorazmiy, Mavlono Abdurahmon Jomiy, Mir Alisher Navoiy, Kamol Xo'jandi, Abdullohotifiy va yana ko'plab shoirlar ijodidan tahlillarga muvofiq keltirilgan she'r namunalarini hamda "Boburnoma"da tilga olingen Xoja Abdullo Marvari, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yorak, Shohquli G'ijjakiy, Husayn Udiy, Mavlono Shihob Muammoiy, Faxriddin Qo'bizchi kabi musiqa ustozlariga berilgan xolis va lo'nda tavsiflar e'tiborga sazovordir.

Bobur Mirzo ijodiga mansub she'riyat va musiqa namunalarida o'zaro uzviylik borki, bu hol she'riyat va musiqaning egizak yanglig' sifatlari, mumtoz jahbada esa, ko'p jihatdan umumiylar aruz vaznlari bilan tafsiflanadi. Zotan, nazmda qalam tebratgan davrning aksariyat hukmdor-u shoirlari musiqadan, musiqa ahli esa she'riyatdan yaxshi xabardor edi. Abdulqodir Marog'iy, Mirzo Ulug'bek, Mavlono Sohib Balxiy, Xoja Yusuf Burhon, Hofiz Basir, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Pahlavon Muhammad, Kamoliddin Binoiy,

Zahiriddin Muhammad Bobur va yana ko'plab buyuk siymolar faoliyati bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, mumtoz she'riyatda o'sha davrda mashhur O'n ikki maqom nomlari zohir va botin ma'nolarda keng qo'llangan hamda bu borada hazrat Navoiy ijodi barchaga yuksak namuna edi. Jumladan, Navoiyning "Rost" maqomining atamasi bitilgan quyidagi bayti mazmuniga o'xshash she'riy misralar Bobur ijodida ham uchraydi:



*"Qaddi hajrinda tortsang nola,  
"Rost" ohangi, ey Navoiy tuz".  
"Bobur, ul gul ko'yida bulbul kibi topting maqom,  
Bir navoye Rost qil mundoq maqoming borida".*

Maqom ijrochiligidagi "sozlar kelinchagi" (Darvish Ali Changiy) ta'rifini olgan chang cholg'usi alohida nufuzli o'rinn tutgan. Hazrat Navoiyning "Sab'ayi sayyor" dostonidagi benazir san'atkori siyomosi bo'lgan Dilorom esa afsonaviy samoviy sozanda – (changchi) Zuhra sayyorasining yer yuzidagi timsoli o'laroq talqin etiladi:

*Changini qo'lg'a olib ayladi,  
Chang ila nag'ma ayladi og'oz.  
Nag'ma ul nav'oshkor etti,  
Kim eshitgach shah o'zidin ketti.*

Bobur ijodida ham chang cholg'usidagi ta'rif go'zal yor timsoli bilan uyg'unlikda birga keladi:

*Telba ko'nglumkim, sening changingdadur, yod aylagil,  
Bir navozish birla ko'nglumni mening shod aylagil!  
Ishrat ichra har qachonkim, chang olsang ilginga,  
Furqatingda qolgon egri qomatim yod aylagil.  
Soz aylab bir nishotangez chang, ey dilrabo,  
Benavo ko'nglumni g'am changidin ozod aylagil.  
Majlis ichra chang birla tortib ovoz, ey pari,  
Sabru hushim juzvu avroqini barbod aylagil!  
Changda har kun cholur yoring chu yo'qtur, Boburo,  
Yerga bosh chalmoq bila o'zungni mu'tod aylagil.*

Zahiriddin Bobur ijodida hazrat Navoiyga munosib izdoshlikni yana bir jabhada ko'ramiz. "Ma'lumki, Navoiyning o'zi musiqa sohasida ham yuksak iste'dod egasi edi. Uning qalamiga mansub har bir she'riy asar shuning uchun ham musiqiyligi bilan ajralib turadi va ashula yo'llariga osonlikcha tushadi", – deb yozgan edi ustoz Is'hoq Rajabov<sup>109</sup>. Bu kabi holat Bobur Mirzo ijodiga ham xosdir. Qolaversa,

<sup>109</sup> Rajabov I. Maqomlar. – T., San'at, 2006. – 412-b.

Temuriy shahzoda g'azal mulkining sultoni ilgari surgan aruz ilmining munosib davomchisi ham edi: "Zahiriddin Bobur, o'zbek tili fonetik normalari va arab, fors-tojik aruz sistemasining negizi asosida Navoiy "Mezon ul-avzon"ida ishlab chiqilgan, o'zbek aruzi qonun-qoidalarining ilmiy nazariy talablarga har tomonlama javob bera oladigan darajadagi nazm nizomini yaratdi"<sup>110</sup>.

Ittifoqo, maqom san'ati va mumtoz she'riyatning o'zaro uyg'unligi va shu asnodagi ravnaqi e'tiborli bo'lgan. Alalxusus, aruzga yaqin advor ilmi asosidagi O'n ikki maqom tizimi bastakorlar uchun bebaho ijod manbayi hisoblangan. Shunga ko'ra, har bir musiqa tasnifotchisi muayyan asar yaratishi jarayonida ushbu tizimdan o'rin olgan mukammal parda va kuy tuzilmalaridan andoza olib, ularni turli she'riy vazn va usullarga payvand etgan. Badiiy naziraning musiqadagi bir ko'rinishi bo'lgan bu ijodiy jarayonda har bir bastakorning iste'dod darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Advor ilmidan yaxshi xabardor Bobur Mirzo ham ushbu tizimga tayangan holda o'zining noyob musiqiy iste'dodini namoyon qilib turgan: "Mullo Yorak panjgohda muxammas davrida bog'lag'on naqshini o'tkardi. Yaxshi naqsh bog'labtur. Necha mahal edi, mundoq nimalarg'a mashg'ulluq qilmaydurdur edim. Bu taqrib ila "Chorgoh" savtini bog'ladim. Nechukkim, mahallida mazkur bo'lg'usidir"<sup>111</sup>. Darvish Ali Changiyning musiqaga oid mashhur risolasida Bobur Mirzoning Rosti Panjgoh maqomiga saj' bog'lagani haqida ma'lumot keltiriladi<sup>112</sup>.

Shuningdek, bizgacha maqomlar tarkibida yetib kelgan va semantik mazmunida harbiycha intizomlashgan mardonavor siymoni ifodalovchi Savt (Mo'g'ulcha) usuli ham Bobur ijodiga mansubligi taxmin qilinadi. Zotan, Amir Sohibqiron va Temuriylar davri musiqa ijodiyotida usul omili va badiiy ifodasi benihoya muhim ahamiyat

<sup>110</sup> Nizomiddinov N.F. Hind mumtoz musiqasi va milliy cholg'ulari. – T., O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi, 2008. – 13-b.

<sup>111</sup> Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T., Fan, 2019. – 271-b.

<sup>112</sup> Раджабов И.Р. Трактаты о музыке. Из Собрания Восточных рукописей АН РУз. – Т., 2020. – 278-b.

kasb etgan. Bejiz emaski, Temuriyzodalar usullarning sabab, vataf va fosila asoslarini yaxshi anglaganlar, Mirzo Ulug'bek va sulton Hu-sayn Boyqarolar esa nog'ora zarblarini amaliy bilganlari holda yangi usullarni ham ixtiro qilganlar.

Qolaversa, aruz vaznining o'zbek she'riyatiga muvofiq qariyb barcha o'lclov tizimlarida she'rlar bitgan Zahiriddin Muhammad Boburning boy nazmiy merosi bugungi kunga qadar turfa aytim janrlari (maqom sho'basi, tarona, suvora, ashula va b.)da keng qo'llanib kelinmoqda. Binobarin, hozirgi davr musiqa madaniyatimizda muhim o'rin tutayotgan, jahon tamaddunida esa nufuzi tobora ortib borayotgan salobatli maqom san'atining yuzaga kelishida ulug' ajdodimizning ham hissasi borligini e'tirof etish adolatdandir.

## 2. Bobur va maqom san'ati

Jasur sarkarda, ulug' podshoh va mumtoz shoir Zahiriddin Muhammad Bobur musiqa jabhasida ham noyob iste'dod sohibi edi. Shundayki, taqdir qismati murakkab va suronli ijtimoiy-siyosiy voqealar girdobida kechgan Bobur Mirzo o'zining noyob iste'dod qirralarini she'riyat bilan birga maqom san'atida ham namoyon etishga fursat topgan, aruz va musiqa ilmlariga doir maxsus risolalar bitgan. Bu hol uning advor ilmidan yaxshi xabardor bo'lganini ham anglatadi. Advor ilmi asosidagi O'n ikki maqom amaliyoti esa o'sha davr musiqachilari – bastakorlari, xonanda va sozandalari uchun mumtoz musiqaning asosiy mezoni va yuksak timsoli bo'lgan.

Shu o'rinda Shashmaqomdagagi Mo'g'ulcha sho'balarining yuzaga kelishida Bobur Mirzo ijodiy faoliyati hamda Boburiylar saroy musiqasining aloqadorligi masalasi xususida to'xtalib o'tsak. Taqdir taqozosi bilan Bobur Hindistonda asos solgan buyuk davlat (Buyuk Boburiylar yoki Boburiy Mirzo) hukmdorlari va sulola vakillari yaqin o'tmishga qadar "buyuk mo'g'ullar" nomi bilan yuritilgan. Shashmaqom tarkibidan o'rin olgan "mo'g'ulcha" atamasining kelib chiqishi ham shu sulola musiqa madaniyatiga borib bog'lanadi<sup>113</sup>.

<sup>113</sup> Rajabov I. Maqomlar. – T., San'at, 2006. – 251-b.

Inchunin, Bobur zabit etgan zaminda ona yurt taronalari, shu jumladan, maqom an'analari hukmron sulola saroyida yangi tasnif-utalqinlarda davom ettirilgan edi. Xususan, Ramamatianying "Sangit ratnakar" ("Musiqo-ummon") risolasida (1550-y.) keltirilgan qiyosiy jadvalda Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridan ayrim namunalar o'rin olganligi, shuningdek, Boburiylar davlatida faoliyat ko'rsatgan Muhammad G'iyyosiddin qalamiga mansub "G'iyyos al-lug'at" (XVIII asr) qomusiy asarida maqom sho'balari qatorida "Farg'ona" atamasining qayd etilishi – bu borada muhim dalillardir<sup>114</sup>.

Boburning qadrondon milliy musiqaga bo'Igan e'tiborli munosabati uning nasliy davomchilari – Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon va boshqa Boburiy hukmdorlarga muqaddas ma'naviy meros bo'lib qolgan<sup>115</sup>. Qolaversa, sulola asoschisining "badiiyat, san'at va musiqa bobidagi iqtidori va bilimidan surriyotlari ham benasib emasdi"<sup>116</sup>. Hind musiqasi bo'yicha mutaxassis Achariya Brihaspatining qayd etishicha: "Mo'g'ul podshohlari (Boburiylar) musiqa sohasida shu darajada bilimdon edilarki, "Ratnakar" kabi musiqa haqidagi risola to'g'risida musiqashunos-san'atkorlar bilan fikr va mulohaza yurita boshlashdi"<sup>117</sup>.

Bundan tashqari, mudom ona yurt sog'inchi bilan yashagan Boburning taklifi bilan uning saroyiga Movarounnahrdan taniqli maqomchilar tez-tez tashrif buyurganlarki, shu tariqa movarounnahrlik san'atkorlar ham Hindistonagi saroy musiqasi bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'Iganlar. Bu hol olim-u fuzalo, shoir-u san'atkorlarga homiylik qilgan bag'rikeng Boburiylar davrida ham mudom davom etgan.

Xullas, ana shunday yaqin madaniy aloqalar natijasi o'laroq Buxoro Shashmaqoming ikkinchi guruhi asosiy sho'balaridan bo'Igan Savtlar qatorida Mo'g'ulcha nomli sho'balar ham o'rinni

<sup>114</sup> O'zbekiston miliy ensiklopediyasi. Boburiylar davlati. 1-jild. – T., O'zbekiston, 2000. – 61-b.

<sup>115</sup> Brihaspati Achariy. Musulmonlar va Hindiston yarimoroli musiqasi. – T., 2009. – 35–42-betlar.

<sup>116</sup> Nizomiddinov N.F. Hind mumtoz musiqasi va milliy cholg'ulari. – T., O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi, 2008. – 50-b.

<sup>117</sup> Brihaspati Achariy. Musulmonlar va Hindiston yarimoroli musiqasi. – T., 2009. – 29-b.

olganligi taxmin qilinadi. Bu masalani mubohasa etishda Shashmaqom ikkinchi guruhida kelgan Savt sho'basi va uning musiqa istilohidagi tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Savtlar haqida batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

### 3. Savt va Mo'g'ulchalar xususida

Arab tilidan olingen "savt" atamasi Shashmaqomga qadar musiqa ilmi va amaliyotida turli mazmun kasb etib kelgan. Qomusiy allomalar – Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino yashagan davrlarda u dastlab ohang, musiqani tashkil etuvchi tovush va umuman, baland-pastligi aniq bo'limgan tovushlarni ham anglatib kelgan. Taxminan XV asrdan boshlab u muayyan shakl asosida bastalanuvchi ashula yo'lini ifodalay boshlagan. Jumladan, Darvish Ali Changiyning (XVII asr) musiqaga oid mashhur risolasida shu xildagi Savtlar XV–XVII asrlarda juda ko'plab ijod etilgani ta'kidlab o'tiladi.


Lekin o'tmishdagagi risolalarda "mo'g'ulcha" atamasi haqida deyarli hech qanday ma'lumot uchramaydi. Hatto Boburiylar saroy musiqasiga oid musiqa namunalarida ham bunday atama qo'llanmagani ma'lum. Bu bejiz emas, albatta. Zero, Shashmaqom tarkibida kelgan "mo'g'ulcha" atamasi ham aslida Savt sho'basining bir ko'rinishidir. Ayni vaqtida bu har ikkala sho'ba usullar nisbati va turkumlanish nuqtayi nazaridan o'zaro o'xshash bo'lgani holda, Shashmaqomning birinchi guruhida kelgan Saraxbor, Talqin va Nasr sho'balaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Ma'lumki, birinchi guruh asosiy aytim yo'llari (sho'balari) turkmida doyra usullari "oddiydan – murakkabga" tamoyili asosida tartiblanadi. Bunda Saraxborda yurak urishi yanglig' kelgan ikki hissali ("bak, bum") vazmin doyra usuli falsafiy mushohadalarga chorlashi o'laroq o'zlikni teran anglashga, botiniy tuyg'ular ila yo'g'rilgan ruhiy holatning nafs to'siqlari (parda) ichra bosqichma-bosqich rivojiga "turtki" beruvchi muhim "dalda" bo'lib xizmat qiladi. Shu asnode da quvvatlangan ruhiyat keyingi qism – Talqin usulining "notekis" yo'sindagi murakkab harakatli sinov bosqichlaridan muvaffaqiyatlari o'tishi hamda buning samarasida o'zining cho'qqi (avj) maqomi sari


zafarli yuksalishi (Nasr) va intihoda shodlik tantanasi (Ufar)ga qorishtuvi ko‘zda tutiladi.

Shashmaqomning ikkinchi guruh sho‘balarli qatoridan o‘rin olgan Savt va Mo‘g‘ulcha turkumlarida bu konsepsiya ma’lum qadar o‘zgacha namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. Bunda, eng avvalo, “oddidan murakkabga” tamoyilining aksincha holati ko‘zga tashlanadi. Xususan, Savt sho‘basi besh hissali murakkab usul negizida ifodalanadi.

#### **Doirayi du-yak:**




#### **Jazava:**



#### **Nasr usuli:**




#### **Naqr, naqra:**



ta-nan ta-nan ta - na-nan tan ta - na nan

#### **Savt usuli:**



#### **Talqin usuli:**



Mazkur usul semantikasida, birinchi guruhdagi Saraxborlarda ilgari surilgan falsafiy mushohadalardan farqli o‘laroq, ma’lum qadar harbiycha intizomlashgan mardonavor siymo odimlari his etiladi. Shu asnoda Savt sho‘basi va unga uzviy bog‘lanib kelgan Talqincha, Qashqarcha, Soqiyonna va Ufar nomli shoxobchalarini qamragan besh qismli yaxlit turkum badiiy mazmunida azm-u shijoatli bahodir (sulton) qahramonning zafarli tariq ifodasini anglash mumkin.

Mo‘g‘ulcha nomli sho‘balarda ham Savtda kelgan mardonavor usulning bir ko‘rinishi hozir bo‘ladi. Shuningdek, Mo‘g‘ulchalar ham Talqincha, Qashqarcha, Soqiyonna va Ufar nomli shoxobchalarini bilan Savtlar kabi besh qismli turkum ko‘rinishida hozir bo‘ladi. Bunda faqat ularning kuy-ohanglari o‘zaro farqlidir – ustoz olim Is’hoq Rajabovning e’tiroficha, Savtlar birinchi guruh sho‘balaridan, asosan, Nasrlarga aks sado, ya’ni javob (nazira) tariqasida, Mo‘g‘ulchalar esa ko‘proq Saraxbor sho‘balariga nazira tarzida ishlangan ashula yo’llaridir<sup>118</sup>.

E’tiborlisi shundaki, XIII–XV asrlarda bitilgan musiqa risolalarida Savt doyra usuli tavsif etilmaydi. Chunki bu usul musiqa amaliyotida keyinroq (taxminan XV asr oxiridan e’tiboran) qo’llana boshlagan. Uning yuzaga kelishi esa umrining salmoqli qismi jang-u jadallar bilan o‘tgan jasur sarkarda, dovyurakligi va mardligi bilan “Sher” taxallusini olgan Bobur ijodiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Zotan, “musiqa va o‘zga san’atlarni g‘oyatda nozik idrok etgan” temuriy shahzoda musiqa bobida noyob iste’dodi va nozik ta’bligi bilan ham mashhur edi<sup>119</sup>.

<sup>118</sup> Rajabov I. Maqomlar. – T., San’at, 2006. – 242–252-betlar.

<sup>119</sup> Nizomiddinov N.F. Hind mumtoz musiqa va milliy cholg‘ulari. – T., O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi, 2008. – 50-b.

Demak, qiyosiy tahlillar asosidagi mantiqiy xulosaga ko‘ra, dastlab Aksi saroyi san’atida qaror topgan Savt usuli keyinchalik (yuqorida qayd etilgan voqealar bois) Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari (Bayot, Chorgoh, Dugoh-Husayn va b.) tarkibidan ham muqim o‘rin olgan.

Shashmaqom Savtlari esa Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridagi Savt turkumlariga ham nazira sifatida yuzaga kelganligi ehtimoldan xoli emas. Bunga dalil sifatida quyidagilarni qayd etish o‘rinni ko‘rinadi:

- a) Shashmaqom Savtlari birin-ketin ijro etiluvchi shoxobchalari bilan birga ko‘proq Farg‘ona-Toshkent maqom ashula yo‘llari (Bayot, Chorgoh, Gulyor-Shahnoz kabi)ga xos besh qismli turkumni tashkil etadi;
- b) Shashmaqomdagи har biri alohida-alohida besh qismli Savt va Mo‘g‘ulcha sho‘balari pirovardida o‘zaro bog‘lanib yirik turkumni hosil etmaydi, balki Farg‘ona-Toshkent maqom ashula yo‘llari singari “tarqoqlik” xususiyatlarini o‘ziga xos in‘ikos etadi;
- d) Savt va Mo‘g‘ulcha turkumlarida ko‘proq vodiy yallachiligiga xos raqsbop ohang-usullar ifori taralib turadi. Jumladan, negizi uyg‘urcha bo‘lgan Qashqarcha nomli o‘ynoqi usul va shunga monand ohanglar dastlab yallachi ayol san’atkorlar ijodida qo‘llangani ma’lum. Bu bejiz emas, albatta. “Chunki Andijonda istiqomat qilayotgan ko‘p sonli (vodiying boshqa viloyatlariga nisbatan) uyg‘ur aholisining milliy qo‘shiqlari bu hududlarda ma’lum va mashhurdir”<sup>120</sup>.

Bu kabi jozibali ohang-usullar Bobur va Boburiylar saroyi yallachilari ijomchiligidagi bastakorlik ijodiyotiga ko‘rsatgan samarali ta’siri natijasida maqom turkumlarida ham in‘ikos eta boshlagan. Shu o‘rinda Boburning o‘g‘li Humoyun tug‘ilishi sharafiga o‘tkazilgan to‘y manzarasi tasvirlangan miniatyuraga e’tibor qarataylik. Bunda saroy musiqachilarining ishtiroti uch ko‘rinishli o‘zgacha montaj uslubini eslatadi: birinchi darajani Bobur Mirzoga yaqin masofada turib ud chalayotgan musiqachi tashkil etadi. Bu esa saroyda maqom san’ati alohida nufuzda bo‘lganini anglatadi. Chunki “sozlar sulton” ud – O‘n ikki maqom timsolidir. Keyingi o‘rinni raqs tushayotgan

va doyralarda sho‘x usullar chalayotgan yallachi ayol san’atkorlar egallaydi. Miniaturaning quyi qismida aks etgan qilich bilan raqs tushayotgan erkak va surnay-nog‘oralarda chalayotgan ansambl esa o‘sha davrda keng urf bo‘lgan mardonavor harbiy raqsni timsollaydi. “Boburnoma”da bunday raqqoslar “ajab usul sohiblari” qatorida tavsif etiladi. Bu kabi saroy musiqa an’analari Savtlarda bir tartibda intizomlashgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Qolaversa, Bobur Mirzoning o‘zi ham maqom savtida bastakorlik qilgan: “Mullo Yorak panjgohda muxammas davrida bog‘lag‘on naqshini o‘tkardi. Yaxshi naqsh bog‘labtur. Necha mahal edi, mundoq nimalarg‘a mashg‘ulluq qilmaydur edim. Bu taqrib ila “Chorgoh” savtini bog‘ladim. Neschukim, mahallida mazkur bo‘lg‘usidir”<sup>121</sup>.

<sup>120</sup> Turg‘unova N. Farg‘ona vodiysi yallachilik an’analari. – Namangan, 2016. – 83-b.

<sup>121</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T., Fan, 2019. – 271-b.



**Boburning o'g'li Humoyun sharafiga  
Kobulda o'tkazilgan to'y<sup>122</sup>.**

<sup>122</sup> Hamid Sulaymon. Boburnoma rasmlari. – T., Fan, 1970. № 45.

Xullas, Shashmaqom Savt va Mo'g'ulcha turkumlarida Farg'ona-Toshkent mahalliy musiqa uslubiga xos sifatlar badiiy in'ikos etganligi shubhasizdir. Endi maqomlardagi "mo'g'ulcha" atamasi yuzaga kelishidagi asosiy iddaoga o'tsak. Tarixdan ma'lumki, XIX asr o'rtalariga kelib Boburiylar sulolasini tarix sahnasida o'z faoliyatini tugatgan edi. Shu sabab saroy maqomchilari ona yurtlariga qaytib, shu hududlarda o'z faoliyatlarini davom ettirgan va, jumladan, Shashmaqom ikkinchi guruh sho'balari shakllanishiga o'z hissalarini qo'shgan bo'lishlari haqiqatga yaqindir.

Zero, Savt va Mo'g'ulchalarning Buxoro Shashmaqomi tarkibidan o'rin olgan payti ham shu tarixiy davrga to'g'ri keladi. Demak, taxminga ko'ra, Mo'g'ulcha deganda Savtning, aniqrog'i, uning "mo'g'ullar" deb atalib kelingan, aslida esa Boburiylar orasida joriy etilgan ma'lum qadar farqli shakl-u shamoyili nazarda tutilgan. Shunga ko'ra, Buxoro Shashmaqomida shartli qo'llangan bu atamadagi "cha" qo'shimchasi Savtni mo'g'ulcha yo'sinida ijro etish degan ma'noni anglatib keladi.

Maqomlar bilan bog'liq yuqorida muxtasar qayd etilgan masalalarga yanada oydinlik kiritish borasida Bobur Mirzo va Boburiylar madaniy hayoti bilan bog'liq ilmiy merosini maxsus tadqiqotlar asosida atroflicha o'rganish – musiqashunoslik va manbashunoslik fan sohalari oldida turgan muhim ilmiy vazifalardan biridir.

#### Savol va topshiriqlar:

1. Zahiriddin Muhammad Boburning maqom yo'lida ijod etgan va "Boburnoma" qayd etgan asari qanday nomlanadi?
2. Muhammad G'iyosiddinining "G'iyos ul-lug'at" (XVIII asr) qomusiy asarida ilk bor qayd etilgan maqom sho'basining nomi nima?
3. Sharq olamida, qadimiy davrlardan kelayotgan qarashlarga ko'ra, qaysi sayyora (planeta) osmon sozandasasi va san'at homiysi hisoblangan?
4. Aruz ilmiga doir maxsus risola yozgan temuriy hukmdor, jasur sarkarda, ulug' shoir va noyob musiqiy iste'dod sohibini aytинг.
5. Mo'g'ulcha sho'basi xususida ma'lumot bering.

## **Adabiyotlar**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T., Fan, 2019. – 447-b.
2. Brihaspati Achari Y. Musulmonlar va Hindiston yarimoroli musiqasi. – T., 2009. – 79-b.
3. Nizomiddinov N.F. Hind mumtoz musiqasi va milliy cholg‘ulari. – T., O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi, 2008. – 150-b.
4. Rajabov I. Maqomlar. – T., San’at, 2006. – 403-b.
5. Rasulova T.S. Djelal-ad-Din Muxammad Akbar. – T., Musiqa, 2013. – 351-b.
6. Turg‘unova N. Farg‘ona vodiysi yallachilik an’analari. – Namangan, 2016. – 363-b.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Boburiylar davlati. 1-jild. – T., O‘zbekiston, 2000.

## **8-MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MUSIQA MADANIYATINING TARIXIY AHAMIYATI**

### **Reja:**

1. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyatining o‘zbek musiqasi rivojidagi o‘rni.
2. Temuriylar Renessansining olamshumul ahamiyati.

### **1. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyatining o‘zbek musiqasi rivojidagi o‘rni**

Sohibqiron Amir Temur va uning vorislari bo‘lgan Temuriylar davri samo’si, eng avvalo, musiqaning ijtimoiy-madaniy ahmiyati yuksalganligi, xalq va kasbiy ijodiyot qatlamlari rivojlanganligi, aytim janrlari ortganligi, cholg‘ular bisyorligi va ularda ijrochilikning xilma-xil shakllari yuzaga kelganligi kabilar bilan jahon musiqa tarixida alohida nufuzli o‘rinda turadi. Shuningdek, san’at ahliga mehr-muruvvat ko‘rsatishda ulug‘ Sohibqironga ergashgan Temuriy hukmdorlarning madaniy siyosatlari o‘laroq san’at turlari ravnaq topdi, jahon madaniyatida o‘chmas iz qoldirgan ko‘plab musiqa ustozlari va musiqashunos olimlar yetishib chiqdi, musiqaning ijtimoiy-madaniy ahmiyati beqiyos yuksaldi.

Bu hol o‘zbek musiqa san’atining keyingi asrlardagi tadrijida ijobjiy natijalar omili bo‘ldi. Xususan, bizgacha beباho ma’naviy meros yetib kelgan Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari yuzaga kelishida ilk bor ulug‘ Sohibqiron saroyida shakllanib, so‘ngra Temuriylar davrida ravnaq topgan O‘n ikki maqom tizimi poydevor yanglig‘ muhim zamin bo‘ldi.

Amir Sohibqiron davrida asos solingan yana bir an’ana – “olaming turli tarafidan yig‘ilgan tillari va kiyimlari bir-birlaridan farqli har qaysi mamlakat sozandalari, har bir iqlimning san’at ahllari” o‘z rasmi bilan kuy va aytim ijro etish udumlari (“Zafarnoma”) 1997-yildan

buyon Samarqand shahrida muntazam o‘tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali mazmunida o‘ziga xos zamonaviy ko‘rinish kasb etib kelmoqda.

Musiqi yeros barbarida o‘tmish ilmiy risolalariga bo‘lgan ijtimoiy-ma’naviy ehtiyoj ham bugungi kunda tobora ortgan. Jumladan, XIII–XIV asr musiqa ustozlari – Safiyuddin Urmaviy, Qutbiddin Sheroziy va Abdulqodir Marog‘iy larning bizgacha yetib kelgan ilmiy asarlari maqomlar tarixi, nazariyasi va poydevor ilmiy-amalini asoslarini o‘rganishda benihoya qimmatli manbalar qatorida alohida qadrlidir.

Bugungi kunda bir qator mamlakatlar (O‘zbekiston, Turkiya, Eron, Fransiya, Angliya va b.)ning nufuzli kutubxonalarida saqlanayotgan bu allomalarning ilmiy yeros qo‘lyozmalarini mudom mutaxassislarning diqqat markazida. Xususan, Urmaviyning O‘zR FA Abu Rayon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Kitab ul-advar” risolasini Abdumannon Nazarov arabchadan o‘zbek va rus tillariga ilmiy sharhlar bilan tarjima qilgan, Sheroziyning shu zaxiradagi “Durrat ut-toj...” qo‘lyozmasi asosida Iroda Dadajonova “Qutbiddin Sheroziyning musiqliy ta’limoti” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini bajargan.

Marog‘iyning ilmiy asarlarini o‘rganish borasida esa ozarbayjonlik Surayyo Agayevaning “Abdulqodir Marog‘iy va uning musiqliy-nazariy yerosi” hamda o‘zbekistonlik olim Nafas Shodmonning “Xoja Abdulqodir Marog‘iy” nomli yirik tadqiqotlari e’tiborli bo‘ldi. Shuningdek, 1997-yili Abdurahmon Jomiyning “Risolayi musiqliy”si o‘zbek tilida nashr yuzini ko‘rdi (Abdurahmon Jomiy. Risolayi musiqliy. Fors tilidan Nafas Shodmon tarjimas, O‘zR FA akademigi Alibek Rustamiy tahriri ostida. – T., 1997).

2019-yili ushbu risola taniqli maqomshunos olim Asliddin Nizomiyning sa'y-harakati bilan Tojikistonda chop etildi (Nizomiy Asliddin. Abdurrahmoni Jomiy va ilmi musiqliy. – Dushanbe, 2019). Ushbu nashrda “Risolayi musiqliy”ning Toshkent (O‘zR FA SHI)da saqlanayotgan noyob qo‘lyozma fotonusxasi hamda alloma shoirning g‘azaliyot va dostonlaridan musiqa oidi qimmatli namunalar kelti-

rilgan. Ayni vaqtida shu kabi ilmiy izlanishlarni yanada davom ettirish ham ayonki, zero, hozirgi davr ijtimoiy talab-ehtiyojlari shuni taqozo etmoqda.

Bizgacha bebaaho yeros yetib kelgan tarixiy, ilmiy, badiiy va boshqa qo‘lyozmalar qatorida kitobiy mo‘jaz tasvirlar ham Amir Sohibqiron va Temuriylar davri musiqa san‘atining serjabha ravnaqidan darak beradi. Bu o‘rinda mo‘jaz tasviriy san‘at dahosi, Hirot miniyatURA maktabi dovrug‘ini jahonga yoygan musavvir Kamoliddin Behzod, ustoz Mirak Naqqosh, izdoshlari Qosim Ali, Do‘st Muhammad, Mahmud Muzahhib asarlari qimmatli manba ekanligini alohida ta’kidlash kerak. Xususan, Hirot, Buxoro va Samarqand miniyatURA maktablarining asarlari o‘scha davrlarda keng qo‘llangan musiqliy cholq‘ular, ularning xilma-xil hozir bo‘lishi, ansambl ijrochiligining turli shakllari, qolaversa, muayyan musiqa janrlari haqida ham ma’lum tasavvur beradi. Binobarin, miniyatURA san‘ati Amir Temur va Temuriylar davri musiqlasini o‘rganishda qimmatli badiiy hujjatdir.

## 2. Temuriylar Renessansining olamshumul ahamiyati

Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati jahon tarixida yuqori baholanadi. Zero, Amir Temur G‘arb va Sharqni bog‘lovchi xalqaro “Buyuk ipak yo‘li”ni qayta tikladi, Movarounnahrning shon-shuhratini dunyoga tanitdi, ilm-u fan, hunarmandchilik, me’morchilik, san‘at va madaniyatni mislsiz darajada rivojlantirdi va shu asnoda Temuriylar Renessansi jahon xalqlari sivilizatsiyasiga ham ulkan hissa qo‘shdi.

Shu boisdan bejiz emaski, Amir Temur siymosi va Temuriylar davri madaniyati G‘arb olaming ko‘pgina olimlari, tarixchilar, adib va dramaturglari diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etgan. Bular orasida L.Langle, K.Marlow, I. Gyote, Ed. Po, Volter, G.Vamberi, X.Xukxem, L. Keren kabi mashhur ijodkorlarning nomlarini uchratamiz. Jumladan, ingliz dramaturglari – Kristofer Marloning “Buyuk Temur” (1590), Charlz Sandersning “Ulug‘ Temur” (1681), fransuz yozuvchisi Jan Magnonning “Ulug‘ Temur yoxud Boyazidning o‘limi” (1675) tragediyalari ko‘p bora sahnalashtirilgan.

G'arbiy yevropa kompozitorlaridan A.Skarlatti, Gasparini, L.Leo, G.Telemann, F.Gendel, N.Porpora, J.Porta, A.Vivaldi va boshqa ijodkorlar Amir Temur siyemosini sahnaviy musiqa asarlarida turlicha badiiy talqin etganlar. Shulardan atoqli olmon kompozitori G.F. Gendelning "Buyuk Temur" operasi (1724) hozirga qadar ma'lum va mashhurdir.

Ayni vaqtida jahoning turli ilmiy markazlarida Amir Temur va Temuriylar davrini o'rganish bo'yicha muntazam tadqiqotlar ham olib borilmoqda. Bu borada fransuz olimlari peshqadamlik qiladilar. Ularni ayniqsa o'sha davrning san'ati va me'morchiligi katta qiziqish uyg'otadiki, shu bois bu mavzularda Parijda muntazam ravishda ilmiy anjuman va ko'rgazmalar o'tkaziladi.

1987-yil 22-martda Parijda "Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish va fransuz-o'zbek madaniy hamkorligi" uyushmasi tuzilgan. Uyushma Amir Temur va Temuriylar davri tarixi va madaniyatini targ'ib qilish borasida dunyoda birinchi tuzilgan tashkilotdir. Uning asosiy maqsadi Amir Temur va Temuriylar madaniyati, san'ati, shuningdek, Buyuk ipak yo'lining muhim qismi, Sharq va G'arb madaniyatlarining chorrahasi bo'lmish Markaziy Osiyo tarixi va uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasi bilan keng fransuz ommasini tanishtirishdan iborat.

Buning yaqqol dalili sifatida ular Samarqand-u Shahrisabz, Buxoro-yu Hirot, Balx-u Shimoliy Hindistondagi tengsiz Sharq me'morchilik durdonalarini misol qilib ko'rsatadilar. Shu maqsadda uyushma turli temurxonlik kechalari, ilmiy anjumanlar, ko'rgazmalar o'tkazib turadi. Temuriylarning haqiqiy ixlosmandi bo'lmish uyushma a'zolari fransuzlarni mashhur tarixiy "Samarqand yo'li" dan borishga, Amir Temur sultanati poytaxti moviy gumbazlariga mahliyo bo'lishga, Sharq uyg'onish davri madaniyati va san'atidan zavqlanishga chorlaydi.

Shuni ham qayd etish kerakki, fransuz temurshunoslari yaratgan asarlar qatorida professor Lyusyen Kerenning kitob va maqolalari alohida o'rinn tutadi. Olim Sohibqiron haqida ulkan arxiv, tarixiy, ashayoviy va hayotiy ma'lumotlar to'plagan. Ana shu manba va asarlar-

ni muqoyosa qilib, taqqoslab, ulardan har birining tarixiy dalillar nuqtayi nazaridan ishonchli va xolis ekaniga baho bergen. Uning eng asosiy kitoblaridan biri "Temur yoxud Sohibqiron sultanati" ilk bor 1978-yilda bosilib chiqqan. Uning yirik asarlaridan yana biri "Temur davrida Samarqand yo'li" (Parij, 1990) kitobi YUNESKOning "Ipak yo'li – muloqotlar yo'li" dasturi doirasida tayyorlangan.

Lyusyen Keren "Amir Temur" nomli ikki qism, olti pardali pyesa ham yaratgan. Qariyb o'ttiz besh yil davomida Amir Temur to'g'risida olib borgan tadqiqotlari xulosasi sifatida shunday deb yozadi: "Bir tomonda qattiqqo'l Temur tursa, ikkinchi tomonda ilm ahlini qutlab, himoyasiga oladigan Temur turadi; bir tomonda butun-butun shaharlarni zabt qiluvchi Temur bo'lsa, ikkinchi tomonda obidalar, madrasalar, anhorlar qurdiruvchi va bog'lar barpo ettiruvchi Temur turadi".

Ma'lumki, 1996-yil O'zbekistonda "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi. Shu sana munosabati bilan YUNESKO qarorgohida ulug' bobomizning 660 yillik tavalludi keng nishonlandi. Ayni paytda Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida ulug'vor Temur haykallari qad rostladi, Toshkent shahrida "Temuriylar tarixi davlat muzeyi" ochildi.

Amir Temur shaxsi va uning serqirra bunyodkorlik faoliyatiga bo'lgan yuksak ijtimoiy qiziqish va ehtirom kundan kun ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmonida, buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o'rnat bo'lib xizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga "Temurbeklar maktabi" nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MUSIQA MADANIYATI FANIDAN TEST

### 1. Zarb usullari jang maydonida qanday vazifani bajargan?

- a) g‘alabani anglatgan
- b) mag‘lubiyatni anglatgan
- c) \*jang paytida axborot uzatish vositasi sifatida xizmat qilgan
- d) barcha javoblar to‘g‘ri

### 2. Amir Temur mashhur musiqachi va olim Abdulqodir Marog‘iyini qaysi mamlakatdan Samarqand saroyiga olib kelgan edi?

- a) Iroqdan
- b) Erondan
- c) \*Bag‘doddan
- d) To‘g‘ri javob yo‘q

### 3. Abduqodir Marog‘iy O‘n ikki maqom tizimini rivojlantirishda kimning musiqiy ta‘limotiga tayangan?

- a) Forobiy
- b) Abdurahmon Jomiy
- c) \*Safiyuddin Urmaviy
- d) Abu Abdulloh Xorazmiy

### 4. Sohibqiron Amir Temur jang maydonlarida qaysi cholg‘u guruhlaridan keng foydalangan?

- a) zarbli-urma, torli-kamonli
- b) torli-chertma, damli-puflama
- c) \* zarbli-urma, damli-puflama
- d) barcha javoblar to‘g‘ri

### 5. Temuriylar olqishiga sazovor bo‘lgan qaysi raqqoslarni Z.M. Bobur o‘zining “Voqeanoma” (“Boburnoma”)sida “ajab sohibusul kishi”lari qatorida tilga oladi?

- a) \*Sayid Badr, Yusuf Ali
- b) Yusuf Ali, Tohir chakka
- c) Mohchuchuk, Yusuf Ali
- d) Sayid Badr, Tohir chakka

### 6. Alisher Navoiyning iltimosiga binoan Abdurahmon Jomiy tomonidan yozilgan musiqaga oid ilmiy asarning nomi nima?

- a) Voqeanoma
- b) \*Risolayi musiqiy
- c) Amali Tarona
- d) Musiqa

### 7. O‘n ikki maqomni nazariy mubohasa qilishda qaysi cholg‘uning pardalar tizimiga tayanilgan?

- a) chang
- b) doyra
- c) \*ud
- d) tanbur

### 8. Dastlab Amir Temur saroyida, keyinchalik esa Mironshoh, Shohrux Mirzo, Xalil Sulton kabi Temuriy hukmdorlar saroyida xizmat qilgan benazir musiqachisi va musiqashunos olim kim?

- a) \*Abdulqodir Marog‘iy
- b) Safiyuddin Urmaviy
- c) Abdurahmon Jomiy
- d) Ustod Qulmuhammad Udiy

### 9. Dovul (duhul) qanday cholg‘u?

- a) \*Zarbli urma
- b) Torli chertma
- c) Torli kamonli
- d) Damli puflama

### 10. “Badoye’ ul-vaqoye” (“Nodir voqealar”) adabiy-tarixiy asarining muallifi kim?

- a) Nizomiddin Shomiy
- b) Alisher Navoiy
- c) \*Zayniddin Vosify
- d) Zahiriddin Muhammad Bobur

**11. “Maqosid ul-alhon” (“Kuylarning o‘rnii”) nomli musiqaga oid ilmiy asarning muallifi kim?**

- a) Safiyuddin Urmaviy
- b) \*Abdulqodir Marog‘iy
- d) Xoja Abdulloh Lariy
- e) Husayn Boyqaro

**12. Naqqoraxona boshlig‘i qanday nomaladi?**

- a) \* mehtar
- b) nog‘orachi
- d) qo‘mondon
- e) saqlxon

**13. “Jami’ ul-alhon” (“Kuylar to‘plami”) nomli musiqaga oid ilmiy asarning muallifini ko‘rsating.**

- a) \*Abdulqodir Marog‘iy
- b) Abdurahmon Jomiy
- d) Hofiz Basir
- e) Qosimali Qonuniy

**14. “Qonuni ilmi va amaliyi musiqiy” (“Musiqaning ilmiy va amaliy qonunlari”) asarining muallifi kim?**

- a) Abdulqodir Marog‘iy
- b) Abdurahmon Jomiy
- d) \*Zaynulobiddin Husayniy
- e) Mavlono Ali Shoh

**15. Alisher Navoiy musiqa fanida kimning shogirdi bo‘lgan?**

- a) \*Xoja Yusuf Burhon
- b) Abdurahmon Jomiy
- d) Zaynulobiddin Husayniy
- e) Mavlono Ali Shoh

**16. Alisher Navoiyning bastakorlik sohasida yaxshi naqsh va pesh-ravlar ijod qilgani haqida ma’lumot keltirilgan yozma manbaning nomini ko‘rsating.**

- a) \*Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”
- b) Zayniddin Vosify. “Badoye’ ul-vaqoye”.

d) Abdurahmon Jomiy. “Risolayi musiqiy”.

e) Zaynulobiddin Husayniy. “Qonuni ilmiy va amaliyi musiqiy”.

**17. “Temurnoma” tarixiy asarining muallifi kim?**

- a) Sharafiddin Ali Yazdiy
- b) Ruy Gonsales de Klavixo
- d) Ibn Arabshoh
- e) \*Salohiddin Toshkandiy

**18. Qaysi hukmdor tarixda jang maydonida g‘olib chiqqan amirni tug‘ va nog‘ora bilan taqdirlash odatini birinchi bo‘lib harbiy udumga kiritган?**

- a) \*Amir Temur
- b) Sulton Xalil
- d) Mirzo Ulug‘bek
- e) Husayn Boyqaro

**19. “Amir Temur tarixi. (Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur – Temur tarixida taqdir ajoyibotlari)” asarini kim yozgan?**

- a) Ruy Gonsales de Klavixo
- b) \*Ibn Arabshoh
- d) Mirxond
- e) Xondamir

**20. “Amir Temur tarixi. (Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur – Temur tarixida taqdir ajoyibotlari)” asarini kim yozgan?**

- a) Ruy Gonsales de Klavixo
- b) \*Ibn Arabshoh
- d) Mirxond
- e) Xondamir

**21. 1370-yilning bahorida katta sinovli jang arafasida turgan 34 yoshlik Amir Temurga kim tomonidan nog‘ora bilan bayroq tortiq qilingan?**

- a) Shayx Shamsuddin al-Fohuriy
- b) Shayx Zaynuddin al-Xavofiy
- d) \*Mir Sayyid Baraka
- e) Nizomiddin Shomiy

**22. Qaysi hukmdor davrida turli mamlakatlardan yig‘ilgan “xush-nag‘ma sozandalar va xushovoz xonandalar fors tariqasida, ajam tarbibida, arab qoidasida, turk yo‘sinda, mo‘g‘ul ayolg‘usida, xitoy rusumida, oltoy uslubida soz chalmoq, ashula aytmox va ohang bog‘lamoq ilo mashg‘ul” bo‘lishlari odat tusini olgan?**

- a) \*Amir Temur
- b) Sulton Xalil
- c) Mironshoh
- d) Shohruux Mirzo

**23. Ov jarayonida cholg‘ularning asosan qaysi turlari keng qo‘llangan?**

- a) torli-chertma, damli-puflama
- b) \*zarbli-urma, damli-puflama
- c) damli-puflama, torli-kamonli
- d) torli-chertma, torli-kamonli

**24. Bug‘ (burg‘u) qaysi cholg‘u turiga mansub?**

- a) torli-chertma
- b) \*damli-puflama
- c) torli-kamonli
- d) torli-urma

**25. Qaysi bandda zarbli-urma cholg‘ular guruhi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) \*doyra, dapp, nog‘ora, dovul, qayroq, zang, kovarka
- b) nog‘ora, kovarka, dovul, qayroq, zang, shon, doyra
- c) nog‘ora, dovul, qayroq, zang, kovarka, nafir, dovul
- d) dovul, qayroq, zang, shon, doyra, musiqor, doyra

**26. Qaysi bandda torli cholg‘ular guruhi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) g‘ijjak, sitor, tanbur, qonun, jaras, nafir, bug‘
- b) rubob, ud, tanbur, qonun, g‘ijjak, sitor, jaras
- c) \*tanbur, qonun, g‘ijjak, sitor, chang, rubob, ud
- d) g‘ijjak, sitor, tanbur, qonun, bug‘, chang, rubob

**27. Damli-puflama cholg‘ular guruhi qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) \*surnay, karnay, nafir, bug‘, nay, chabchig‘
- b) surnay, karnay, sitor, bug‘, nay, chabchig‘
- c) surnay, karnay, nafir, sitor, bug‘, nay
- d) surnay, karnay, nafir, sitor, bug‘, nay
- e) hamma bandlarda to‘g‘ri ko‘rsatilgan

**28. “Zarb ul-jadid” deb nomlangan usulning ijodkori kim?**

- a) \*Abdulqodir Marog‘iy
- b) Xoja Abdullo Marvariy
- c) Mirzo Ulug‘bek
- d) Husayn Boyqaro

**29. Mo‘jaz tasviriy (miniatyura) san’atini yuksaltirgan, Hirot miniatyura maktabi dovrug‘ini jahonga yoygan musavvirning nomi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) \*Kamoliddin Behzod
- b) Mirak Naqqosh
- c) Qosim Ali
- d) Do’st Muhammad

**30. Nechanchi yil O‘zbekistonda “Amir Temur yili” deb e’lon qilindi va shu sana munosabati bilan YUNESKO qarorgohida ulug‘ bobomizning 660 yillik tavalludi keng nishonlandi?**

- a) \*1996
- b) 1995
- c) 1994
- d) 1997

**31. Nechanchi yil Parijda “Temuriylar davri tarixi va san’atini o‘rganish va fransuz-o‘zbek madaniy hamkorligi” uyushmasi tuzilgan?**

- a) 1991
- b) \*1987
- c) 1990
- d) 1995

**32. Kitoblarga ishlangan mo‘jaz tasvir (miniatyura)lar asosida mu-siqaga oid nimalar haqida ma'lum tasavvur hosil qilish mumkin?**

- a) \*cholg‘ular, ansambl turlari, musiqa janrlari
- b) musiqiy folklor, cholg‘ular va ularning guruhlari
- c) doston musiqasi, cholg‘ular, ijrochilik uslublari
- d) cholg‘ular, alla, qo‘sish, ashula

**33. Zahiriddin Muhammad Boburning maqom yo‘lida ijod etgan va “Boburnoma”da qayd etilgan asari qanday nomlanadi?**

- a) Panjgoh Muxammasi
- b) \*Chorgoh Savti
- c) Segoh Savti
- d) Dugoh Mo‘g‘ulchasi

**34. Muhammad G‘iyosiddinning “G‘iyos ul-lug‘at” (XVIII asr) qomusiy asarida ilk bor qayd etilgan maqom sho‘basining nomi?**

- a) \*Farg‘ona
- b) Buxoro
- c) Toshkent
- d) Andijon

**35. Alisher Navoiyning “Sab’ayi sayyor” dostonida maqomlarning qaysi turi botiniy mavjudligi faraz qilinadi?**

- a) \*Yetti maqom
- b) O‘n ikki maqom
- c) Shashmaqom
- d) Xorazm maqomlari

**36. Abdurahmon Jomiy ijodiga mansub musiqa asarining nomi qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) Savti Kalon
- b) \*Naqshi Mulla
- c) Amaloti Rost
- d) Peshravi Dugoh

**37. Sharq olamida, qadimiy davrlardan kelayotgan qarashlarga ko‘ra, qaysi sayyora (planeta) osmon sozandasasi va san’at homiysi hisoblangan?**

- a) Mirrix (Mars)
- b) Atorud (Merkuriy)
- c) Mushtariy (Yupiter)
- d) \*Zuhra (Venera)

**38. O‘rtalarda “sozlar sulton” nomini olgan cholg‘u nomi qaysi?**

- a) rubob
- b) chang
- c) \*ud
- d) doyra

**39. O‘rtalarda “sozlar kelinchagi” nomini olgan cholg‘u nomini ko‘rsating.**

- a) tanbur
- b) \*chang
- c) ud
- d) nay

**40. Safiyuddin Urmaviyning 12 maqom tizimiga doir ilmiy risolasi qanday nomlanadi?**

- a) “Qonun”
- b) “Kitab-ul musiqa al-kabir”
- c) \*\*“Kitab ul-advor”
- d) “Risolayi musiqiy”

## GLOSSARIY

*Abjad* – arab alifbosida harflarning son qiymatlarini ko'rsatuvchi sakkizta to'qima so'zlar nomi, abjad ularning birinchisi bo'lib, uning bu tartibi harflarning birdan minggacha bo'lgan son qiymatini ko'rsatadi: abjad, havvaz, xuttiy kabi.

*Avj* – cho'qqi; O'n ikki maqom tizimida ma'lum sho'ba nomi; kuy va ashulaning yuqori cho'qqisi.

*Advor* – ritm va musiqa doiralari. O'tmishda ritm usullari va lad pog'onalarini doira shaklidagi chiziqla joylashtirilishining ifodasi.

*Alhon* – "Lahn" so'zining ko'pligi; musiqa asarlarining ifodasi – kuy, ashula va boshqalar.

*Amal* – ijod etilgan asar; ma'lum tartibda yaratilgan kuy turlaridan birining nomi.

*Ashiyron* – O'n ikki maqom tizimidagi sho'ba nomi, o'n pog'onali tovushqator.

*Bayot* – O'rta Osiyoda yashagan turk qabilalaridan biri, ma'lum maqom sho'basining nomi. Toshkent, Farg'onada mashhur bo'lgan maqom yo'llaridan biri.

*Bam* – Ud va boshqa torli musiqa cholg'ularining eng yo'g'on va eng past tovush beradigan torining nomi, hozirgi musiqa nazarayasida – Bas.

*Bastayi Nigor* – Nigor ismli kishi bog'lagan "basta"; O'n ikki maqom tizimida ma'lum sho'ba nomi.

*Bastakor* – kuy ijod qiluvchi, kuyga yangi she'r bog'lovchi; oddiy kuy yoki ashulaga boshqa kuy jumlalarini bog'lovchi.

*Baqiya* – qoldiq; 90 sentli kichik yarim ton.

*Binsir* – uning o'rta va chimchiloq orasidagi to'rtinchi barmoq bilan bosiladigan pardasi.

*Burj* – eski astrologiya fanida o'n ikki oyning har biri o'z xarakteriga bog'liq holda yilning o'n ikki burji sanalgan. 12 maqomning har biri ma'lum burjga bog'liq holda tushuntirilgan.

*Bo'd* – ikki musiqa tovushi va uning oralig'i, interval.

*Duvozdahmaqom* – O'n ikki maqom; O'n ikki turli pardadan boshlanib, ularning lad tovushqatoriga mos keladigan kuy va ashulalar majmuasi.

*Hijoziy* – musulmonlarning muqaddas shaharlari o'rnashgan pasttekislik; O'n ikki maqom tizimidagi ma'lum maqom. O'rta Osiyoda Segoh iborasi bilan mashhur.

*Hinsir* – chimchiloq, shu barmoq bilan bosiladigan ud pardasining nomi.

*Hodd* – eng baland, ud sozining eng baland tovush beradigan, yo'g'on tordan hisoblangandan beshinchi torning nomi.

*Humoyun* – baxtli, shohona; maqom tizimida ma'lum sho'ba nomi.

*Javziy* – egizaklar; Sharq taqvimida ma'lum oyning ismiga nisbat berilgan O'n ikki maqom sho'balaridan biri.

*Jam'* – turli diapazondagi tovushqator; maqomlar ham ja'mlar jumlasiga kiradi.

*Jins* – lad tovushqatorini, uning pastki va yuqorigi qismini tashkil etuvchi tarkibiy qismlari, to'rt-besh pog'onali tovushqatorlar turi – tetraxord va pentaxord.

*Ilmi advor* – o'tmishda ritm va musiqa doiralari haqida bahs etuvchi fan.

*Ilmi musiqiy* – musiqiy ilmi, musiqa asarlari haqidagi fan. O'rta asarlarda matematika fanlarining biri sanalib, unda musiqa nazariyasini bahs etilgan.

*Iraq* – shu mamlakatga nisbatan berilgan Duvozdahmaqom va Shashmaqom tizimlariga kiruvchi ma'lum maqom nomi.

*Isfahon* – Eronning mashhur shaharlaridan biri, Duvozdahmaqom tizimida maqom nomi.

*Isfahonak va Ruyi Iraq* – O'n ikki maqom tizimiga kirgan ma'lum sho'ba nomi.

*Iqa' (iyqo')*. – 1. Musiqa tovushlari va umuman musiqa asarlaring ijro etish uslubi (bunda mashq qilish ko'zda tutiladi); 2. Ritm o'lchovi; musiqa asarlari va she'rlardagi vaznlar tizimi; shunday vaznlarni o'rganuvchi maxsus ilm.

*Kor* – ijodiy ish; o'tmishda arab tilida yozilgan she'rlar bilan hafif doyra usulida ijro etilgan ashula bo'lib, uning boshida cholg'u muqaddimasi bo'ladi.

*Maqom* – istiqomat o'rni, parda; turli kuy va ashulalarning musiqa cholg'ularida boshlanadigan pardasi; muayyan lad tovushqatori va unga mos keladigan musiqa asarlari majmuasi.

*Mezrob* – sozlarni chertib chaladigan maxsus moslama: noxun, zahma kabilar.

*Mohur* – g'amgin kuy; O'n ikki maqom tizimida ma'lum sho'ba nomi.

*Mubarqa'* – pardaga o'ralgan; O'n ikki maqom tizimida ma'lum sho'ba nomi

*Musiqiy* – musiqa; yunoncha kuy va ashulalarning ifodasi, arabcha – alhon (Qarang: *Alhon*).

*Mustahall* – ashuladan oldin chalinadigan cholg'u muqaddimasi.

*Mutlaq* – ud ochiq pardasining nomi.

*Muxayyar* – tanlab olingan; O'n ikki maqom sho'balaridan biri va Shashmaqomdagi Iroq maqomining sho'basi.

*Muxammas* – beshli; doyra usuli va shu usulda ijro etiladigan maqomlar cholg'u qismlari ifodasi.

*Mo'g'ulcha* – Shashmaqom ashula bo'limining ikkinchi guruhiga kiradigan Savtlar turidagi sho'balar nomi.

*Navo* (ohang, kuy) – O'n ikki maqom va Shashmaqom tizimida ma'lum maqom nomi.

*Navro'zi Ajam* – O'n ikki maqom tizimida ma'lum sho'ba nomi; Shashmaqomda Segohning Nasr sho'basi (Qarang: *Nasr*).

*Navro'zi Arab* – Arab Navro'zi. O'n ikki maqom tizimida arablariga nisbatan berilgan sho'ba nomi.

*Navro'zi Bayotiy* – Bayot nomli qabila Navro'zi; O'n ikki maqom tizimidagi sho'ba nomi.

*Nayriz* – O'n ikki maqom tizimida ma'lum sho'ba va tojik xalq kuyalaridan birining nomi.

*Nasr* – zafar, ko'mak; Shashmaqomning shijoatbaxsh, hozirda lirik she'rlar bilan ijro etilgan sho'balarining ifodasi.

*Naqr* – ritm, usul zarblari birligi; urish, kesish; ritm o'lchovlari ifodalanadigan unsiz harflar.

*Naqsh* – bezak, o'tmishda ma'lum tartibda ishlangan ashulaning nomi, taxminan tarona ma'nosiga to'g'ri keladi va ruboiy vaznidagi she'rlar bilan "o'qiladi".

*Nag'ma* – yakka musiqa tovushi, ton; ba'zan musiqa asarlarini ham bildiradi.

*Nuzha* – ko'ngil ochuvchi; X–XIII asrlarda mashhur bo'lgan chang turidagi musiqiy cholg'u nomi.

*Nuhuft* – pinhon; O'n ikki maqom tizimidagi ma'lum sho'ba nomi.

*Ovoz (ovoza)* – lad tovushqatorlarining bir turi. Aks sado, maqom-larga nazira qilib ishlangan musiqa asari.

*Oraz* – Dugoh va Navo maqomlarining Nasr sho'basi.

*Panjgoh* – O'n ikki maqom tizimida besh pog'onali sho'ba nomi.

*Parda* – maqom; musiqa cholg'ulari dastasidagi to'siqlar, pardalar.

*Peshrav* – yuqoriga harakat etuvchi kichik motivlardan tuzilgan ma'lum tartibda ishlangan kuy shakli.

*Qavl* – ashula; inson tovushi bilan ijro etiladigan musiqa asarlari.

*Qavliy* – inson ovoziga xos.

*Qonun* – chang turidagi qadimiy musiqa cholg'usi. Uni barmoq-larga angishvona kiyib, tirnab chalingan.

*Sabboba* – udning ko'rsatkich barmoq bilan bosiladigan pardasining nomi.

*Savt* – 1. Tovush, ovoz; 2. Ohang, aks sado. Maqomlarning asosiy sho'balariga nazira qilib ishlangan Shashmaqom ashula bo'limining ikkinchi guruh sho'bali nomi.

*Sarxat* – maqom ashula yo'llarinining boshida keladigan ikki kuy jumlesi.

*Sarxona* – maqom kuy yoki ashula yo'llarinining boshida keladigan ikki kuy jumlesi.

*Taniniy* – katta sekunda.

*Ud* – qadim zamonalardan mashhur bo'lgan to'rt va besh torli musiqa cholg'usi. Uning qorin qismida katta bo'lib, mezrob bilan chertib chalingan.

*Ushshoq* (oshiqlar) – O'n ikki maqom tizimida muayyan maqom nomi, Shashmaqomda mashhur sho'baning nomi.

*Vustai Zalzal yoki qadima* (arab xoqoni Zalzal, vafoti 791-y.) zamonida belgilangan va o'rta barmoq bilan bosiladigan ud pardasi.

*Vustai furs* – forslar ixtiro etgan va o'rta barmoq bilan bosiladigan ud pardasi.

*Xat* – ashulaning bir bayt she'r bilan aytildigan qismiga teng bo'lagi.

*Xona* – kuy jumla (satr)larining ifodasi.

*Zangula* – so'zma-so'z qo'ng'iyoq; O'n ikki maqom tizimidagi ma'lum maqom nomi.

*Zir* (forscha) – baland tovush beradigan tor, bamdan boshlab to'rtinchি torning ifodasidir.

*Zirafkand* – to'shak va pastga sakrash ma'nosida bo'lib, O'n ikki maqom tizimiga kirgan maqom nomi.

*Zovuliy* – Eron shaharlаридан biriga nisbatan berilgan O'n ikki maqom sho'balaridan birining nomi.

*Zoid* – udning ochiq tordan so'nggi pardasi.

*Zul-arba'* – to'rt pog'onali tovushqatorni o'z ichiga oluvchi interval; kvarta.

*Zul-kull* – oktava diapazonidagi hamma tovushlarni o'z ichiga olgan interval; oktava.

*Zul-kull val-arba'* – oktava va kvarta majmuasidan tashkil topgan interval, undetsima.

*Zul-kull-val xams* – oktava va kvinta majmuasidan tuzilgan interval, duodetsima.

*Zul-kull marratayn* – ikki oktava; ikki oktava diapazonidagi interval, kvindetsima.

*Zul-xams* – besh pog'onali tovushqatorni o'z ichiga oluvchi kvinta.

*Shodiyona* – nog'ora, doyra, surnay va karnaylarda xalq shodiyona va to'ylarida ijro etiladigan usullar va kuylar turkumi.

*Sho'ba* – O'n ikki maqom tizimiga kirgan ma'lum lad tovushqatorlari: maqomlarning shoxobchalari.

*O'n ikki maqom* – Qarang: Duvozdahmaqom.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Агаева Сурая Хусров кизи. Абдулгадир Мараги и его музыкально-теоретическое наследие (XIV–XV вв.): дис. канд. искусствоведение. Баку. –М.: Научно-исследовательский институт искусствознания, 1979.

2. Агаева С. Из истории музыкальной культуры Азербайджана. Абдулгадир Мараги. // Музыка народов Азии и Африки. Вып. 3. – М.: Сов. композитор, 1980.

3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.

4. Alisher Navoiy. Sab'ayi sayyor. – T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

5. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. Sab'ayi sayyor. 10-jild. – T., 1992.

6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'rtinchи tom. Mahbub ul-qulub. – T., Fan, 1998.

7. Alisher Navoiy asarlari. XV–XVI asrlar kitobat san'ati durdonalarida. – T., 2020.

8. Amir Temur o'gitlari. – T., O'zbekiston, 2007.

9. Ayoziy, Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. – T., O'zbekiston, 2011.

10. Bobur Z.M. Boburnoma. – T., O'qituvchi, 2008.

11. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – T., Fan, 2019.

12. Brihaspati Achariy. Musulmonlar va Hindiston yarimoroli musiqasi. – T., 2009.

13. Gulbadanbegim. Humoyunnoma. – T., 2018.

14. Дарвиш Али Чангি. Трактат о музыке. (рукопись). Перев. с перс. Д.Рашидовой. – Т. 1989. Биб-ка Института искусствознания АН РУз. Инв.№ 879.

15. Джами, Абдурахман. Трактат о музыке (пер. с перс. А.И. Болдырева) ред. и комментарии В.М.Беляева. – Т., АН УзССР, 1960.

16. Vosify Zayniddin. Badoye' ul-vaqoye. Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi. – T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
17. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob. – T., Mehnat, 1991.
18. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы. – Т., 2006.
19. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqa ijodi. – Т., 1994.
20. Ibrohimov O. Ranglarda sadolangan maqomlar.//Shashmaqom saboqlari. Maqola va ma'ruzalarining 2-to'plami. – Т., 2005.
21. Ibrohimov O., Oripov Z. X–XVII asrlar o'zbek mumtoz musiqasi (qo'lyozma). – Т., O'zR FA San'atshunoslik instituti kutubxonasi, inv. №8014.
22. Исфахони, Абул Фарадж. Книга песен. –М.: Наука, 1980.
23. Kavkabi Najmuddin. Risolayi musiqi. Risola dar bayoni Duvozdahmaqom. Tahiya, tahqiq va tavzehot ba qalami Asqarali Rajabov. – Dushanbe: Irfon, 1985.
24. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Т., Fan, 1993.
25. Кароматов Ф. Исполнительские традиции народов Ближнего и Среднего Востока в условиях современности. В кн: Традиции музыкальных культур народов Ближнего, Среднего Востока и современность. – М.: Советский композитор, 1987.
26. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т., O'qituvchi, 1976.
27. Миниатюры к поэмам Алишера Навои//Автор-составитель Хамид Сулейман. – Т., 1970.
28. Миниатюры к поэмам Алишера Навои// Составители Хамид Сулейман, Фазила Сулаймонова. – Т., Фан, 1982.
29. Миниатюры к Бабурнаме. Составитель альбома и автор предисловия Хамид Сулейман. – Т., Фан, 1970.
30. Mulla Bekjon o'g'li, Muhammad Yusuf o'g'li. Xorazm musiqiy tarixchasi. – М., 1925.
31. Mo'jiziy Ismatulloh ibn Ne'matulloh. Tavorixi musiqiyun. – Т., 2010.
32. Nazarov Abdumannon. Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida (Mumtoz iyqo' nazariyasi). – Т., 1995.

33. Nazarov A. Temuriylar davrida harbiy musiqa. – Т., Guliston. № 4. 1997.
34. Nizomiddinov N.F. Hind mumtoz musiqasi va milliy cholg'ulari. – Т., O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi, 2008.
35. Polyakova Y., Rahimova Z. Sharq miniatyurasi va adabiyoti. – Т., 1987.
36. Rajabov Is'hoq. Maqomlar masalasiga doir. – Т., O'zadabiy-nashr, 1963.
37. Rajabov Is'hoq. Maqomlar (nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov). – Т., 2006.
38. Rajabov Is'hoq. Maqom asoslari. (R.Yunusov tahriri ostida). – Т., 1992.
39. Rajabov I., Karomatov F. Shashmaqom. I tom. Buzruk. – Т., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1996.
40. Rajabov I. Marog'iy. O'zbekiston san'ati. №5. – Т., 1982.
41. Раджабов И.Р. Трактаты о музыке. Из Собрания Восточных рукописей АН РУз. – Т., 2020.
42. Samarqandiy, Abdurazzoq. Matlayi sa'dayn va majmayi bah-rayn. II jild. – Т., O'zbekiston, 2008.
43. Saidiy S. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik musiqa an'analari misolida). – Т., 2008.
44. Семенов А.А. Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII в.). – Т., 1946.
45. Temur tuzuklari. (Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi). – Т., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
46. Toshkandiy Salohiddin. Temurnoma (nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va lug'at muallifi Poyon Ravshanov, muharrir Chori Avaz). – Т., Cho'lpon, 1990.
47. To'rayev F. Mutribot qalbidan uchgan navolar. – Т., Navro'z, 2018.
48. Turg'unova N. Farg'ona vodiysi yallachilik an'analari. – Namangan, 2016.
49. Тримингем Дж. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989.

50. To'ychiyev Ummat. O'zbek poeziyasida aruz sistemasi. – T., Fan, 1985.
51. Urmaviy Safiyuddin. Kitob ul-advor (arabchadan A.Nazarov tarjimasi), qo'lyozma, San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv 849.
52. Юнусов Р.Й. Макомы и мугамы. – Т., Фан, 1992.
53. Yunusov R.Y. O'zbek xalq musiqa ijodi. – T., 2000.
54. Yassaviy Ahmad. Devoni hikmat. – T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.
55. Hamid Sulaymon. Alisher Navoiy dostonlariga ishlangan rasmlar. – T., Fan, 1970.
56. Hamid Sulaymon. Boburnoma rasmlari. – T., Fan, 1970.
57. Husayniy, Zaynulobiddin Mahmudiy. Qonuni ilmi va amaliyi musiqiy. Tahiya, tahrif va faksimilei dastnaviz va tavzehoti Asqarali Rajabov. –Dushanbe: Donish, 1987.
58. Hoshimov A.S. Uyg'ur kasbiy musiqasi an'analari. – T., 2003.
59. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Boburiylar davlati. 1-jild. – T., O'zbekiston, 2000.
60. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – T., 2001.
61. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – T., 2003.
62. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. – T., 2004.
63. O'zbek tilining izohli lug'at. – T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
64. Qayumov A. Bu ohang ila bo'lg'asen Naqshband. – T., 1993.
65. Qudratullayev Hasan. Musiqiy merosimiz tarixidan. – T., "Guliston" jurn. № 6. 1996.
66. Qodirov M. Temur va Temuriylar davrida tomosha san'atlari. – T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.
67. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T., Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahriri, 1997.
68. Shodmonov Nafas. Xoja Abdulqodir Marog'iy. – T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
69. Shomiy, Nizomiddin. Zafarnoma. – T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
1-mavzu: Sohibqiron Amir Temur va musiqa .....	6
2-mavzu: Amir Temurning harbiy musiqa san'ati .....	15
3-mavzu: Temuriylar davri musiqa madaniyati .....	35
4-mavzu: Ayollar ijodi .....	50
5-mavzu: Musiqa ilmi .....	59
6-mavzu: Hazrat Alisher Navoiy va musiqa .....	66
7-mavzu: Bobur va musiqa .....	81
8-mavzu: Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyatining tarixiy ahamiyati .....	97
Amir Temur va Temuriylar davri musiqa madaniyati fanidan test .....	102
Glossariy .....	110
Foydalilanilgan adabiyotlar .....	115

**OQILXON IBROHIMOV**

# **AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MUSIQA MADANIYATI**

*Darslik*

Muharrir	T. Mirzayev
Badiiy muharrir	D. Mulla-Axunov
Sahifalovchi	G. Ahmedova

Noshirlik faoliyati to‘g‘risidagi xabarnoma  
6.11.2023yil qabul qilingan, tasdiqnomasi № 156149.  
Bosishga 2023-yil 26-noyabrda ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog‘i 6,98.  
Adadi 55 nusxa. Buyurtma raqami № 091-23.

“Donishmand ziyosi” nashriyotida nashrga tayyorlandi  
va matbaa bo‘limida chop etildi.  
Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

**«DONISHMAND ZIYOSI»**

ISBN 978-9910-9540-2-3



9 789910 954023